Til – dil tarjimoni
O'zbek xalq maqoli

1991-yildan chiqa boshlagan

2020-yil. 8-son.

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyo

SEN – QUDRAT MANBAI, SAODAT MASKANI, JONAJON O'ZBEKISTONIM!

Vatanimiz Mustaqilligining 29 yilligi arafasida "Toshkent metrosi"ning "Yunusobod yo'nalishi" hamda "Qo'yliq yer usti metrosi" ishga tushirildi.

Ushbu sonda

Dolzarb mavzu
Davlat tilining uzluksiz ta'lim tizimida o'qitilishi borasidagi muammolar — 3-bet

Metodik tavsiya
Uslubiyatni o'qitishning amaliy ahamiyati — 8-bet

Tadqiqotlar
Bilingual ta'lim muhitida o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish — 21-bet

Лучший учитель-филолог – 2020
А.П.Чехов. Рассказ «Мальчики» — 51-bet

“YILNING ENG YAXSHI FAN O‘QITUVCHISI – 2019”

Mukkaramxon MULLABOYEVA,
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumanidagi
10-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi,
“Yilning eng yaxshi fan o‘qituvchisi – 2019”
ko‘rik-tanlovining 2-o‘rin g‘olibi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 8-son.

Bosh muharrir
Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:
Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:
Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:
Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:
100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2020.08.08. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

OOO "ECO TEXTILE PRODUCT" босмахонасида чоп этилди. Манзил: Тошкент ш., Учтепа т., Катта Хирмонтепа ва Ширин кўчалари чорраҳаси кесишмаси, 47 "А"уй. Буюртма №: 208 С. Адади: 3000..

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Abduraxim NASIROV. Davlat tilining uzluksiz ta'lim tizimida o'qitilishi borasidagi muammolar ... 3

DARS MUQADDAS

Dilbar NORMURODOVA. "Mustaqil O'zbekistonim – dunyoga dostonim mening!" ... 5

METODIK TAVSIYA

Mahfuza ARABBOYEVA. Uslubiyatni o'qitishning amaliy ahamiyati ... 8

TAHLIL

Zarnigor SOHIBOVA. Bobur she'riyatida fasllar obrazining tarixiy asoslari haqida ... 10
Zebuniso AHRAROVA. Mahmudxo'ja Behbudiyning o'qitish texnologiyalaridagi yangiliklari ... 13
Umidjon YIGITALIYEV. "Odam" konsepti bilan assotsiativ bog'langan morfologik hodisalar ... 15

TADQIQOTLAR

Abdumannon HASANOV. Chorvachilikda faol qo'llanuvchi ba'zi dialektizmlar xususida ... 17
Matluba JABBOROVA. Mumtoz lirikada Jamshid talqini ... 19
Gulruxsor ERGASHEVA. Bilingual ta'lim muhitida o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish ... 21
Shukur-ALI ATAYEV. Yozuv malakasini shakllantirishda musiqa va nazmning ta'siri ... 23
Hurriyat XUDOYMURODOVA. "Ko'zgudagi ikkovlon" romani poetikasi ... 25

KICHIK TADQIQOT

Vazira IBRAGIMOVA. Badiiy publitsistikada tuyg'ular tasviri ... 28
Kumushbibi ERMAMATOVA. Televideniyeda dialog janridagi mualliflik ko'rsatuvlarining til va uslub imkoniyatlari ... 29
Abdunabi TO'YCHIYEV. Ikki hikoya – bitta olam ... 31
Xolmo'min FAYZULLAYEV. "Qoraquyun" romanida inson va tabiat uyg'unligi falsafasining poetik tasvirlanishi ... 33
Shohidaxon ISAKOVA, Zilolaxon ISAKOVA. Lyusen Keren – temurshunos olim ... 35
Gulchiroy HAYDAROVA. "Shodligim ko'kka sig'mas..." ... 36
Rahmatilla NORBEKOV. Abdulla Oripov dostonlarida milliy qadriyatlar talqini ... 37
Ravshanxo'ja RASULOV. Kelajak – til sohiblariniki ... 39
Shoira JABBAROVA. Muqobilsiz leksika o'zga tilda qanday tarjima qilinadi? ... 40
Gulzoda SOATOVA. "To'nyuquq" yodnomasidagi Touquq ismining o'qilishi va ma'nolari ... 41
Faridaxon TURSUNOVA. Kalvak Maxzum nutqida folklor an'analariga xos so'zlarning qo'llanilishi ... 43
Umidjon EGAMOV. So'z naqshinkorligi ... 45
Feruza MAMATOVA. Ba'zi oilaviy munosabatlar stereotiplarining maqollarda aks etishi ... 46
Charos ABDULLAEVA. Peculiarities of literary discourse ... 47

АКТУАЛЬНОЕ СЛОВО ДНЯ

Манзура РАДЖАБОВА. Дистанционное обучение русскому языку во время пандемии ... 49

ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ – 2020

Замира НУРМАНОВА. А.П.Чехов. Рассказ «Мальчики» ... 51

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Севиль БАГИРОВА. Использование россиеведческого материала на занятиях по РКИ ... 54
Саодат КУЛБАЕВА, Ольга ГИЗАТУЛИНА. Технология личностно-ориентированного обучения в школьном образовании, метод проектов ... 56
Малохат УЗАКОВА. Приемы работы со страноведческим материалом на занятиях по русскому языку в вузе ... 57
Маъсуда ТАХИРОВА. Педагогическое проектирование учебных целей как фактор совершенствования процесса обучения ... 58

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Шахзода АБДУЛЛАЕВА, Шахноза АЛИМОВА. Обучение теории и практическим умениям будущих учителей русского языка средствами медийных технологий ... 61
Инобат ТУРСУНОВА. Национально-ориентированный метод при изучении русского глагола в узбекской аудитории ... 63
Наргис САРИМСАКОВА. Система работы по обучению произносительным нормам курсантов военных вузов с использованием инновационных технологий ... 65
Усмонали САФАРАЛИЕВ, Мавжуда ТАШМАТОВА. Сопоставительный анализ художественного перевода с оригинала как средство развития русской речи учащихся узбекских школ ... 67

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Мадинабону АХМЕДОВА. Современный герой неореализма в узбекской литературе ... 70
Максадхон ХАКИМОВА. Несколько слов о творчестве английских писателей и поэтов Ливерпуля ... 72

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Феруза ФАИЗОВА. Использование текстов статейных списков российских посланников в Средней Азии в XVII в. на занятиях по истории русского языка ... 75

ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ

Умида АЛИБАЕВА. Основные понятия речевого этикета ... 78
Гулчехра САРИМСАКОВА. Компетентностный подход в инновационной подготовке будущих учителей к трудовой деятельности ... 79
Дилрабо САЙДАХМЕТОВА. Художественный текст как единица обучения чтению ... 80

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING *jurnali*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA va PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Sharqshuns olim, "O'tkan kunlar" asari tarjimoni Mark Edvard Riz mamlakatimiz va chet davlatlar bilan sheriklik munosabatlarini rivojlantirishga doir muhim dastur hamda loyihalarni yaratishdagi amaliy ko'magi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va madaniy hamkorlik aloqalarini kengaytirishga qo'shgan munosib hissasi uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan "O'zbekkino" Milliy agentligi yurtdoshlarimizga bayram tuhfasi sifatida 10 dan ortiq badiiy, hujjatli va animatsion filmlarning milliy televizion namoyishini taqdim etdi.

Mustaqillik bayrami kunlari "Tengiz", "Avloniy" badiiy filmlari, "Qo'qon shamoli" ko'p qismli filmi, "Xalq yuragi", "Bastakor", "Suzuk ota", "San'atdagi San'at", "Film chizayotgan musavvir", "Gumbaz ostidagi mo'jizalar", "Orol – dardim mening" hujjatli filmlari, "Avtosarguzashtlar", "Samarqand noni", "Zag'cha", "Qaldirg'och bilan mayna", "Charxpalak – 3" va "Charxpalak – 4" multfilmlarining milliy telepremyerasi bo'lib o'tdi.



"O'zbekkino" milliy agentligi buyurtmasi asosida "Xasis baqqol" deb nomlangan multiplikatsion filmni suratga olish ishlari boshlandi. "Multiplikatsion filmlar studiyasi" DUK va "Astir Animation" MChJ bilan hamkorlikda yaratilayotgan mazkur film Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida keltirilgan hikoyat asosida suratga olinmoqda. Eslatib o'tamiz, ayni paytga qadar Navoiyning "Sher bilan Durroj", "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor" asarlari asosida multfilmlar yaratilgan.

TATU talabalari G'.Nazarov va H.Baxtiyorov tomonidan yaratilgan ImtihonGo mobil ilovasi qayta yangilanib, Google Playga joylashtirildi. Ushbu ilova orqali abituriyentlar imtihon vaqti va joyi haqidagi xabarnomani olish, imtihon o'tadigan stadion yoki xiyobon manzilini tez va oson topish imkoniyatiga ega bo'ladilar, qolaversa, DTMning abitur.dtm.uz hamda qabul.dtm.uz rasmiy veb-saytlariga to'g'ridan to'g'ri kirishlari mumkin bo'ladi.



Germaniyaning "Lambert Academic Publishing" nashriyoti tomonidan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti Iqboloy Adizovaning monografiyasi chop etildi.

Monografiya XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan mashhur o'zbek shoirasi Uvaysiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'lib, "Sharqning mutafakkir shoirasi" nomi bilan ingliz tilida nashr qilindi.

Kitob sharq va o'zbek adabiyoti, Qo'qon adabiy muhiti, mumtoz poetika, janrlar, badiiy obraz va ramz munosabati masalalari bilan qiziquvchi olimlar, tadqiqotchilar hamda filolog mutaxassislar uchun mo'ljallangan.



Muxlisa DO'STMUHAMEDOVA tayyorladi.

Abduraxim NASIROV,
Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i maslahatchisi, filologiya fanlari doktori

DAVLAT TILINING UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QITILISHI BORASIDAGI MUAMMOLAR

Til – muomala, so'zlashuv va aloqa vositasi bo'lish bilan birga millat qiyofasini belgilovchi bebaho ne'mat hamdir. Til qaysi xalqqa oidligidan qat'i nazar, shu xalq ma'naviyatining ustuni va asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham til ta'limida bu jihatga katta e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Bugungi kunda Yer yuzidagi 50 millionga yaqin aholi o'zbek tilida gaplashadi. Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Mamlakatimizda shakllangan odil til siyosati bois xalq ta'limi tizimida ta'lim yetti tilda olib borilmoqda. O'zbek tili Davlat tili sifatida ta'lim o'zbek tilidan boshqa tillarda olib boriladigan ta'lim muassasalarida o'qitib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida" hamda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunlari uzluksiz ta'lim tizimida joriy etilib, bevosita o'zbek tili ta'limi mazmunini takomillashtirish, o'qitish samaradorligi hamda o'zbek tilining nufuzini oshirishga qaratilgan.

Ma'lumki, til ta'limida tilning ona tili, xorijiy til yoki ikkinchi til, davlat tili sifatida o'qitilishi o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bu o'quv fanlarining nomlanishida ham aks etadi. Har bir tilning davlat miqyosidagi maqomi uning mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy o'rni, jo'g'rofiy-siyosiy holati kabi qator omillardan kelib chiqib belgilanadi. Yurtimizda umumiy o'rta ta'limning yetti tilda olib borilishi, bular orasida qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman tillari bir oilaga mansub qardosh tillar ekanligi e'tiborga olinsa, ularga nisbatan "o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish" atamasini qo'llash, albatta, joiz bo'lmaydi. Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda esa turli millat vakillari, hatto o'zbeklar ham ta'lim olayotgani va, eng asosiysi, ushbu turli millat vakillarining O'zbekistonda tug'ilib, muqim yashayotganligi hisobga olinsa, o'zbek tilini ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida emas, aynan **davlat tili** sifatida o'qitish maqsadga muvofiqligi ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bugungi kunda olimlarimiz orasida ona tili va adabiyoti, o'zbek tili terminlari o'rniga fanning nomini, o'quv dasturi nomini yagona "o'zbek tili" deb nomlash taklifini berayotganlari ham yo'q emas.

O'zbek tili fanining o'qitilishi bo'yicha davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi uchun Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan.

Mamlakatimizda ingliz, nemis, fransuz va boshqa chet tillaridan fan dasturlarining mazmun-mohiyati, mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligini ta'minlash maqsadida uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilgan. O'sha davrda jarayonga O'zbekistondagi Britaniya Kengashi vakolatxonasi, Gyote instituti, Fransiya elchixonasi ko'magida xalqaro ekspertlar jalb etilgan. Asos sifatida **CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) chet tilini egallashning umumyevropa til ko'nikmasi qolipi olingan**. Natijada uzluksiz ta'lim tizimining chet til bo'yicha Davlat ta'lim standarti 2013-yil 8-mayda Vazirlar Mahkamasining 124-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Unda A1 (4-sinf)dan C1 (bakalavr, magistr mutaxassis)gacha darajalar belgilanib, talablar qo'yilgan.

CEFR – Yevropada barcha chet tillarni o'rganish, o'rgatish va baholashga doir masalalarni o'z ichiga oladi. O'zbek tili ham O'zbekistonda yashayotgan boshqa millat vakillari uchun ona tili emas, uni davlat tili sifatida o'rganish va o'rgatishda chet tilni o'rganish metodologiyasidan foydalanish foydadan xoli bo'lmaydi.

Ushbu talablar, xalqaro tajribalar va yangi vazifalardan kelib chiqqan holda milliy xususiyatlar asosida o'quv dasturlari yangidan ishlab chiqilmoqda. Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarga alohida e'tibor qaratilayotgani, ularning maktabgacha tarbiya muassasalari va maktabga tayyorlov guruhlariga to'liq jalb etilishini ta'minlash, bolalarda nutq o'stirish, tillarni o'rganish, matematika, musiqa bo'yicha ilk ko'nikmalarni aynan kichik yoshdan boshlab shakllantirish maqsadida ushbu muassasalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlariga aylantirilishi, bog'cha yoshidagi bolalar va maktabga tayyorlov guruhlari uchun maxsus dasturlar va uslubiy qo'llanmalar yaratilayotgani yurtimizda yashovchi turli millatlar farzandlarining davlat tilidan lug'aviy ko'nikmalarini mazkur bosqichdan boshlash va maktab ta'limida uzluksiz davom ettirilishini ta'minlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa o'zbek tilidan kompetensiyaviy darajalar bo'yicha davlat ta'lim standartlari talablari va majburiy minimal ta'lim mazmunini ta'lim bosqichlari kesimida qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Mazkur konsepsiyada o'zbek tilini uzluksiz o'qitishning milliy dasturida quyidagi ta'lim bosqichlari qamrab olinishi maqsadga muvofiq:

✓**A1 daraja** – o'zbek tilini o'rgatishning ilk bosqichi (maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktabga tayyorlov guruhlari);

✓**A2 daraja** – o'zbek tilini o'qitishning boshlang'ich bosqichi (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 1–4-sinflari);

✓**B1 daraja** – o'zbek tilini o'qitishning tayanch bosqichi (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 5–9-sinflari);

✓**B2 daraja** – o'zbek tilini o'qitishning sohaviy yo'naltirilgan bosqichi (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 10–11-sinflari hamda ta'lim rus va qoraqalpoq

tillarida olib boriladigan litseylar va kasb-hunar maktablari va guruhlari);

✓**C1 daraja** – o'zbek tilini o'qitishning yuqori bosqichi (oliy ta'lim muassasalarining rus va qoraqalpoq guruhlari). Oliy ta'lim tizimida o'zbek tilini o'qitish filologik va nofilologik yo'nalishlarga ajratilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Ma'lumki, davlat ta'lim standartlari – har bir fan bo'yicha o'quvchilar va talabalarning tayyorgarligi, saviyasiga qo'yiladigan daraja ko'rsatkichlari bo'lib, ta'lim mazmuni, shakllari, usullari, baholash tartibini belgilab beradi. Bunda o'zbek tili ta'limi oldiga qo'yiladigan asosiy talab, avvalo, o'quvchi va talabalarning o'z fikrini og'zaki yoki yozma shaklda xatosiz bayon qila olish, o'zgalar bilan turli nutqiy vaziyatlarda muloqot qila olishga o'rgatish, ya'ni kommunikativ savodxonlikni shakllantirishdan iborat. Hozirgi kunda ana shunday talab va mezonlarga ko'ra o'zbek tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvga asoslanish tavsiya etiladi.

O'zbek tili bo'yicha yangilanayotgan o'quv dasturlarida respublikamizda yashovchi boshqa millat vakillarining farzandlari o'zbek tili fanini davlat tili sifatida puxta egallashlari va ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarida amaliy tatbiq eta olishlari uchun o'zbek tilining og'zaki va yozma nutq shakllarini to'liq o'zlashtirgan bo'lishlari, uning so'z boyligidan grammatik bilimlar asosida to'g'ri foydalana bilishlari, kundalik turmush va tanlangan ixtisosligiga oid mavzularda o'zbekcha erkin muloqotga kirisha olishlariga talablar qo'yilishi lozim. Shuningdek, davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida o'quvchi-talabalarning yoshi, ehtiyoj va imkoniyatlari, kasbiy yo'nalishi hisobga olingan holda har bir ta'lim bosqichi uchun o'quv yuklama hajmi va o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma hamda malakalariga qo'yiladigan minimal talablar takomillashtirilishi maqsadga muvofiq.

Ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan maktablar va guruhlarda o'zbek tilini o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarga o'zbek tilining grammatikasini izchil o'rgatish emas, balki ularda o'zbekcha nutqiy malakalarni shakllantirish hisoblanadi. Buning uchun o'zbek tilidagi faol nutqiy qurilma, so'z birikmalarini o'rgatish, grammatik bilimlarni esa nutqiy ehtiyoj, fikr ifodalash maqsadidan kelib chiqqan holda tushuntirish lozim. Zero, tilni ona tili sifatida o'qitish bilan davlat tili sifatida o'qitish o'zaro qat'iy farqlanadi hamda alohida tamoyillarga tayanadi. Til o'rganishda, asosan, nutq, muloqot, kommunikatsiya masalalari yetakchi o'rin egallagani uchun til ta'limi tamoyillarini belgilashda ko'proq shu jihatga alohida ahamiyat beriladi. Shundan kelib chiqqan holda ta'lim bosqichlarida o'zbek tilini o'qitishni takomillashtirish, buning uchun, avvalo, o'zbek tili ta'limi mazmunini til ta'limining xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish, o'zbek tilini o'qitishning ilmiy jihatdan asoslangan yangi konseptual tamoyillarini belgilash, ta'lim jarayoniga o'zbek tilini o'qitishning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqadigan samarali usullarni tatbiq etish zarur. Ushbu maqsadga erishish uchun:

– ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tilini uzviylik va uzluksizlik asosida o'qitishni tashkil etish;

– o'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitishning samarali metodikasini yaratish, sodda o'zlashtiriluvchi mashqlar tizimini ishlab chiqish va ta'lim jarayonida qo'llash;

– o'zbek tili ta'limi jarayonida ilg'or pedagogik va axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llashga jiddiy e'tibor qaratish;

– o'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitishga yo'naltirilgan kompyuter o'quv dasturlari, multimedia ishlanmalari, elektron darsliklar yaratish hamda ularni ta'lim tizimiga faol tatbiq etish kabi vazifalarni hal qilish zarur.

Ona tilimizning respublika hududida millatlararo asosiy muloqot vositasiga aylanib borishi ko'p jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar maktablari hamda oliy ta'lim tizimida o'zga tilli guruhlarda o'zbek tilining yuqori darajada o'qitilishi, ularda amal qilinayotgan o'quv dasturlari va darsliklar mazmuniga har tomonlama bog'liq. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda "O'zbek tili" fanidan har bir ta'lim bosqichi uchun davlat ta'lim standartlari talablari va o'quv dasturlari mazmunini quyidagilarga amal qilgan holda takomillashtirish kerak:

– o'zbek tilining davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari talablarini til ta'limining xalqaro standartlari darajalariga muvofiqlashtirish (respublikada uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlari bitiruvchilari uchun belgilangan talablarni xalqaro standartlarning A1, A2, B1, B2, C1 darajalariga mos holda takomillashtirish);

– o'zbek tili ta'limi mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida isloh qilish (o'quvchilar mazkur fan orqali egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirish);

– davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablar asosida har bir ta'lim bosqichi uchun o'zbek tilidan beriladigan faol va nofaol leksik-grammatik minimumni aniqlash hamda ularni bosqichma-bosqich rivojlantirib borish;

– ta'lim bosqichlariaro uzluksizlikka amal qilish (umumiy o'rta ta'lim sinflari uchun rejalashtirilgan o'quv dasturi boshlang'ich sinflar uchun o'zbek tilidan o'quv dasturining tadrijiy davomi va ayni paytda o'rta maxsus ta'lim bosqichi akademik litseylari va kasb-hunar maktablari uchun asos bo'lishiga erishish);

– mavzulararo izchillik va uzviylik tamoyiliga rioya qilish (nutqiy mavzular, grammatik mavzular hamda adabiy o'qish materiallarining o'zaro uzviy bog'liqlikda berilishi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi, ularning oddiydan murakkabga tomon tadrijiy o'stirib borilishini ta'minlash);

– adabiy o'qish materiallari orqali boshqa millatlar farzandlarini o'zbek adabiyotining nodir namunalari bilan tanishtirish, ularda o'zbek adabiyotiga qiziqish uyg'otish, adabiy tildagi so'z boyligini oshirib borish.

Ushbu vazifalarning barchasi ta'lim oluvchilarda o'zbek tili fanidan egallangan bilimlari asosida amaliy nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish, ularni bosqichma-bosqich nutqiy malakaga aylantirib borish hamda ushbu bilim, ko'nikma va malakalarni turli muloqot vaziyatlarida erkin qo'llash layoqati – nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratiladi. Buning uchun har bir dars jarayonida til faoliyatining barcha turlari: tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish amallari bo'yicha bir yo'la ish olib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqoridagi tavsiyalar ta'lim mazmuni va tashkiliy jarayonlarga singdirilsa, o'ylaymizki, O'zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining o'qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo'lishlari, barcha sohalarda o'zbek tilida erkin fikr almashishlari uchun yanada yuqoriroq darajada zamin yaratilgan bo'lar edi.

Dilbar NORMURODOVA,
Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 11-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi

"MUSTAQIL O'ZBEKISTONIM – DUNYOGA DOSTONIM MENING!"

(5-sinflar uchun Mustaqillik darsi ssenariysi. Onlayn tarzda ham tashkil etish mumkin.)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga Mustaqillikning eng oliy ne'mat ekanini anglatish va Vatan tushunchasini qalbiga singdirish;

b) tarbiyaviy maqsad: yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish orqali ularda shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish hamda milliy, umummadaniy kompetensiya elementlarini shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning mustaqillik, erk, Vatanparvarlik haqidagi dunyoqarashlarini o'stirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi va mustahkamlovchi.

Darsda foydalaniladigan usullar: "Topshiriqlar yechimi", "Raqamlar siri", "Pufaklar jilosi", "So'zdan so'z o'yini", "Boshqotirma" baholar shakli.

Darsda foydalanilgan jihozlar: kompyuter, elektron doska, slaydlar, mavzuga doir videolavhalar, audiomaterial, suratlar.

Darsning borishi:

O'qituvchi: Aziz bolajonlar! Bugun maktab o'chog'idagi ilk sabog'imiz. Hammamizga ma'lumki, kuchli pandemiya sabab darslarimiz onlayn tarzida olib borilgan edi. Bugun Sizlar bilan maktabni sog'inib, ta'tilda mazza qilib dam olib, bardam va baquvvat bo'lib kelib, yana "Bilim qasri" tomon shaylandik. Ta'tilda berilgan vazifalar uchun "Topshiriqlar yechimi"ga murojaat qilamiz. Kim boshlaydi, marhamat.

O'quvchi: Ustozjon, men maktabni juda-juda sog'indim. Ustozlarim, o'rtoqlarimni ham juda sog'inib ketdim.

O'quvchi: Men quvnoq tanaffuslarni, maktabning bog'idagi shovqin-suron damlarni, jaranglab turgan turadigan qo'ng'iroqni sog'indim.

O'qituvchi: Ha, rahmat bilag'onlar, ham ziyrak, ham chaqqonlar, qani, kim yana ne der.

O'quvchi: Maktab davri issiq ekan,
Issiq ekan, qiziq ekan.
Har bir ustoz saboqlari,
Maroqli ham qiziq ekan.

O'quvchi: Rasm darsi, musiqani,
Sog'indim men juda-juda.
Ustozlarim aytgan hikmat,
O'tmagan vaqt hech behuda.

O'quvchi: Ha, o'qidim beshta kitob,
O'rganganman she'r va ertak.
Besh tashabbus ijrosi-chun,
Tinim bilmay izlam, demak.

O'quvchi: Men buvimnikida bo'ldim
Meva yeb kuchga to'ldim.

O'quvchi: Chizdim rasm, bir ko'ring,
Shiorim: Uyda qoling!
(*Chizgan rasmlarini namoyish etadi.*)

O'quvchi: Men-chi yasab in, uycha,
Boqdim baliq va qushcha.
(*O'zi boqqan baliq va qushlarining rasmlarini ko'rsatadi.*)

O'quvchi: Uydan chiqmay o'qidim
O'zimga sharf to'qidim.

O'quvchi: Sirlashdim gullar bilan,
Vaqtim chog' ular bilan.

O'qituvchi: Demak,
Hamma aytganga quloq solib,
Vaqtida uyda qolib,
Faqat kuchga to'libsiz,
Odobli bola bo'libsiz!
Keling, endi navbatni topshiriqqa bersak:
Raqamlar sizga mushtoq,
Yashang bo'lib ahil, inoq
Nimalarni aytasiz?
Bir bor tarixga qaytasiz.

Ekranda "Raqamlar siri" namoyish etiladi, 1, 2, 3, 4. Ko'rsatilgan raqamlarning ustiga bosilsa, orqasidagi raqamlar izohi o'quvchilar tomonidan ifodalanadi:

1 raqami. Namoyish – Gerb 1992-yil 2-iyul.

2 raqami. Namoyish – Bayroq1992-yil 18-noyabr.

3 raqami. Namoyish – Madhiya 1992-yil 10-dekabr.

4 raqami. Namoyish – Konstitutsiya 1992-yil 8-dekabr.

(*O'quvchilar izohi yozma va og'zaki tinglanadi.*)

O'quvchi: O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i – Davlat gerbi va davlat madhiyasi bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining rasmiy davlat ramzi

va suverenitetining timsoli hisoblanadi. 1991-yil 18-noyabrda mamlakat mustaqilligi e'lon qilinganidan ikki oy o'tgach tasdiqlangan.

O'quvchi: O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi O'zbekiston Respublikasining rasmiy davlat ramzlaridan biridir. 1992-yil 2-iyulda "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida tasdiqlangan.

O'quvchi: 1992-yil 10-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonun imzolandi. Mazkur qonunda belgilanganidek, madhiyamiz davlat suverenitetining ramzi hisoblanadi.

O'quvchi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – O'zbekiston Respublikasining eng yuqori normativ-huquqiy hujjatidir. Konstitutsiya 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan va o'sha kuni kuchga kirgan.

O'quvchi: Mustaqil, suveren yurtimizning bu ramzlari butun dunyoga mashhur. Monitorda dars shiori **"Sen – qudrat manbai, saodat maskani, jonajon O'zbekistonim!"** va undagi so'zlari alohida ko'rsatiladi va bu so'zlarga ta'rif so'raladi. O'quvchilar javobi tinglanadi.

O'quvchi: Qudrat – bu kuch, quvvat, qobiliyat, layoqat degan ma'noni ifodalaydi. Bizning mmlakatimiz barcha sohalarda kuhli, qudratli va ulug'vordir.

O'quvchi: Manba – bu to'plam, bir joyga yig'ish hisoblanib, biz shu yurt uchun hamisha o'z qobiliyatimiz va iqtidorimizni to'plab namoyish etishga tayyormiz.

O'quvchi: Saodat – bu baxt, omad, muvaffaqiyat. Bizning yurt baxt oshyoni, omad egalarining yurti, negaki, bunday yurtda tug'ilmoq va yashamoq baxt va faxrdir.

O'quvchi: Maskan – bu turar joy, o'rin. Kimlar shunday jannatmakon yurtda yashaydi? Javob bitta: baxtni his etib, quvonchga to'lib, hamisha baxtiyor damlar egasi bo'lib yashaydiganlar maskani bu jonajon Vatanimiz O'zbekistondir.

O'qituvchi: Ha, barakalla, bundan ko'rinib turibdiki, Vatan atalmish go'sha biz ulg'ayayotgan aziz maskan, ulug' yurt va kelajakka umid daraxti qadalgan joy.

Rahmat, har ishda ilg'orlarim. Keling, endi "Pufaklar jilosi"ga e'tibor qaratamiz. Ular sizga nima topshiriq berar ekan?



(O'quvchilar fikri tinglanadi.)

O'quvchi: Mening Bahodir Jalolov degan sportchi akam bor. Uning bitta zarbasi va millatimizga xos odamiyligi butun dunyo bo'ylab ovoza bo'ldi. Men ham shu akamdek sportchi bo'lib, O'zbekiston bayrog'ini dunyoga mashhur yetmoqchiman.

O'quvchi: Men Munojot Yo'lchiyeva, Farrux Zokirov, Abzal Rafiqov, To'ti Yusupovalarga havas qilaman, ularning chiroyli ovozlari qalbimizda musiqaga, san'atga mehr uyg'otgan.

O'quvchi: Men katta bo'lsam, multiplikatsiya sohasida ijod qilib, yangi-yangi multfilmlar tayyorlab, o'zbek xalq ertaklaridagi mehnatsevarlik, vatanparvarlik, sadoqat va cheksiz mehr-muhabbatni tarannum etadigan filmlar yaratmoqchiman.

O'quvchi: Men Ro'zi Choriyev, Ortiqali Qozoqov, Akmal Nur, O'ral Tansiqboyevlardek Vatan chizgilari bilan hammani lol etgan rassom bo'lib, yurtimiz manzaralarini, jilvakor tabiatini va bejirim tog' go'zalliklarini chizib, yana ham jahonga ko'rsatmoqni niyat qildim.

O'quvchi: Men jurnalistika sohasiga qiziqib qoldim. Bu soha vakillari ishini kuzatib yurt uchun madadkor ekanini dildan his etdim. Yurtimizda ro'y berayotgan har bir yangilik va xabar xalqimiz kelajagi uchun ekan, men, albatta, zo'r jurnalist bo'laman.

O'quvchi: Meni onam bir necha yildan beri uy bekasi edi. Yurtboshimizning mana shu tashabbuslaridan so'ng onam tikuvchilik bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Bu esa ayollarga bo'lgan katta e'tibor. Men ham kelajakda tadbirkor bo'lib, baliqchilik va asalarichilik bilan shug'ullanmoqchiman, buning uchun esa yurtimizda biz yoshlarga barcha shart-sharoitlar mavjud.

O'qituvchi: Ha, sizning orzularingiz shunchalar ulkan ekan, o'z baxtli nigohingiz bilan buyuk kelajakka sobit qadamlarda kirib borishga shaysiz. Endi navbat yana topshiriqli namoyishga.

Slaydda yurtboshilarimiz **Islom Karimov, Shavkat Mirziyoyevning** rasmlari, O'zbekistonimizning chiroyli shahar va qishloqlari tasviri.

O'quvchi: Ustoz, sizga aytay bir so'z,
Boqib turgan bu ikki yuz,
Xalq otasi – yurtning boshi,
Jonkuyari, oy-quyoshi.

O'quvchi: Sardobada katta xatar,
Solganida bir shum xabar,
Xalq yonida madad bo'lib,
Turgan bobom – xalqparvar.

O'quvchi: Har bir joyi shu yurtimning
Jonga huzur ham to'tiyo.
Saxovatli elim bilan.
Yurtim fayzi doim ro'yo.

O'quvchi: Samarqandning sayqalini
Termiz budda haykalini
Buxoro ark, hovuzlari,
Tarix ko'rki va jarchisin,
Hamma bilar, hamma bilar,
Bu biz uchun asriy faxr.

O'qituvchi: Rahmat, bilimdonlarim, endi kelinglar, quyidagi matn bilan ishlaymiz. Bunda matn tarkibidan o'zingizga yoqqan so'zlardan har biringiz yozasizlar va navbatdagi topshiriq uchun zamin tayyorlaysizlar, kim tezroq ishlaydi? Topshiriq davomida o'quvchilar matn ichidan so'z tanlaydilar. (*E.Vohidov qalamiga mansub matn ekranda namoyish etiladi*)

Vatan nima o'zi? Qanday qiyin savol?

Daraxtni tasavvur qiling. Uning ildizi – Vatan! Osmonga intilayotgan shoxi ham – Vatan. Xazonlarda uchayotgan barglari, qurigan shoxlari ham – Vatan. Hali shakllanmagan kurtaklari xayolidagi mevalari ham – Vatan.

Ildizsiz Vatan yo'q! Mevasiz, urug'siz ham. Biz o'z Vatanimiz – O'zbekistonni mukammal ko'rgimiz keladi. Uning mukammalligi esa bizga-shu yurt farzandlariga bog'liq.

(O'quvchilar tanlagan so'zlar: Vatan, tasavvur qilmoq, ildiz, osmon, O'zbekiston, kurtak, yurt, farzand…)

O'qituvchi: Barakalla, bilag'onlarim, har ishda chaqqonlarim. Topshirig'imiz shunday, tanlagan so'zlaringiz harflaridan terib, mavzuyimizga doir "So'zdan so'z o'yini" topshirig'i asosida so'zlar hosil qilamiz, qani, boshladik.

O'quvchilar: Mustaqillik, Istiqbol, Farovonlik, Tafakkur, Mafkura, Iqtisod…

Navbatdagi topshiriq shu so'zlar asosida so'zdan so'z yasash.

Bunda har bir so'zdan 3 tadan 5 tagacha so'z hosil qilish topshirig'i beriladi.

Masalan, ekranda MUSTAQILLIK so'zidan hosil bo'lgan so'zlar ko'rsatiladi va bolalar shu asosda ishlaydi. Mustaqil, usta, sut, aql, ilm…

Istiqbol so'zidan ibo, bol, iqbol…

Farovonlik so'zidan farovon, ravon, ona,… va boshqa.

O'qituvchi: Aziz bolajonlar, endi kelinglar Vatan haqida she'riy topshiriq – "Boshqotirma"ga navbatni bersak.

1. Turar-joy, o'rin – .
2. Ertakdagi ot – .
3. Gullar shahri – .
4. Mustaqilligimiz 1991-yil 31-avgustda e'lon qilindi – .
5. "O'tkan kunlar" ilk – .
6. Kompyuterda bor – .
7. Sitrus meva – .
8. Osh suzmoqqa kerak – .
9. O'tin qalab yondirilar – .
10. Gulzor, gulbog' nomi – .
11. O'zbekiston nurli – .
12. O'zbekiston jonajon – .

					A	N
					A	N
					A	N
					A	N
					A	N
					A	N
					A	N
					A	N
					A	N
					A	N
					A	N
					A	N

(Javoblar tekshirish uchun ko'rsatiladi)

N	A	M	A	N	G	A	N
		M	A	S	K	A	N
		R	A	S	M	A	N
			Ch	A	M	A	N
			S	A	M	A	N
			R	O	M	A	N
			E	K	R	A	N
			B	A	N	A	N
			V	A	T	A	N
			L	A	G	A	N
		G	U	L	X	A	N
		G	U	L	SH	A	N

O'qituvchi: Mana, aziz o'quvchilar darsimiz ham o'z nihoyasiga yetmoqda, bugun darsda hamma faol ishtirok etdi. Barchangizga o'z minnatdorchiligimni bildiraman. Uyga vazifa sifatida esa Vatan haqida maqollar yodlab kelish va uni izohlash topshirig'ini beraman. Dars Iqbol Mirzo qalamiga mansub "Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?" she'ri (Yulduz Usmonovaning qo'shig'i) bilan yakun topadi.

Mahfuza ARABBOYEVA,
Andijon viloyati XTXQTMO hududiy markazi
Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

USLUBIYATNI O'QITISHNING AMALIY AHAMIYATI

Inson aloqa qilish jarayonida tildagi fonetik, leksik va grammatik vositalardan foydalanadi. Ularni tanlash va ishlatishda kishilar bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Adabiy til doirasida til vositalaridan bunday tanlab olib foydalanish nutqning xilma-xil ko'rinishlari paydo bo'lishiga olib keladi. Bu esa nutq uslub(stil)lari deb yuritiladi.

Stil (uslub) so'zi grekcha "stilas" so'zidan olingan bo'lib, qalam degan ma'noni bildiradi. Insonlar o'z fikr-mulohazalarini shu qalam vositasida chizganlar.

Nutq stillari-ifoda vositalari sistemasining muayyan aloqa doirasida maqsadga muvofiq tanlash natijasida tarixan tashkil topgan nutq ko'rinishlaridir[1]. Demak, nutq uslubi so'zlovchining ma'lum bir maqsadi asosida vaziyatga mos holatda tildan foydalanishdir. Vaziyatga moslab til birliklari tanlanar ekan, o'z-o'zidan umumiylik hisoblangan til vazifasini bajarish uchun xususiylikka o'tadi. Bundan ko'rinadiki, nutq uslublari tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham nutq uslublari funksional stillar, ya'ni tilning vazifaviy shakllari deb yuritiladi.

Nutq uslubi – (defis emas, tire) ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyushgan sistemasi bo'lib, og'zaki va yozma nutq formalari bilan uzviy bog'liq. Ba'zi nutq uslublari ham og'zaki, ham yozma shaklda namoyon bo'lsa, ba'zilari faqat yozma shaklda bo'ladi.

Tilda turli nutq uslublarining mavjudligi adabiy til me'yorlarini inkor etmaydi. Har qanday til birligi qaysi nutq uslubida qo'llanmasin, u umumxalq tili lug'atiga, ya'ni adabiy tilga mansub bo'ladi. U yoki bu nutq uslubida ishlatiladigan har qanday grammatik konstruksiya til grammatik sistemasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu tilda so'zlashuvchilar nutqiy vaziyat va aloqa xarakteriga qarab tilda mavjud bo'lgan nutq stillarining birortasidan foydalanadilar. Barcha nutq uslublari til egasining umumboyligi sanaladi. Masalan, oddiy so'zlashuv jarayonida so'zlashuv uslubidan, rasmiy ishlar doirasida so'zlayotgan yoki yozayotgan til iste'molchisi rasmiy uslub me'yorlariga rioya qilishga harakat qiladi; ilmiy faoliyatda esa ilmiy uslub me'yorlariga rioya qiladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek nutq uslublari o'zlariga xos belgi va farqlaridan qat'i nazar, adabiy til me'yorlari asosida umumiylik kasb etadi. Adabiy me'yor tilning tovush sistemasini, grammatik qurilishini hamda uning lug'at boyligidagi eng tipik hayotiy va zaruriy elementlarini tanlab olish asosida tashkil topadi va bu tashkil topgan birlik adabiy til deb nomlanadi. Adabiy til umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum normaga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi formasi[2]. Adabiy til quyidagi nutq uslublari(funksional stillar)ga ajratiladi: 1. So'zlashuv uslubi. 2. Rasmiy uslub. 3. Ilmiy uslub. 4. Publitsistik uslub. 5. Badiiy uslub.

Nutq uslublarini nomlash ularning qanday aloqa doirasida ishlatilishiga qarab belgilanadi. Chunki bir xil narsa va hodisalar haqidagi fikrlar barcha uslubda bir xil ifodalanmaydi.

Til uslublarini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi Uslubiyat deb nomlanadi. Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo'llanish yo'llari, fonetik, leksik, frazeologik va grammatik birliklarining qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi. Har bir uslubni yaratuvchi vositalar mavjud bo'lib, ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

Fonetik vositalar: nutq tovushlari, ohang, urg'u.

Leksik vositalar: so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari (sinonim, omonim, antonim, paronim, dublet), ko'p ma'nolilik (metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik), tag ma'nolilik, kinoya, enantiosemiya kabi gapning tagiga yashiringan ma'no), sifatlash, o'xshatishlar, frazeologik birlik, sheva, noadabiy so'zlar (jargon, argo, vulgarizm, varvarizm kabilar), kasb-hunar so'zlari, mubolag'a (giperbola), arxaik va tarixiy so'zlar, atamalar.

Grammatik vositalar: a) morfologik vositalar: barcha so'z turkumlari; b) sintaktik vositalar: gap bo'laklari, ritorik so'roq gaplar, undalma, kirish so'z, kirish birikma, sodda va qo'shma gaplar, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.

Ma'lum bir uslubga tegishli so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar deb yuritiladi: *barq urmoq* birikmasi badiiy uslubga, *metonimiya, metafora* kabi so'zlar ilmiy uslubga, *ketvorgan, balli, dahshat* kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga, *siyosiy maydon* kabi so'z birikmasi ommabop uslubga xosdir. So'zlashuv uslubida ham, badiiy uslubda ham birdek qo'llanilaveradigan so'zlar uslubiy betaraf so'zlar hisoblanadi: suv, tog', tepalik, xat. Bu so'zlar ko'chma ma'noda qo'llansa, ma'lum bir uslubga tegishli bo'lishi mumkin.

So'zlashuv uslubi erkin muloqot jarayonini tashkil qiluvchi uslub bo'lib, uyda, ko'chada, insonlarning o'zaro so'zlashuvida qo'llanadigan uslubdir. Bu uslubning adabiy til me'yorlariga rioya qiladigan ko'rinishi adabiy so'zlashuv uslubi, bunday me'yorlarga rioya qilinmaydigan ko'rinishi oddiy so'zlashuv uslubi deb ataladi.

So'zlashuv uslubidagi nutq ko'pincha dialogik shaklda bo'ladi. So'zlashuv uslubida ko'pincha turli uslubiy bo'yoqli so'zlar qo'llanilishi, grammatik vositalar, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin: *Asalim meni! Kep qoling! O'xo'o'o', hamma ishni do'ndiribsiz-da.*

So'zlashuv uslubida gapdagi so'zlar tartibi ancha erkin bo'ladi, piching, qochiriqlar, kinoyalar ko'plab ishlatiladi. Ko'proq sodda gaplar, to'liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

Ilmiy uslub. Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Mantiqlilik, aniqlik bu uslubga xos xususiyatlardir. Ilmiy uslub aniq ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar)ga boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi, ya'ni ilmiy uslub terminologiya bilan bog'liq uslubdir. Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi.

Rasmiy-idoraviy uslub. Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnoma, chaqiruv qog'ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimayi hol, e'lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda yoziladi. Bu uslubning asosiy belgisi: jumlalarning bir qolipda, bir xil shaklda bo'lishi. Bu uslubda ham so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi. *Qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi, yuklatilsin, tayinlansin* kabi so'z va so'z birikmalari ko'plab uchraydi. Bu uslubda gap bo'laklarining odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi.

Ommabop (publitsistik) uslub. Matbuot uslubi ommabop uslub hisoblanadi. Soddalik, tushunarlilik, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga rioya qilish bu uslubning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Ommabop uslubning radio, televideniyada ishlatiladigan ko'rinishi og'zaki ommabop uslub deyilsa, gazeta, jurnallarda ishlatiladigan ko'rinishi yozma ommabop uslub hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so'zlar ko'p qo'llanadi. Nutq ta'sirchan bo'lishi uchun ta'sirchan so'z va birikmalardan, maqol va hikmatli so'zlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo'laklari odatdagi tartibda bo'ladi, kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so'roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so'z va birikmalardan unumli foydalaniladi.

Badiiy uslub. Voqelikni badiiy obrazlar (timsollar) vositasida aks ettirib, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik jihatdan ta'sir qiluvchi uslub badiiy uslub deb ataladi. Badiiy asarlar (nazm, nasr va dramatik asarlar) badiiy uslubda yoziladi. Badiiy asar kishiga ma'lumot berish bilan birga, timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi. Badiiy uslubda qahramonlar nutqida oddiy nutq so'zlari, sheva, vulgarizmlardan ham foydalaniladi. Badiiy uslub aralash uslub hisoblanadi, chunki bu uslubda so'zlashuv va kitobiy uslublarga xos o'rinlar ham uchraydi.

Shaxsning har bir uslubdan uning qonun qoidalariga mos holatda foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishi bu tildan foydalana olish kompetentligiga egaligini ko'rsatadi.

Tildan o'rinli foydalana olish uchun til birliklarining qanday uslubda qaysi shaklidan va qaysi til birliklari qanday uslubiy vazifalar bajarishini ham til iste'molchisi bilishi kerak. Til ta'limida esa mana shu jihatlarga alohida e'tibor bergan holda ta'lim jarayonlarini tashkil qilish, o'quvchi ta'lim jarayonida tilning har bir sathi bo'yicha olayotgan bilimlarini uslubiyati bilan birgalikda o'zlashtirishi, qanday uslubda qanday konstruksiya qurshovi bilan moddiylashishini bilib bo'rishi juda muhim.

Ona tili darslari maktab ta'limida boshlang'ich sinflardan tashkil qilinib, tilga oid bilimlar yoshiga mos holatda berib boriladi. Tilga oid ma'lumotlarni qabul qilib o'zlashtirib olishining o'zi bilimni hosil qiladi. O'quvchi o'rganilgan mavzu bo'yicha ko'nikma, malaka, kompetensiyalarni o'zlashtirishi uchun fan o'qituvchisi mos sharoitni yaratishi kerak bo'ladi. Ona tili darsliklarida faqatgina til qonun-qoidalari beriladi. Mavzuga doir qonun-qoidalar o'zlashtirilgach mavzuni mustahkamlash uchun berilgan topshiriqlar bilan ishlay olish mavzuga doir ko'nikmani, berilgan savollarga javob berish, mavzuga aloqador darslikdan tashqaridagi topshiriq, test savollari bilan ishlay olish mavzu bo'yicha malakani, olingan bilim, ko'nikma, malaka asosida tilning barcha uslublarida nutq yarata olishi kompetensiyani hosil qiladi. Til birliklaridan amaliyotda qachon, qanday foydalana olishni o'quvchi bilishi tilga oid kompetentlikni tashkil qiladi.

Til birliklari ham nutq singari uslubiy vazifa bajaradi. Undalma misolida buni asoslashga harakat qilib ko'raylik.

Undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs, jonli va jonsiz predmetni ifodalovchi til birligi hisoblanadi. Undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan obyekt bo'lganligi uchun ham kuchli stilistik (uslubiy) vosita hisoblanadi. Undalmalar ko'proq so'zlashuv, badiiy, publitsistik uslublarda qo'llaniladi. Rasmiy uslubda qisman, ilmiy uslubda undalmaga murojaat qilinmaydi. Undalmalar baho xarakteristikasi ottenkasini ifodalashiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi:

1. Stilistik neytral undalmalar. Bunday undalmalarda so'zlovchining baho xarakteristikasi neytral bo'ladi. Bunday undalmalar, asosan, so'zlashuv, rasmiy-idoraviy uslublarga xos: *Hurmatli deputatlar va senatorlar! Aziz yurtdoshlar! Dada, sizni bobom chaqiryapti.*

2. Baho xarakteristikasini ifodalovchi undalmalar emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lib, faqat nutq

adresatini ifodalab kelmay, uni xarakterlaydi va unga munosabat bildiradi. Buni quyidagi jadval orqali yoritishga harakat qildik:

Undalmaning uslubiy vazifasi	Undalma ishtirok etgan gap	Vosita	Tilning vazifa shakllari (nutq uslublari)
Ijobiy (ta'kid)	Ha, men senga buvi bo'laman, girgitton. (H.G'.)	Ijobiy bo'yoq-dor so'z	So'zlashuv va badiiy
Salbiy	Chuchvarani xom sanabsan, iflos!	Salbiy bo'yoq-dor so'z	So'zlashuv va badiiy
Ijobiy (ta'kid, da'vat)	Zabardast, bar-doshli, qunt-u ixlosli, Azamat o'g'illar, otincha qizlar….	Sifatlovchilar-ning uyushib kelishi	Badiiy
Ijobiy (g'amxo'rlik)	Hoy qizim, nima uchun bu yerda o'tiribsan?	Undalmaning undov so'zlar bilan kelishi	So'zlashuv va badiiy
Ijobiy yoki salbiy	Hoy! Ovqatdan darak bormi?! – qichqirdi kim-dir. (O'.U.)	Undov so'z undalma vazi-fasida	So'zlashuv va badiiy
Ijobiy (erka-lash)	Qani, Sincha-lakxon, mana buni kiyib oling-chi! (A.Q.)	-jon, -xon, -bek, -ey, -gul, -cha, -choq	So'zlashuv va badiiy
Ijobiy (yaqinlik)	Singlim, sizga nima bo'ldi? Dadasi, char-chamadin-gizmi?	Egalik shakl-lari. (II shaxs shakli faqat so'zlashuv uslubida)	So'zlashuv va badiiy
Ijobiy (yaqinlik, samimiyat)	O'zingiz o'ylang, ayla-nay, oltita bola-ni boqish oson-mi? (O'.U.)	Buyruq may-lining I shaxs birlik formasi	So'zlashuv uslubida
Ijobiy yoki salbiy	Oh, tabiat, tabi-at, buncha be-shafqat bo'lma-sang! (J.A.)	Undalmaning takror kelishi	So'zlashuv, badiiy va so'zlashuv
Ijobiy (iltijo)	Jon uka, meni tinch qo'ying. (S.A.)	Jon so'zining undalmadan oldin kelishi	So'zlashuv uslubida
Salbiy	Nima qilmoq-chisan o'zing, yer yutkur? (O'.U.)	Undalmaning boshqa so'zlar bilan kengayib birikma holda kelishi	So'zlashuv uslubida
Ijobiy yoki salbiy	Singlim, men o'n kunda qay-tib kelaman, kelgunimcha o'rtog'ingiz bilan birga bo'ling. Xo'pmi, Singlim? (A.Q.)	Undalmaning gapdagi o'rni	So'zlashuv va badiiy

Xullas, uslub – til birliklarining ma'lum soha doirasida maqsadga mos qo'llanilishi, ya'ni tilning vazifa shakllari ekan, tilga oid bilimlarni o'quvchilarga o'rgatishda til birliklarining o'ziga xos uslubiy vazifasi bilan birgalikda qaysi uslubda qaysi shakli bilan ishlatilishini ham o'rgatib borish til ta'lim jarayonining asosiy maqsadini belgilaydi.

[1] Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. 9-bet.
[2] Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. 12-bet.

TAHLIL

Zarnigor SOHIBOVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

BOBUR SHE'RIYATIDA FASLLAR OBRAZINING TARIXIY ASOSLARI HAQIDA

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi o'zbek adabiyotida Navoiydan keyingi alohida bosqichni tashkil etadi. Tarixiy manbalardan uning ikki tilda ijod qilganligi, 1519-yil Kobulda, 1528-yilda Hindistonda devon tuzganligi ma'lum. Bobur lirikasida Sharq she'riyatining keng tarqalgan g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, masnaviy, muammo va fard kabi janrlaridagi asarlar muhim o'rin egallaydi [1: 87-bet]. Uning bizgacha yetib kelgan she'riyati hajman uncha katta bo'lmasa-da, muallifning "asosan ko'rgan-bilgan, qalbidan o'tkazgan, o'zini to'lqinlantirgan narsalar, kechinmalar haqida yozganligi" [2: 3-bet] bilan ahamiyatli. Ayniqsa, shoirning yil fasllari va ularda bo'ladigan tabiat hodisalari haqidagi she'rlari hayotiyligi, ramziy-falsafiy mazmuni, lirik qahramon his-kechinmalarining ta'sirchan ifoda etilishi bilan e'tiborni tortadi.

O'zbek mumtoz she'riyatida fasllar mavzusi alohida bir badiiy tizimni tashkil etadi. Mahmud Koshg'ariyning

"Devonu lug'otitturk" asaridan o'rin olgan "Qish bilan Yoz" munozarasi, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"dagi "Bahor madhi" qasidasi, qolaversa, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy g'azallari, Sharq mumtoz she'riyatining gultoji bo'lmish Alisher Navoiy ijodida yil fasllari ramziy-timsoliy mazmun kasb etganligi ma'lum. Bobur ijodida esa bu mavzu nafaqat an'ana sifatida davom ettirildi, balki yorqin hayotiylik va kuchli ijtimoiy mazmun bilan boyidi.

Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur
[3: 26-bet],

matlasi bilan boshlanuvchi bahor tasviri berilgan ushbu g'azal "Boburnoma"da o'ziga xos yozilish tarixiga egaligi bilan qimmatlidir. Bunda lirik qahramonning ozorlangan qalbi gulning g'unchasiga qiyoslanadi. G'unchaning har bir qati esa qon bilan to'lgan. Shu bois bu qatlar yuz marotaba bahor kelsa ham ochilmaydi. Tabiatdagi mazkur manzara va lirik qahramon ruhiy holatida uyg'unlik kuzatiladi. Ushbu g'azalning yozilish tarixi "Boburnoma"da o'z ifodasini topgan: "Bularg'a (ya'ni, fitnakor Mirzoxonning Xurosonga ketishiga – Z.S.) ruxsat bergandin so'ng Boron va Choshtuba va Gulbahor domanasi sayrig'a borduk. Bahorlar Boron yozisi va Choshtuba dashti va Gulbahor domanasi bisyor xo'b bo'lur. Sabzasi Kobul viloyatining o'zga yerlariga boqa, xeyli yaxshi bo'lur, turluk-turluk lolalar ochilur, bir qatla lola anvoini buyurdimkim, sanadilar, o'ttuz to'rt nav' lola chiqdi, nechukkim bu yerlarni ta'rifida bir bayte aytilib edi:

Sabza-yu gullar bila jannat bo'lur Kobul bahor,
Xosa bu mavsumda Boron yozisi-yu Gulbahor.

Ushbu sayr kelganda bu g'azalni tugattim:
Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur..."
[4: 182-bet].

"Boburnoma"da keltirilgan fardda Kobul dashtlarining o'zga yerda takrorlanmas bahori manzarasi aks ettirilgan. Undan keyingi g'azal matlasida lirik qahramon kayfiyati bilan tabiat go'zalligi parallel qo'yilgan va parallellizmning yuksak namunasi yaratilgan [6: 214-bet]. Ushbu misralarda peyzaj, shoir iztiroblari va tarixiy asos uyg'unligi bor. Bu asoslarni "Boburnoma"dan o'qiymiz. Tarixdan ma'lumki, 1506-yilning kuzida temuriy beklarning birlashib, Shayboniyxon ustiga yurishi qoldirilgach, Bobur Husayn Boyqarodan keyin Hirot taxtini sherikchilik bilan boshqarayotgan Badiuzzamon va Muzaffar Mirzoning taklifi bilan Hirotga boradi [4: 170-bet]. U bir muddat Navoiyning uyida yashaydi, Xuroson poytaxtining diqqatga sazovor joylari bilan tanishadi. Ayni qish chillasida Kobulga qaytadi. Kobulda esa ayni paytda fitna uyushtirilgan, taxt Mirzoxon ismli kishiga olib berilgan edi. Bobur tadbirkor hukmdor sifatida fitnani bostiradi va hatto gunohkorni kechirib, yuksak insoniylik fazilatini namoyon etadi. Xiyonatkorning Bobur oldidagi holatiga e'tibor bering: "Men eski devonxonaning sharqi shimoliy sorig'i ayvonida o'lturib edim. Men dedimki:

– Kel, ko'rushaling. Oldarag'ondin yukunib kelguncha ikki qatla yiqildi. Ko'rushgandin so'ng, yonimda o'lturg'uzub, ko'ngul berdim. Sharbat kelturdilar. Mirzaxonning daf'i tavahhumig'a sharbatni avval o'zum ichib, anga berdim"[4: 181-bet]. Bobur buyuk shaxsiyat egasi sifatida fitnakor dushmani qarshisida o'zini ulug'vor, vazmin va shafqatli tutish bilan birga, xiyonatkorni kechiradi, shuningdek, o'zida uni "el va ulusning dag'dag'a va taraddudidan" asray oladigan iroda topadi. Ismiga munosib bir musulmon podsho sifatida dinning chin tayanchi ekanligi (Zahiriddin Muhammad), faqat jisman kuchli bo'lmay (Bobur – arabcha sher), shafqat va fazilatda ham yuksak salohiyat sohibi ekanligini tarix oldida isbotlaydi. Tarixda mashhur yana bir misol: Hind istilosidan so'ng Boburni o'ldirishga jazm etgan Malika Baydaning gunohidan kechishi – "Boburnoma"dagi muallif shaxsiyatini ochuvchi fikrlar bizning tahlillarimiz asosliligini tasdiqlaydi.

Shunisi ham borki, xiyonat qaysi davrda bo'lmasin, qalbda o'z izlarini qoldirishi shubhasiz, garchi u kechirilsa ham. Bobur ham Mirzoxon fitnasini bostirgach, ma'naviy-ruhiy madad istab tabiat sayriga chiqadi. Ko'klam dashtining alvon lolalarga burkangan fusunkor manzarasiga boqqan va taqdirning navbatdagi sinovidan saboq olgan, qalbida og'riq tuygan buyuk shoir yuqoridagi misralarni ijod etadi. Uning ko'nglidagi "gulning g'unchasidek tah-batah qon"lik holati ana shunday tarixiy asoslarga egaligi bilan e'tiborni tortadi.

Boburning tabiat lirikasida kuz poetik obrazining ham o'ziga xos o'rni bor. Shoir she'riyatida bu faslni ikki jihatdan tahlil qilish mumkin:

1) hijrondagi oshiq holatini ifodalaydi – bu uning dastlabki mazmuni;

2) Vatandan ayro insonning sog'inch iztiroblarini aks ettiradi – kuz chizgilari berilgan misralarning asl mohiyati aynan mana shu.

Binobarin, quyidagi g'azal bu jihatdan juda qimmatli material bera oladi:

Xazon yafrog'i yanglig' gul yuzung hajrida
sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim
[5: 82].

Ma'lumki, mumtoz she'riyatda "xazon" so'zi "kuz" ma'nosini ifodalab keladi. G'azalning lirik qahramoni dastlabki misralarda hijrondagi oshiqday taassurot qoldiradi. U o'z ma'shuqasi hajrida xazon yaprog'i misol sarg'aygan. "Chehrasi zard"ligini dalil sifatida keltirib, husnda lov-lov yongan lola ruxsorli yordan rahm istaydi. Baytdagi "lolarux" va "chehrai zard" metaforalarining yonma-yon kelishi [6: 214] oshiqning iztirobli holatini yorqin ifoda etish bilan birga, tazod san'atiga chiroyli misol bo'la oladi.

Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog'ingg'a tushub, bargi xazondek muncha yolbordim.

Muallif ta'rifidagi yor shunchaki go'zal emas, oshig'ining poyida kuzgi xazon misoli to'kilib, yalinishlariga parvo qilmas darajada mag'rur hamdir. G'azalning keyingi baytlarida esa shoirning g'azal mazmunidan ko'zlagan asl maqsadi ayonlashadi. Go'zal yor timsolida hamisha zavol bilmas Vatan obrazi bo'y ko'rsatadi:

Latofat gulshanida gul kibi sen sabzu xurram qol,
Men archi dahr bog'idin xazon yafrog'idek bordim.

Chindan-da, inson umri yil fasllari kabi o'tkinchi. Faqatgina bizni dunyoga keltirgan ona tuproq, Vatangina mangulikka daxldor. Fasl ruhiga mos tushkunlik kayfiyati nafaqat lirik qahramon chehrasida zohir bo'ladi, balki qalbigacha kirib borib, qonli ko'z yoshlar bo'lib o'zini oshkor qiladi:

Xazondek qon yoshim, sorig' yuzumdin el tanaffurda,
Ba har range, bihamdillah, ulusdin o'zni qutqordim.

Bobur taqdiridagi tole'sizliklar "sariq yuz" metaforasi bilan beriladi. Shu o'rinda tarixdan, Bobur biografiyasidan va asarlari mutolaasidan kelib chiqib, mavjud hayotiy dalillarni inobatga olib bir mulohaza yuritmoqchimiz. Nazarimizda, Zahiriddin Muhammad hayoti o'ziga xos takrorlanuvchi **"tole'sizlik – zafar – xiyonat – hayotiy saboq"** nomli taqdir chizig'ini namoyon etadi. Bobur Mirzoning taxtga kelgan ilk kunlaridan umrining so'ngiga qadar hayoti, faoliyati va ijodini shu chiziq birlashtirib turganday go'yo. Birgina dalil, 12 yoshida otasidan baxtsiz tasodif tufayli ayrilish – tole'sizlik, mavjud xiyonatni Ollohning madadi ila bostirish – kutilmagan zafar, ukasi Jahongir Mirzoni shoh qilish niyati bilan yurgan Hasan Ya'qub boshliq fitnaning fosh etilishi – xiyonat va bu xiyonat yosh Bobur qalbida o'z izlarini qoldirishi, achchiq saboqlar berishi shubhasiz. Bu kabi haqqoniy sabablar uning ijodiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi, Bobur Mirzoning nazm durdonalari aynan mana shu hayotiy saboqlarning mevasidir. Zero "Boburnoma"da ko'p she'rlarning tarixiy asoslari borligi fikrimizni mustahkamlaydi. Keyingi misralar uning shohlik faoliyati, "axtari baxt" (baxt yulduzi)ni izlash yo'lidagi sargardonliklaridan so'zlaydi:

Ne tole'dur mangakim, axtari baxtim topilmaydi,
Falak avroqini har nechakim daftardek axtardim.

Bu baytda "falak avroqini" osmon qavatlari tarzida kabi o'z ma'nosida tushunmaslik kerak. U tole' yulduzini izlab Sharqning o'sha paytdagi siyosiy dengizida suzgan, taxt uchun kurashlar va xiyonatlardan bezgan Boburning ruhiy iztiroblarini ifodalaydi. Bu sinovlar uning irodasini tobladi, shaxsiyatini shakllantirdi. Javoharla'l Neru ta'rifidagi "dilbar shaxs"ni, "uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor" insonni, "san'atni, adabiyotni sevuvchi, hayotdan huzur qiluvchi" [7: 5-bet] san'atkor shoirni tarbiyaladi. G'azalning so'nggi bayti hayotning butun achchiq-chuchugini totgan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan [2: 19-bet] Boburning hayotiy kuzatishlari va xulosalaridan kelib chiqqan hikmatiday jaranglaydi:

Ulusning ta'n-u ta'rifi manga, Bobur, barobardur,
Bu olamda o'zumni chun yamon-yaxshidin o'tkardim
[5: 83-bet].

Yuqorida tahlil etganimiz Bobur baytlarida yaratilgan bahor, xazon (kuz) obrazi o'ziga xos ma'no tovlanishlari bilan namoyon bo'lgan. Bahor va uni ifoda etuvchi timsollar lirik qahramon ruhiyatiga uyg'un tasvir etilgan. Ayni paytda "gulning g'unchasi" xiyonatdan qalbi pora bo'lgan inson obrazini ifodalab keladi. Kuz obrazi orqali ishqdan ozorlangan oshiq timsoli badiiy gavdalantirilgan. Mazkur obraz tadrijiy ravishda Vatan sog'inchidan sarg'aygan yuz – yurtiga intilgan inson obrazi tomon o'sib boradi. Aytish mumkinki, lirik qahramonning ruhiy tushkunlik holati, mahzun qalb kechinmalari tasviri Mirzo Bobur satrlari bag'riga singib ketgan. Umuman olganda, shoir baytlarida yaratilgan bahor va kuz obrazlari o'ziga xos ramziy-timsoliy mazmun kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammadjonov A., Abdug'afforov A. Bobur. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-jild. – Toshkent, 2001.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Sochining savdosi tushdi: She'rlar. Nashrga tayyorlovchi, so'z boshi va izohlar muallifi E.Ochilov, mas'ul muharrir V.Rahmonov. – Toshkent: Sharq, 2007. 288-bet.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Mahrami asror topmadim. Parij devoni nusxasi: She'rlar. Nashrga tayyorlovchi, so'z boshi va izohlar muallifi S.Hasan, muharrir N.Otajonov. – Toshkent: Yozuvchi, 1993. 80-bet.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma: O'rta yoshdagi maktab bolalari uchun. Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev, muharrir A.O'ktam. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. 368-bet.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. G'aribing andijoniydur. Saylanma she'rlar. Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va lug'at muallifi V.Rahmonov, mas'ul muharrir B. Eshpo'latov. – Toshkent: Sharq, 2008. 288-bet.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. 400-bet.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Nazm durdonalari. – Toshkent: Sharq, 1996. 208-bet.

Zebuniso AHRAROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti
Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi dotsenti

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAGI YANGILIKLARI

Markaziy Osiyoda musulmon dini qaror topgach, xalifa barcha masjidlar qoshida maktablar ochishga buyruq berdi. Bu davrda, asosan, masjid imomlari tomonidan o'g'il bolalar o'qitila boshlandi. Ma'lumki, qadim maktablarining aniq bir dasturi bo'lmay, avvalo, arab harflari o'rgatilib, undan "Qur'oni Karim" suralarini o'qish, yozish va yod olishga e'tibor berilgan. Keyinchalik xat-savodi bor, madrasalarni xatm qilganlar o'zlari biror mahallada oqsoqol yoki boyroq xonadon yoki o'zining uyida maktab ochib faoliyat olib borishgan. O'quvchilarning yoshlari ham chegaralanmagan bo'lib turli yoshdagi bolalar bir sinfga to'planib o'qiyverishgan. Eski maktablarning o'sha davrdagi ahvolidan qayg'urgan ma'rifatparvar ziyolilar bu usulning eskirganligini, uni o'zgartirish lozimligini e'tirof etishgan. Shunday ma'rifatparvar ulamo, o'z davrining peshvolaridan bo'lgan Samarqand muftilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy o'z hovlisida bir maktab ochib, uni "usuli jadid", deb atadi.

Behbudiy, eng avvalo, din ilmiga yoki dunyoviy ilmlarga qalbida chin muhabbat sezgan musulmon bolalarini hatto ular faqir va qashshoqlarning bolasi bo'lsa-da "jamiyati xayriya"larning mablag'i bilan o'qitmoq kerakligini uqtiradi. Buning uchun ilm-u urfon gullayotgan shaharlarga talaba yuborish fikrini ilgari suradi.

Biz Mahmudxo'ja Behbudiyning maorifni, ta'lim-tarbiyani rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan maqolalari orasida "Tahsil oyi" maqolasini alohida aytib o'tishimiz lozim. Bu maqola shunisi bilan ahamiyatliki, muallif o'sha davrdagi Turkistonning ahvolini ko'rsatibgina qolmay, balki qoloqlikning sabablarini aniqlaydi, undan qutulmoq yo'lini ochiq-oydin ko'rsatadi. Maqolada yozilishicha, ko'chaga razm solgan kishi ikki xil odamlarni ko'radi. "Birisi oppoq ko'ylaklar kiyib yasanib olgan, qo'llarida o'nlab nusxa kitoblar ko'tarib, saodatlik yurish bilan hukumat maktablariga ketayotgan rus, yahudiy, armani bolalari. Ikkinchi xil odamlar esa ertalabdan ustlarida og'ir yuk, qo'llarida bel, ketmon, korxona va qadoqxonalarga hammollikka yollanib, 20 tiyindan bir so'mgacha topmoq ilinjidagi Turkiston bolalari..." Muallif o'z qayg'ularini "Oh, na yomon holat..", degan xitob bilan ifodalaydi. Demak, butun ilm-u hunar o'zgalar qo'lida ekan, "Endi bizlarg'a ikki ishdan biri qolur, ya'ni yo alardek zamonani ilum va hunarlarig'a yopushmoq va yoinki borliq nimarsalarimizni ham qo'limizdan berib, to'y, maraka va behudaliklarga sarf etib, alarg'a xizmatkor bo'lmoq, deb aniq, dangal fikrni o'rtaga tashlaydi. Biz o'z ahvolimiz uchun o'zgalardan hech xafa bo'lmasligimiz kerak, bizning boyliklarimizni "...ular bizdan urib olmadilar, o'qib oldilar" degan hammani o'ylashga majbur etadigan xulosa keltiradi. Muallif butun fikrlariga yakun yasab, maqolani "Moziy istiqbolning tarozusidur. Har kim o'lchasun-da bilsun" degan so'zlar bilan yakunlaydi.

Taraqqiyparvar ziyolilar Turkistonning kelajagi onalarning savodli bo'lmog'i bilan ham bog'liq, chunki yosh avlod onalar qo'lida tarbiya topadi, degan ilg'or fikr bilan chiqa boshlaydi. Shunday mazmundagi e'tiborga sazovor maqolalardan biri "Turkiston viloyatining gazeti"da Fayzulla imzosi bilan chop etilgan "Xotunlarg'a ilm lozimmu?" degan maqoladir. Unda muallif: "Agar bizlar olima, muslimalar tarbiyasun ko'rgan bo'lsak, to norasida vaqtimizda aqlimizg'a odob va rivoji islom birlashgan bo'lsa, qalbimizga hamiyat va diyonat hissi o'rnoshg'on bo'lsa, bilmak va bildirmakni ma'nisidin xabarimiz bo'lsa...", qanday yaxshi edi, degan bir armon bilan yozadi. Lekin, ming afsuski, onalarimiz savodsiz, ular "tarbiyai atfol"ni bilmaydilar. Buning uchun ularni avvalo, o'quv-o'qituv ishlariga jalb etmoq lozim, deydi. Va bu masalada Turkistonning mashhur ulamosi Mahmudxo'ja afandidan o'z fikrlarini bildirishlarini kutamiz, deb maqolani yakunlaydi. Behbudiy ham Fayzulla afandiga o'z vaqtida javob yozadi. Ayollarning bilim olishlari, albatta, lozimligi haqida Hadisi Sharifdan ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun qarz-u farz degan hikmatni keltiradi va "... jinsi latifg'a ijro taklifot sha'riasini aytmoqqa ilm va o'quvdan boshqa bir asbob yo'q ekan va bu taklifotni imdiosi va fardi komili o'quv ekanligiga va xotunlarni o'qumoqlari lozumig'a aytsa, yolg'uz ko'r yo munofiq, mutaasib inkori boshqa aytar azizim!", deb javob beradi Behbudiy.

Ma'lumki, o'sha davrda (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) Turkistonning musulmon xotin-qizlari savod chiqarmoqliklari faqat otinoyilar tomonidan tashkil etilgan uy maktablarida amalga oshirilar edi. Yuqorida Fayzulla afandi va Behbudiyning bahslaridan ham ko'rinadiki, endi ayollarni ham dorilfunun, dorilmuallimunlarga tortish vaqti yetgan edi. Behbudiyning "Samarqand" gazetida bosilgan "Muslimalar uchun maktab" sarlavhasidagi maqolasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, bunga yana bir bor amin bo'lamiz. Maqola muallifi turkiyalik

muallima Favziya Abdulrashidning qizlar uchun xususiy maktab ochgani va bu maktabga xorijdan ham talaba qizlar qabul qilinayotganini aytadi. Shu kungacha maktabga Rusiya, Misr, Hindiston kabi mamlakatlardan ko'plab talabgorlar kelganligini bildiradi. Muallif maqolasi so'ngida "Ushbu ishdan maqsadimiz, shaxsiy foyda bo'lmay, faqat jamiyati bashariyaga xizmat etmak va olami islomg'a tarbiyali va ma'lumotli onalar yetishtirmakdur", deb yakunlaydi. Turkistonlik qizlarni ham ushbu maktabga taklif etadi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning ayollarni ilmli qilish masalasiga ham ijobiy munosabatda bo'lganligini yuqoridagi fikrlardan ham anglaymiz. Shuni ham qo'shimcha qilish lozimki, Behbudiy o'z qizi Parvinxonni dastlab usuli jadid martabida, so'ngra fransuz tilidan o'qituvchi yollab, ushbu ilmni mukammal o'rgatgan. Parvinxon ko'p yillar Samarqand shahri yaqinidagi Qoziqo'rg'on qishlog'ida yoshlarga shu fandan saboq berib kelgan.

Bu davrda Turkiston ahlining odob-axloqiga ta'sir etadigan pivoxonalar, turli-tuman tomoshaxonalar tezlik ila ko'payib ketayotgan edi. Behbudiy bu ahvol haqida o'z maqolalarida jonkuyarlik bilan yozib kelgan. Shunday maqolalardan biri "Samarqand" gazetidagi "Hamiyati diniya"dir. Maqola hajm jihatidan juda kichik bo'lishiga qaramay, tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Muallif Turkiston ahlining jaholatga, omilikka tomon tobora yaqinlashayotganligining asli sabablaridan biri xuddi shu pivoxonalar, tomoshaxonalar ekanligidan turkistonlik jigargo'shalarini voqif etadi. Bunday xalqni chalg'ituvchi tomoshaxonalarga joy ajratayotgan musulmon boylariga, nega millatingiz g'amini emaysiz, deb tanbeh beradi. Ushbu joylarni yopishga hissa qo'shayotgan kishilarni oqlaydi. "Samarqand qit'ai islomiyasinda bir necha yerda pivo do'konlari ochilib edi. Rahmonqul Ibrohim o'g'li janoblari ham do'konini pivofurush armanig'a ijara qo'yub, uch oyga 36 so'm olib ekan. Muning sha'riy qabihini bilib, hamiyati diniyasi qo'zg'olib, olgan ijara puli ustig'a qo'shub 75 so'm armanig'a shtraf berib pivoni daf qilibdur. Rahmat va ofarin janob Rahmonquliboyg'a! Samarqand mulkdorlarining Rahmonquliboyini hamiyati milliya va diniyasidan ibrat olib, o'z mulklarida pivofurushlarni daf qilmoqlari din va millat nomidan umid qilinur". Muallif bunday nomaqul ishlarga indamay qarab turmasdan, xalq orasida qabih ishlar qoralanishi lozimligini uqtiradi.

"Padarkush" pyesasida bo'lgani kabi Behbudiy publitsistikasida ham "omi bola"lar haqida, ularning achinarli ahvoli haqida tez-tez muhokama qilinadi. Uning usmonlichadan tabdil etgan "Bir omi bolaning hasrati" sarlavhali kichik hikoyasi ham shu mavzuni ochib beradi. Bunda bir o'qimagan bolaning hamma narsalardan, ko'kdagi yulduzlardan, gullarning ranginligidan, hidlarning nafisligidan, dengizlardagi oq chotirlik kemalardan ham hayratlanishi bayon etiladi. Lekin ularning qanday paydo bo'lishi, nimaga qodir ekanligiga farosati yetmaydi. "Eshitarmizki (oftob) kun ko'p go'zal ...Nahr bo'yinda suvning ustinda uzayib osilgan gullarning ko'rinishi ko'p latif emish... Nozik-nozik sayrag'on qushlarning havoyi qo'sh qanotlarining uchishida ko'rilaturgan nimarsalarda emish!". Bunday "omi bola"larga qarama-qarshi muallifning ilg'or shogirdlar haqidagi fikri ham mavjud bo'lib, unda o'qigan, bilimli bolalarga nisbatan Behbudiyning mehr-u muhabbati ifodalanadi. "Oina" sahifalarida "Na uchun talaba oz" degan bir kattaqo'rg'onlik talabaning maqolasi bosiladi. Unda biz musulmonlar aslo maktabga ahamiyat bermaymiz. Bolalar ko'chalarda bekorchi bodbarak, chillak o'yinlari bilan mashg'ul. Samarqandda rus maktabi, yangi maktab, eski maktablar mavjud. Lekin ota-onalar bolalarini hatto eski maktablarga ham bermasliklaridan kuyinadi. Maktablarda faqat rus, armani, yahudiy bolalarigina o'qishini aytadi va "Agar shul tariqada maktablarg'a ahamiyat bermay, ilmsiz qolaversak istiqbolimiz yaxshi bo'lmasa kerak", deb tugatadi o'z fikrlarini. Behbudiy ushbu talabaning so'zlariga javoban maqolaga ilova qiladi: "Agarda boshqalarda ushbu talaba afandidek o'ylasalar edi, tez taraqqiy etar eduk. Olloh sizdek talabalarimizni ziyoda etub, idrok va fahmingizga rivoj bergay. Ori, siz talaba afandilar millatni kelar zamon xodimlaridursiz!", deydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik asarlarida ota-onalar mas'uliyati, farzandlar tarbiyasi, burchi masalalari Qur'oni Karim va Hadisi Sharif singari muqaddas manbalar ko'rsatmalariga suyangan holda e'tirof etiladi. Inson tarbiyasidagi sha'riy qabih va yomon odatlar qoralanadi. Turkistonlik farzandlarni chin insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash lozimligi uqtiriladi. U farzandlar ta'lim-tarbiyasi masalasida jiddiy bosh qotirdi va bu ishda muammolardan qutulmoq yo'llarini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy M. Islohi tahsil. // Tujjor. 1907-yil, 20-oktabr.
2. Behbudiy M. Samarqand usuli jadid maktabi haqinda. // "Turkiston viloyatining gazeti". 1908-yil, 20-fevral.
3. Behbudiy M. Fayzulla afandig'a javob. // "Turkiston viloyatining gazeti". 1909-yil, 13-may.
4. Behbudiy M. Tahsil oyi. // "Samarqand". 1913-yil, 3-sentabr.

Umidjon YIGITALIYEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

"ODAM" KONSEPTI BILAN ASSOTSIATIV BOG'LANGAN MORFOLOGIK HODISALAR

Jahon kognitiv lingvistikasi tajribasidan ma'lumki, konseptning assotsiativ tarzda verballashuv jarayoni, uning tabiati, harakatga keltiruvchi mexanizmlari turli tillarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Sh.Safarov fikricha, "kognitiv tilshunoslik uchun eng muhim vazifa tafakkur birligi bo'lgan konseptning tilda (aniqrog'i, nutqda) aks etishini ta'minlovchi strukturalar, harakatlar, qoidalarni aniqlashdir"[1]. Konseptning lisoniy voqelanishini ta'minlovchi bunday tuzilmalar lingvokognitologiyada freym, skript, ssenariy, propozitsiya, vaziyat modeli, obraz, sxema, ramz, shakl[2] kabi nomlar ostida o'rganib kelinmoqda. Bu birliklar ichida grammatik shakl mental jarayonlarni hosil qilishda muhim rol o'ynaydi va konseptual funksiyani bajaradi.

Tashqi olam va undagi voqea-hodisalarning tilda voqelanishida grammatik birliklarning o'rni alohida. O'zbek tilida "odam" konseptining assotsiativ tarzda voqelanishida grammatik vositalar ham muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, konsept so'z ma'nosidan ham ko'proq mazmuniy strukturaga ega bo'lganligi bois grammatik vositalarda u qadar to'liq voqelanmaydi. Biroq "odam" konseptining assotsiativ voqelanishida ayrim grammatik vositalar leksik birliklar kabi mavqega ega bo'ladi.

Kognitiv tilshunoslikda grammatik konsept tushunchasi ham mavjud. Uning tavsifi R.Langaker, J.Taylor, N.Boldirev, A.Sodiqovning ilmiy asarlarida uchraydi.[3] R.Langaker va J.Taylor ensiklopedik bilimlarning lisoniy ifodalanishi kognitiv-grammatik maydon orqali yuzaga chiqishini ta'kidlashgan bo'lsa,[4] N.Boldirev konseptning kontekst orqali ifodalanishida grammatik shakllar ham o'ziga xos o'ringa egaligi haqida xulosa bergan.[5]

Grammatik tizim birliklarida konseptning ifodalanishi morfologik va sintaktik sathlarda yuzaga chiqadi. Anglashiladiki, "odam" konseptining assotsiativ-verbal ifodalanishi yoki mazkur sathlarda moddiylashuvi o'ziga xos tabiatga ega. Dastlab morfologik sathda "odam" konseptining assotsiativ tarzda verballashuvi va u bilan assotsiativ bog'lanuvchi shaxs otlari va ismi foillar, ayrim undov va taqlid so'zlar hamda shaxs ma'nosini hosil qiluvchi grammatik shakllarning imkoniyatlarini tahlil qilamiz.

Morfologik sathda "odam" konsepti bilan assotsiativ bog'lanuvchi birliklar ichida shaxs otlari va ismi foillar muhim o'rin tutadi. Hozirgi o'zbek tilshunosligida ismi foil sifatida [fe'l+-(u)vchi = fe'l anglatgan harakatni bajaruvchi], [ot+-chi = ot anglatgan harakatni bajaruvchi], [ot+fe'l+-ar = ot (keng ma'noda) anglatgan narsa-buyum ustida fe'l anglatgan harakatni bajaruvchi] qoliplarining nutqiy hosilalari tushuniladi.[6]

R.Saloyevning dissertatsiya ishida shaxs otlari bilan ismi foillar tushunchasi bir grammatik aspektda turishi ta'kidlanadi.[7] Bizningcha, bular bir-biridan farqlanadi. Ma'lumki, shaxs otlari shaxsni atab, uning ma'lum bir belgi-xususiyatlariga ishora etuvchi birliklardir.[8]

Obyektiv borliqda hamma narsa serqirra, ko'p tomonli bo'lganligi uchun shaxs otlari ham shaxsni qaysi jihatdan tavsiflashiga ko'ra ichki guruhlarga bo'linadi. Shaxs otlarining ichki guruhlarida tub so'zlar ham (ota, qassob, askar), yasama so'zlar ham (uchuvchi, etikdo'z, suvchi) mavjud. Tub va yasama shaxs otlari bir paradigmani hosil qila olmaydi. Tub so'zlar til birligi bo'lib, ongimizda yaxlit holda mavjud bo'ladi. Yasama so'zlar esa maxsus qoliplar asosida hosil bo'lib, bo'linuvchan xarakterdagi nutq birligidir. Shuning uchun ularning ma'nolari matnda (kontekstda) aniqlanadi. Chunonchi, oqlovchi – advokat, kasb oti; oqlovchi – devor oqlovchi, ma'lum bir ish-harakatni bajaruvchi. Yoki chaqimchi va chaquvchi so'zlarini olib ko'raylik.

Chaqimchi shaxs oti o'zbek tilining alohida lug'aviy birligi sifatida xususiy, ixtisoslashgan ma'noga ega bo'lib, lug'atda o'rin olgan. Chaquvchi shaxs oti esa ixtisoslashmagan, xususiylashmagan, muayyan leksik ma'noga ega emas, uning ma'nosi so'z yasash qolipi yuzasidan kelib chiqadi va nutqda oydinlashadi. Tom ma'nodagi yasamalilik chaqimchi shaxs otida emas, chaquvchi otida mavjud. Chunki bu shaxs oti quyidagi til qolipi asosida yasaladi: [fe'l+-(u)vchi = fe'l anglatgan harakatni bajaruvchi]. Bu qolip mohiyatan so'z yasashdir, ya'ni qolipning chap tomonidagi lug'aviy ma'no (ish-harkat, holat) va qolipning o'ng tomonidagi lug'aviy ma'no shaxs nomi bir-biridan farq qiladi. Qo'shimcha qo'shish asosida lug'aviy ma'noning o'zgarishi esa so'z yasash sistemasiga aloqador bo'ladi.[9]

Mazkur jarayonda shaxs otlari va ismi foillarning "odam" konsepti bilan assotsiativ bog'lanishida farq kuzatilmaydi. Garchi shaxs otlari ma'lum bir qolip asosida hosil qilinmaydigan, yasama bo'lmagan, shaxsni biron bir belgi-xususiyatiga ko'ra atab keladigan tub yoki tublashgan so'zlar[10], ismi foillar esa ma'lum bir qolip hosilasi bo'lgan, mohiyatan shakl yasashga yaqinlashadigan, ammo so'z yasovchi asosning barcha ma'no va vazifalari, sintaktik qobiliyati to'liq saqlanadigan nutqiy hosilalar bo'lsa-da[11], har ikkisi "odam" konsepti bilan assotsiativ bog'lana oladi. Qiyoslang: odam – chaqimchi, odam – chaquvchi.

Ismi foillar borasidagi o'zbek tilshunosligida yaratilgan dastlabki ilmiy asar XX asrning 80-yillaridayoq H.Ne'matov tomonidan ilmiy jamoatchilikka e'lon qilingan edi.[12]

Ilmiy adabiyotlarda til va nutq birliklarining o'zaro mazmuniy aloqalarida keskin ziddiyat mavjud. Bu ziddiyat shundan iboratki, til birliklari ma'lum bir shakl bilan uzviy birikkan aniq va yaxlit ma'noga ega bo'ladi. Nutqiy hosilalarning ma'nolari esa bo'linuvchan, noaniq bo'lib, hamisha ma'lum bir matn (nutq sharoiti)da oydinlashadi. Tilning muhim ijtimoiy vazifalaridan biri atash, nomlash (nominativlik)ni amalga oshirishdir. Bu vazifani bajarish uchun til yaxlit shakl va yaxlit mazmunga ega bo'lgan birliklarga molik bo'lishga intiladi. Shu sababli shaklan va mazmunan bo'linuvchan nutqiy hosilalar, chunonchi, ismi foillar ham atash vazifasini bajaruvi yaxlit til birliklariga o'tishga harakat qiladi. Ma'nolari o'ta keng va noaniq bo'lgan ismi foillarda ham ma'no torayishi sodir bo'lib, ismi foilda aniq bir ma'noning qotib qolishi, ismi foillarning qator ma'nolaridan bittasida ixtisoslashishini ko'rish mumkin.[13]

O'zbek tilida ayrim morfologik hodisalar, jumladan, undov va taqlid so'zlar orqali ham "odam" konsepti voqelanadi. Xususan, *hoy, allo, ey, uf, qoyil, ofarin, balli, tasanno* kabi undov so'zlar, *qult-qult, qah-qah, shivir-shivir, g'o'ng'ir-g'o'ng'ir* taqlidiy so'zlarining grammatik ma'nosi orqali til egalari lisoniy xotirasida assotsiativ tarzda "odam" konsepti tiklanadi. Boshqacha aytganda, ushbu morfologik birliklar inson xotirasida "odam" konsepti bilan assotsiativ bog'lanishni hosil qiladi.

Aytish mumkinki, insonning emotsional holati bilan bog'langan barcha undov so'zlar bevosita "odam" konseptini yodga soladi. Shu bois *allo* undov so'zi yoki *uf* his-hayajon undovini eshitar ekanmiz, bevosita muayyan holatdagi inson ko'z oldimizda gavdalanadi. Shuningdek, *hoy, o'v, ey* kabi insonga qarata aytiluvchi buyruq-xitob undovlari ham, garchi undov so'z qaratilgan inson bir zum ko'zdan uzoqlashgan bo'lsa-da, assotsiativ tarzda "odam" konsepti bilan bog'lanadi. Bu holat insonning his-hayajoni yoki unga qaratilgan buyruq-xitob bildiruvchi barcha turdagi undov so'zlar orqali assotsiativ tarzda "odam" konseptining xotirada tiklanishini ko'rsatadi. Quyidagi misolga e'tibor qaratamiz:

– Hoy, hoy, nima deyapsan, jinni? – deb so'rab qoldi. (G'.G'ulom. "Shum bola").

Ushbu gapda hoy undov so'zining bevosita odamga nisbatan murojaatni ifodalashda qo'llanganligi u orqali "odam" konseptining assotsiativ tarzda verballashuviga xizmat qilgan. Boshqacha aytganda, *hoy* undov so'zi "odam" konsepti bilan assotsiativ aloqaga kirishadi.

Xuddi shunday, insonning tovushi, tashqi holati (obrazi) bilan bog'liq holda hosil qilingan taqlid so'zlar ham "odam" konsepti bilan assotsiativ aloqaga kirishadi. Masalan: Ayvon tarafdan shivir-shivir eshitaman. Shivir-shivirda meni otim-da bo'ladi (T.Murod. "Otamdan qolgan dalalar").

Ushbu misolda qo'llangan *shivir-shivir* taqlid so'zi assotsiativ tarzda "odam" konsepti bilan bog'lanadi. Bu so'zni eshitgan til egalari xotirasida beixtiyor odam leksemasi tiklanadi. Bu holat *shivir-shivir* taqlid so'zining odam leksemasi bilan assotsiativ bog'lanishini ko'rsatadi.

Xullas, inson tovushi yoki holatiga nisbatan hosil qilingan taqlid so'zlargina "odam" konsepti bilan bevosita assotsiativ bog'lana oladi. Masalan, nutqda lov-lov taqlid so'zi insonga nisbatan ham, atlas yoki biror boshqa matoga nisbatan ham ishlatiladi. Bu taqlid so'z insonga nisbatan qo'llanganda "odam" konsepti bilan assotsiativ aloqaga kirishadi. "Yuzlarim lov-lov yonadi..." (T.Murod. "Otamdan qolgan dalalar") gapida qo'llangan *lov-lov* taqlid so'zi inson yuziga nisbatan ishlatilgani bois xotirada "odam" konseptini tiklaydi. Ammo "Atlas ko'ylak lov-lov yonadi" gapida qo'llangan taqlid so'zda bu xususiyat kuzatilmaydi. Morfologik sathda ayrim grammatik shakllarning ham "odam" konsepti bilan assotsiativ bog'lanishini kuzatish mumkin. Biroq bu alohida tadqiqotni talab etadi.

---

[1]Safarov Sh.Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. 27-bet.
[2]Попова З. Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – Москва: АСТ: Восток-Запад, 2007. – С. 16.
[3]Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. Theoretical Prerequisites. –Standford: University Press, 1987. –Vol1. – P. 147.; Taylor J.R. Gognitive Grammar. – New York: Oxford University Press, 2002. – 621 p.; Болдырев Н.Н. Категории как форма репрезентции знаний в языке // Концептуальное пространство языка: Сбор. науч. тр. – Тамбов: Изд-во ТГУ им Г.Р. Державина, 2005. – С. 16–39; Болдырев Н.Н. Категориальная система языка / Категоризация мира в языке / Когнитивные исследования языка X–Москва– Тамбов, 2012. – С. 21; Sodiqov A.S., Irisqulov M.T., Qo'ldoshev A.M. Kognitiv grammatikaning tilshunoslikdagi o'rni // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2011. 2-son. 17–23-betlar; Yuldashev A.G. Idiomatik qo'shma so'zlarning lingvokognitiv tadqiqi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. 91-bet.
[4]Langaker R. Ko'rsatilgan asar. 148-bet; Taylor J. Ko'rsatilgan asar. 312-bet.
[5]Болдырев Н.Н. Ko'rsatilgan asar. 18-bet.
[6]Saloyev R.B. O'zbek tilida ismi foillar: Fil. fanl. nomz. ...diss.avtoreferati. – Samarqand, 1994. 3-bet.
[7]Saloyev B. Ko'rsatilgan asar. 8-bet.
[8]Tojiyev Y. O'zbek tilida shaxs otlari yasovchi affikslar sinonimiyasi. – Toshkent: Fan, 1987. 74-bet.
[9]Saloyev R. Ko'rsatilgan avtoreferat. 9-bet.
[10]Tojiyev Y. Ko'rsatilgan asar. 78-bet.
[11]Saloyev R. Ko'rsatilgan avtoreferat. 10-bet.
[12]Ne'matov H.G'. So'z, uning til va nutqdagi o'rni // O'zbek tili va adabiyoti, 1988. 4-son. 6–12-betlar.
[13]Ne'matov H.G'. Ko'rsatilgan maqola. 6-bet.

Abdumannon HASANOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

CHORVACHILIKDA FAOL QO'LLANUVCHI BA'ZI DIALEKTIZMLAR XUSUSIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek xalq shevalarining chorvachilikka oid ba'zi so'zlari tahlil etilgan. Bu so'zlarning adabiy tilda ommalashuvi yuzasidan mulohazalar bildirilgan. O'zbek adabiy tilini ichki imkoniyatlar asosida boyitish borasida takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *sheva so'zlar, adabiy til, leksika, chorvachilik leksikasi, ifoda imkoniyati, qo'llanilishi chegaralangan leksika, me'yorlashuv.*

Annotation. *In this article is devoted to the analysis of cattle-raising and shepherding terminology. Linguistic analysis of dialects has been proven to be a valuable resourse for concentration lexis.*

Key words: *dialects, literatural language, lexis, literal norm, cattle-raising and shepherding terminology, normalization.*

Аннотация. *В данной статье анализируется диалектные слова из сферы животноводства, которые представляют внутренние резервы литературного языка.*

Ключевые слова: *диалектизм, литературный язык, лексика, животноводство, способ, выражения.*

O'zbek xalqi necha ming yillardan buyon chorvachilik bilan shug'ullanib keladi. Shu ming yilliklar mobaynida chorvachilikni o'z hayot tarzining ajralmas qismi sifatida qadrlab kelayotgan xalqimiz uni rivojlantirish, yuksaltirish borasida katta tajriba va imkoniyatlarga ega.

Chorvachilikning rivoji bevosita soha leksikasining boyishiga ham sabab bo'lishi tayin. Chorvadorlar lug'at boyligidagi ularning asosiy faoliyati – chorvachilikka oid so'zlarning salmog'i va ahamiyati buning asosiy omillaridan biridir. Shuning natijasi o'laroq "...ularning tilida jonivorlarning turi, jinsi, muchalari, ularni boqish, saqlash, ko'paytirish, so'yish, tug'dirish, haydash, chaqirish, alqash va boshqa holatlarga bog'liq ko'plab so'z va atamalar yuzaga kelgan" [6: 216].

O'zbek shevalarida shunday so'zlar borki, ular shu sheva vakillarining moddiy hayot sharoitlari, shu sheva joylashgan hududning iqtisodiy imkoniyatlari bilan bog'liq. Ma'lum bir hududda ishlab chiqarish tarmog'ining muayyan sohasi rivojlanishi shu yerda yashovchi aholi tilida boshqa hududlardan farqli ravishda atamalarni vujudga keltirgan. Juda qadimdan chorvachilik rivojlangan yurtimiz hududida chorvachilikka oid so'z va atamalar hayvonlarning nomi, yoshi, rangi va boshqa jihatlariga ko'ra juda detallashtirib ifodalanganini ko'ramiz [4: 82].

Ko'pgina chorvador qishloq shevalarida qo'y-echkilarni **jonliq//jalliq** deb atashadi. Bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da diniy so'z sifatida "Xudo yo'liga, aziz-avliyolarga qurbonlik qilish uchun atalgan uy hayvoni yoki tovuq, xo'roz" deb izohlangan [7: 2-jild, 107]. Bugungi kunda xalq shevalarida bu so'zning dinga aloqadorligi va "...qurbonlik qilish uchun atalgan"lik semalari susaygandek, nazarimizda. Chunki chorva mollarining inson hayotida maishiy turmush va xo'jalik jabhalaridagi ahamiyati nisbatan ustuvor hisoblanadi.

Qadimdan ota-bobolarimiz ko'klamni yilboshi hisoblashgan. Ayni ko'klamda chorva mollarining yangi chiqqan maysaga to'yishi juda muhim sanaladi. Chunki qishda quruq yemish bilan oziqlangan jonliqlarning organizmida yangi ozuqa va vitaminlarga ehtiyoj kuchli bo'lishi o'z-o'zidan ayon. Mazkur vaziyatda chorva mollarining yangi ungan o't-o'lanlar bilan oziqlanishi aksar chorvador qishloq shevalarida ***ko'gallamoq*** fe'li bilan ifodalanadi. Yangi ungan ko'klamgi o't-o'lanlar esa ***ko'gal*** deb ataladi.

Aksar hududlarda chorva mollari qir-adirlarga boqiladi. Bunday hududlarda qirning yon tomonlari ***yona*** deyilishi ko'pchilikka ma'lum. Aynan shunday yonalarda o'tlashni ifodalovchi ***yonalamoq*** so'zi ham faqat chorvachilik bilan shug'ullanuvchi tog'oldi hududlar shevasida faol qo'llanadi.

Tog'li va tog'oldi hududlar o'zining turlicha relyefi bilan cho'pon-cho'liqlarga muayyan noqulayliklar ham tug'diradi. Ko'pgina tog'li yaylovlarda ba'zi jonliqlarning suv yuvib ketgan yoki ko'chki natijasida o'yiq holga kelgan o'ngir, chuqurliklarga tushib qolishi natijasida otar (poda)dan ajralib qolishi va yo'qolishi uchrab turadi. Bunday o'nqir-cho'nqir chuqurliklar ***jirna*** [6: 360] deb nomlanadi.

Kichik chorva mollarining ko'payish mavsumi ***to'l*** deb atalishi ko'pchilikka ma'lum. Bu mavsum, odatda, mart–aprel oylarida yakunlanadi. Ayni shu mavsum tugagach, cho'ponlar chorva mollarini tog' (yoki cho'l) hududlariga haydab ketadi. O'sha joyda kapa tikib o'rnashadi. Chorva mollari ham ***qo'ton*** deb ataladigan ochiq maydonga yotqiziladi. Ma'lumki, tog' yonbag'irlari, odatda, ***chag'at*** deb ataladigan toshli yonalardan iborat. Lekin cho'ponlar, imkoni boricha, tuproqli, nisbatan qulay yonalarni qo'ton sifatida tanlashadi. Yoz mavsumini tog'li yaylovlarda o'tkazish chorva mollarining ozuqa bilan to'yinishi va o'sishida katta ahamiyat kasb etadi.

Chorvadorlar tilida faol qo'llanuvchi ***o'tiqmoq*** fe'li yangi tug'ilgan qo'zi, uloq, buzoq kabilarning o't-o'lan-

lar bilan oziqlana boshlashini ifodalaydi. O'tiqib qolgan har qanday jonliq onasining orqasidan ergashib, otarda yurishga o'rganadi.

Cho'ponlar orasida chorva mollarini bir-biridan farqlash va nomlash katta ahamiyatga ega. Shu bois chorvadorlar jonliqning yoshi, ko'rinishi, xislatlari va boshqa xususiyatlariga qarab turli nomlar bilan atashadi. Quyida bu kabi nomlarning eng faollari bilan tanishamiz:

GADIK – oriq, yaxshi rivojlanmay qolgan qo'zi [8: 64]. *Gadikni bozorga oborish kerak. (So'zlashuvdan)* Odatda, bunday qo'zi tezroq semirtirilib yoki sotilib yuboriladi.

DAGAR – bir yoshga to'lmagan (8–10 oylik) erkak qo'zi [8: 76]. *Dagarni ajratip kel. (So'zlashuvdan)*

ISHSHAK – bir yoshli erkak uloq. *Ishshak semiz bo'ladi, lekin arzon ketadi. (So'zlashuvdan)*

PICHIMA – tez semirishi va ko'p go'sht qilishi uchun bichilgan erkak qo'y. *Pichimaning birini so'yamiz. (So'zlashuvdan)* Pichimaning qo'chqordan farqlanishi uning bichilganligi bilan bog'liq.

TUVCHA – tug'ilganiga olti oydan oshgan uloq. *Tuvchani opke. (So'zlashuvdan)*

QOCHAR – voyaga yetgan urg'ochi mol, g'unajin. *Bozordan ikta qochar oldik. (So'zlashuvdan)*

Chorvadorlar tilida chorva mollarining rang-tusi va ko'rinishi ham muhim sanaladi. Quyida ba'zi faol qo'llanuvchi shu tipdagi so'zlarni keltiramiz:

TEVAL – tepa (bosh) qismida oq (qora yoki boshqa rangdagi) qashqasi bor bo'lgan qo'y yoki echki. *Tevada o'choq o'ydirgan, Teval qo'yni so'ydirgan qaynotasiga salom. (Kelinsalomdan)*

SIMOBI – qo'ng'ir (yoki qora) rangdagi juni quyoshda sarg'ayib simob rangiga kirgan qo'y tusi. *Ikkita simobi qo'y qo'shildi. (So'zlashuvdan)* Mazkur so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "Simob rangidagi, kumushrang; kumushsimon oq yaltiroq" deb izohlangan [7, 4-jild; 507]. Lekin yuqoridagi dialektizmda simobning o'zga tusda tovlanishlari haqida ham muayyan tushunchalar mavjudligi seziladi.

CHO'MMOQ – dumli hayvonning dumsizi (bu, odatda, dumning go'shtxo'r hayvon tomonidan uzib olinishi yoki inson tomonidan kesib tashlanishi (yoki shikast yetkazilishi) oqibatidagina sodir bo'ladi). *Bitta cho'mmoq echking bor ekan. (So'zlashuvdan)*

Barcha tirik mavjudotlarda bo'lgani kabi chorva mollarida ham turli kasallanish holatlari uchraydi. Albatta, bu holat cho'ponlarni chorva mollari haqida qattiq qayg'urishga undaydi. Zero, ular orasida "Mol achchig'i – jon achchig'i" degan maqol bejiz paydo bo'lmagan. Biz quyida ba'zi chorva mollari kasalliklarining chorvadorlar tilida ifodalanishiga nazar tashlaymiz:

GAYAK – qo'zilarning tentak bo'lishidan oldingi (yoki shunga o'xshash) holati. *Egiz qo'zining biri gayak bo'pti. (So'zlashuvdan)* Odatda, echki yoki qoramol emas, aynan qo'zi (odatda, urg'ochisi) tentak bo'ladi. Bu jarayonning oldini olish uchun cho'ponlar zarur choralarni ko'rishga intiladi.

INQAS – hayvonlarning kuchli og'riq natijasida inqillashi. *Bu molning inqasi kuchli, o'ladiyov. (So'zlashuvdan)* Odatda, cho'ponlar molning inqasiga qarab uni tuzatish yoki so'yish haqida qaror qabul qiladilar.

Bu dialektizmlardan tashqari yana ko'plab so'zlar chorvachilik sohasida faol qo'llanadi. Ularning aksariyati "O'zbek tilining izohli lug'ati"da yetarlicha izohlangani bois mazkur maqolada sharhlanmadi.

Mazkur maqolada tahlil etilgan dialektizmlar adabiy tilda ommalashmagan. Buning asosiy sababi sifatida mazkur so'zlarning kasbiy atamalar sifatida qo'llanilishi chegaralangan leksik qatlamga tegishli ekanligini ta'kidlash lozim. Biroq bugungi kunda ham chorvachilik azaldagi kabi xalqimiz turmush tarzidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Xalqimizning katta qismi hali ham chorvachilikni asosiy daromad manbayi sifatida qadrli va muhim soha deb biladi. Ana shu jihat soha leksikasining katta ijtimoiy-lisoniy ahamiyatga molikligini ko'rsatadi. Shu o'rinda aytish joizki, yuqoridagi kabi ijtimoiy ahamiyatli so'zlarning adabiy tilda faollashuvi va me'yorlashuvi tilning boyishi, shuning barobarida, adabiy tilning ifoda imkoniyatlari kengayishiga xizmat qiladi.

Albatta, har qanday dialektal so'zni adabiy tilda ommalashtirishga urinish yaramaydi. Tilda ommalashtirilishga munosib ko'rilgan so'z, eng avvalo, til egalari uchun keng tushunishli, ommabop, adabiy normalarga javob beradigan va albatta ijtimoiy ahamiyatli bo'lishi kerak. Shundagina biz bu jarayonning ijobiy yechim bilan yakunlanishini kutishimiz mumkin.

Yuqorida tahlilga tortilgan dialektizmlar ham ijtimoiy-lisoniy ahamiyati bilan adabiy til leksikasidan o'rin olishga haqli, nazarimizda. Zero, mazkur so'zlar: a) Respublikamizning turli qishloq hududlari aholisi nutqida faol qo'llanadi; b) adabiy til leksikasidagi boshqa so'zlarga semantik jihatdan muqobil (ekvivalent) emas; d) ijtimoiy-iqtisodiy va lisoniy ahamiyatga ega. Bu jihatlar mazkur dialektizmlarning adabiy til birligi sifatida ommalashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. Adabiy norma nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 3 jildlik. (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: Mutallibov S.) – Toshkent, 1963.
3. Reshetov V., Shoabduraxmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 1962.
4. To'ychiboyev B., Qashqirli Q. Zominning til qomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2006.
6. O'zbek xalq shevalari lug'ati. (Mas'ul muharrir: Shoabduraxmonov Sh.) – Toshkent: Fan, 1971.
7. Shoabduraxmonov Sh. O'zbek adabiy tili va xalq shevalari. – Toshkent, 1960.

Matluba JABBOROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

MUMTOZ LIRIKADA JAMSHID TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek mumtoz she'riyatida an'anaviy Jamshid obrazining badiiy talqini tahlil etilgan. Xususan, mazkur obrazning lirikadagi badiiy-estetik vazifalari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *lirika, badiiy obraz, an'anaviy, bayt, misra, mumtoz adabiyot.*

Annotation. *This article analyzes the artistic interpretation of the traditional image of Jamshid in Uzbek classical poetry. In particular, the artistic and aesthetic functions of this image in the texts are revealed.*

Key words: *lyrics, artistic image, traditional, byte, verse, classical literature.*

Аннотация. *В данной статье анализируется художественная интерпретация традиционного образа Джамшида в узбекской классической поэзии. В частности, раскрыты художественные и эстетические функции этого образа в текстах.*

Ключевые слова: *лирика, художественный образ, традиционный, байт, стих, классическая литература.*

O'zbek mumtoz adabiyotida an'anaviy obrazlarni badiiy talqin etish, ulardan ijodiy foydalanish o'ziga xos jarayon hisoblanadi. Har bir zamon ijodkori bunday taniqli qahramon yoki timsollardan turli maqsadlarda foydalanadi. Odatda, adiblar o'z niyatini qabariq ifodalashda, fikrlarini tasdiqlash yoki go'zal badiiy san'atlardan foydalanish asnosida shunday timsollarga murojaat etishadi. Albatta, bunday obrazlarning badiiy ahamiyatini yanada teran ochib berish uchun ularning uzoq asrlik takomilini, tarixiy rivojini bilish lozim.[1]

Sharq adabiyotidagi Jamshid obrazi o'zbek mumtoz lirikasida an'anaviy obrazlardan biri sifatida yashab kelgan. Lirikada mashhur shaxslarga ishora qilish, diniy-tarixiy shaxslar, afsonaviy-mifologik obrazlardan foydalanish an'ana tusiga kirgan. Muallif g'oyaviy-badiiy maqsadini amalga oshirish uchun o'rni bilan ularga murojaat qiladi, obrazga xos sifatlarni birgina so'z zamirida bekitadi, ishora qilib o'tadi. Talmeh san'atini hosil qiluvchi bu kabi misralar kichik, ammo ma'no yukiga ko'ra chuqur bo'ladi. An'anaviy mavzu va sujetlar talqinida ularning har birining o'ziga xos o'rni, qo'llanish doirasi bo'lgani kabi Jamshid mavzusi ham asosan, shohlar, tazod san'atini hosil qilganda shoh va gado tushunchalari doirasida qo'llanadi. Asardagi hukmdorlar shoh Jamshidga qiyoslanadi, ibrat olishga da'vat etiladi. Ushbu jarayonda ijodkorlarning yuksak badiiy mahorati, so'zdan mohirona foydalanish san'ati tufayli an'anaviy Jamshid obrazi o'zbek mumtoz lirikasida ham o'z o'rniga ega, o'ziga xos timsolga aylandi.

O'zbek mumtoz she'riyatida Jamshid obrazidan foydalanish masalasi quyidagicha tasniflab olindi:

Lirikada shoh Jamshidning tarixiy qiyofasidan foydalanish. Jamshid obrazi asrlar davomida shakllanib, taraqqiy etib bordi. Jamshidning yozma adabiyotdan xalq og'zaki ijodiga ko'chishi, shuningdek, og'zaki ijoddan yana tarixiy-badiiy asarlar qahramoniga aylanishi jarayonida obrazning podshoh, podachi, xudo, kashfiyotchi qiyofalarida namoyon bo'lganini kuzatish mumkin. Biroq Jamshidga xos bo'lgan ilk nisbat – uning qudratli podshoh sifatidagi qiyofasi barcha davrlarda ham saqlanib qoldi. O'zbek mumtoz she'riyatida Jamshid qahramonining ana shu podshohlik tasviri yetakchilik qiladi. Mualliflar shoh Jamshid qiyofasidan turli maqsadlarda foydalangan. Birinchidan, ijodkor podshoh Jamshid faoliyatiga ishora qilib, tarixiy dalil vositasida umrning, mol-dunyoning o'tkinchiligini uqtiradi. Ikkinchidan, ijodkor lirik qahramon holatini Jamshidga qiyoslaydi. Natijada voqea yoki qahramon holatiga oydinlik kiritiladi. Uchinchidan, Jamshid shoirni ijod qilishga undaydigan, unga kuch beradigan homiy qiyofasida namoyon bo'ladi.

Mavlono Lutfiyning Shohruh Mirzoga bag'ishlangan qasidasida podshoh Jamshid nomi muallif fikrlarining isboti, badiiy niyatining o'ziga xos ifodalash vositasi sifatida tilga olingan. Lutfiy toj-u taxtga ko'ngil bermaslik lozimligini, tarixda o'tgan Jamshid, Iskandar, Faridun kabi buyuk shohlarga ham amal kursisi vafo qilmaganini ta'kidlaydi. Bu yerda shoir o'z fikrini ochish uchun talmeh san'atidan foydalanadi:

Qani Jamshid, Iskandar, dog'i Mahmud birla Sanjar,
Kim olsalar olar andin bu kun rasmi jahonboni[2].

Lutfiy baytda Jamshid, Iskandar, Mahmud kabi jahondor podshohlarning nomini keltirish orqali temuriy shahzodalarga tarixiy dalil bilan nasihat qiladi; taxt-u tojga mahliyo bo'lmaslikni, o'tkinchi shon-shuhratga ishonib qolmaslikni uqtiradi. Chunki "rasmi jahonboni" necha qudratli shohlarning qo'liga o'tgani, qancha hukmdorlar bu taxt uchun qonlar to'kkani, urushlar olib borgani va alal-oqibat ularning hech biriga bu "rasmi jahonboni" sadoqat ko'rsatmagani an'anaviy obrazlar misolida tasvirlanadi.

Alisher Navoiy baytlarida bu dunyo gadoga ham, dovrug'i olamga taralgan buyuk hukmdorlarga ham vafo qilmasligi Jamshid misolida keltiriladi. Bunday mazmundagi baytlar Navoiy g'azallarining ko'p o'rinlarida uchraydi. Ularda shoir falsafiy mulohaza yuritish barobarida an'anaviy obrazlardan unumli foydalanadi, fikrlarini ishonarli dalillaydi.

Qani Xotam, qani Qorun, qani Jamshidu Afridun?
Bas ehson qil sanga gardundin adno e'tibor o'lg'och[3].
Tutay jahonda Sulaymon seni va yo Jamshid,
Ne munga jom vafo ayladi, ne anga, uzuk[4].
Bukim, Jamshidqa davron vafo ko'rguzmayin yiqti,
O'qu kayfiyatinkim, yozilibtur davri jom ichra[5].

Mazkur baytlarda shoirning mushohadalari aks etadi, tarixdan o'tgan buyuk hukmdorlar – Qorun, Xotam, Faridun, Jamshid, Iskandar va Sulaymon ham ana shu bevafolik qurboni bo'lishganini "dovrug'i yetti iqlimga yetgan" podshohlar misolida eslatib o'tadi.

Ki, na Jam qoldiyu ne Iskandar,
Itti ul jom ila ul ko'zgu ham[6].

Shoirning ko'pgina baytlarida Jamshid timsoli muallifning olam va uning o'tkinchi, muvaqqat ekanligi haqidagi mushohadalari uchun bir vosita bo'lib xizmat qiladi.

Navoiydan keyingi davr adabiyotida ham Jamshid obrazi buyuk va qudratli shoh qiyofasida aks etadi, mazkur davr she'riyatida mualliflar inson bu dunyoga omonat ekanligini Jamshiddek jahondor shohlar misolida dalillaydi:

Qolmadi Jamshid, Iskandar, qani Afrosiyob?
Topmadi dasti ajaldin xona obod oqibat[7].

Mashrab she'riyatida qalandarlik kayfiyati – bu olamning insoniyatni o'ziga ohanrabodek jalb etuvchi boyligidan voz kechish, hech kimga vafo qilmagan qisqa umrning g'animat damlarida o'tkinchi havaslarga berilmaslik, dunyoning omonatligi tayin va u buyuk podshohlarga ham vafo qilmaganligi ishonarli dalillar orqali aks etadi.

O'zbek shoiri Huvaydoning bir baytida ham aynan shunday ifodani kuzatish mumkin:

Qani Jamshidu Jomi Jam, qani No'shiravon, Hotam?
Qani zolim, qani odil, qani shohu gado, mullo?[8]

Huvaydo bu dunyodan rihlat qilgan buyuk jahondor, adolatparvar va saxiy insonlarni yodga olib, qismat hamma uchun barobarligini uqtiradi.

Shoh Jamshid va toju taxt madhi. Mumtoz lirikadagi Jamshidning buyuk podshoh maqomidagi qiyofasiga murojaat etilgan baytlar ham mavjud. Unda ma'shuqaning ostonasi, lirik qahramonning egallagan maqomi Jamshid taxtidan ham ulug' ekanligi ta'kidlanadi, natijada oshiqning holati haqida aniq tasavvur hosil bo'ladi. Masalan, Lutfiyning bir baytida lirik qahramon oshiq qiyofasida namoyon bo'ladi va uning uchun ma'shuqaning eshigidan o'zga yerda baxt yo'q, yorning poy-qadami esa oshiq uchun tojdir. Oshiqning ma'shuqa poyida erishgan bu davlatiga hatto Jamshid, Faridun kabi podshohlar ham erisholmagan.

Eshikingdur baxtu davlat, xoki poying afsarim,
Topmadi Jamshidu Afridun bu qadru johni[9].

Lutfiy Jamshid obraziga shunchaki murojaat qilmaydi, ushbu obraz vositasida fikrlarini jonli, ishonarli tasvirlashga erishadi. Baytda tasvirlangan oshiq go'zal yorning ostonasini o'zi uchun makon etdi, deb quruqqina ta'riflansa, lirik qahramon yor vaslidan umidvor, bechorahol darveshnamo oshiq qiyofasida namoyon bo'lar edi. Biroq shoir baytning ikkinchi misrasida oshiqning egallab turgan joyi va mavqeini Jamshid va Faridunlarning maqomidan ustun qo'yish orqali ishqqa egallik – oshiqlik martabasi, o'tkinchi dunyoga egalik – shohlikdan yuqori turishini uqtiradi.

O'zbek she'riyatida lirik qahramonning Jamshidga qiyoslanishi, balki undan ham yuqori turishining e'tirof etilishi muallifning qahramonga munosabatini ham anglatadi:

Muhammad Xo'jabek Jamshidi soni,
Jahonning orzusi, xalq xoni[10].

Xorazmiy ushbu baytda Muhammad Xo'jabekka hurmatini izhor qilib, o'z homiysining xalq orzu qilgan adolatparvar va shavkatli podshoh ekanligini madh etadi. Hatto, uni ikkinchi Jamshid, deb ataydi. Natijada Muhammad Xo'jabek qiyofasini Jamshid timsoliga qiyoslash orqali birinchidan, unga hurmati balandligini bildirsa, ikkinchidan, ortiqcha madhiyabozlik, bayonchilikdan qutulib, o'z fikrini ishonarli va lo'nda yetkazadi.

Yana shunday munosabatni Sayid Ahmadning "Taashshuqnoma" asarida ham ko'rish mumkin. Baytda shoir shavkatli shoh Jamshid obrazidan o'rnak olish, qiyoslash o'rnida foydalanadi.

Shahanshohi jahon Doroyi a'zam,
Faridun siyratu Jamshid maqdam[11].

Muallif temuriyzoda Shohruh Mirzoni buyuklikda Doroga, shon-shavkatda Faridunga, qadam olishini – har yerga qo'li yetishini esa Jamshidga qiyoslaydi.

Shoir Sayyid Qosimiyning "Sadoqatnoma" asarida ham jahonning, taxtu saltanatning o'tkinchiligi, bu bevafo dunyoga ortiqcha mahliyo bo'lmaslik lozimligi tarixiy misollar orqali uqtiriladi:

Qani Kay Xusravu Zahhoku Jamshid,
Jahondin bordilar borisi navmid[12].

Kayxusrav, Zahhok, Jamshid kabi poshdohlar o'z davrida dunyoni zabt etgan, dovrug'i yetti iqlimga mashhur bo'lgan, biroq ularning hech biri bu dunyoga ustun bo'la olmagan. Barchasi bu hayotni noumid tark etishga majbur bo'lganlar. Baytda muallif kitobxonni ogohlikka chaqirib, buyuk shohlar misolida umrning g'animat, mol-dunyoning esa bevafoligini ta'kidlaydi.

Muhammad Xorazmiyning yana bir baytida Jamshidning yaratuvchilik sifatlariga ishora qilib, undan ijod yo'lida madad tilaydi:

Nazar birla agar Jamsen gar Osaf,
"Muhabbatnoma" qilsang musharraf[13].

Baytda Jamshid buyuk qudrat sohibi sifatida tilga olinadi. Muallif yaratuvchiga murojaat qilib, "agar sen Yaratuvchi Jamshid bo'lsang, menga nazar qil, "Muhabbatnoma"ni yozishdek baxtga musharraf qilgin", deb so'raydi.

Bo'lur tiyra ko'zgung, to'lar zahrai joming
Tutaykim, bo'l Iskandaru Jamg'a solis[14].

Navoiy ijodida qadimgi podshohlarning nomi ko'pincha ibrat, namuna yoki misol tariqasida esga olinadi. Yuqoridagi baytda shoirning amalni sevuvchi, mansabparast kimsalarga qarata qilgan pand-nasihati Iskandar va Jamshid obrazlari misolida uqtiriladi. Shoir o'tmishning buyuk hukmdorlarini eslash orqali dunyoning o'tkinchligini; amal, boylik, mol-davlat hammasi bevafo ekanligini e'tirof etadi. Ko'zguning qorayishi va jomning zahar bilan to'lishi esa ramziy tasvir bo'lib, insonning hech qachon mukammal Yaratuvchi bo'la olmasligiga ishoradir.

Yusuf Amiriyning "Dahnoma"sida ham Jamshid go'yoki muallifga shoir bo'lish uchun undagan, yordam bergan shaxs sifatida tilga olinadi.

Bu Jamshid o'ldi jonim dastgiri,
Ki bo'ldum she'r mulkining Amiri[15].

Shoir deydiki, "Jamshid meni qo'llab-quvvatlagani, ko'maklashgani sababli men she'riyat mulkida amir bo'ldim". Davlatpanoh, shoh Jamshid dunyoga amir bo'lgan bo'lsa, shoir Amiriy undan ilhomlanib she'riyatga amir bo'lganini ta'kidlaydi. Har jabhaning o'z boshqaruvchisi, bajaruvchisi va jabrdiydasi (gadosi) bor, degan hayotiy falsafa shoir nazmida o'z ifodasini topgan.

Furqatning "Shu'lai sham'i ruxing mohi munavvardekkina" deb boshlanuvchi g'azalida ham yor ostonasi Jamshid taxtiga qiyoslanadi.

Ostonang go'shasi Jamshid taxtidakkina,
Maqdaming tufrog'idir toji Sikandardekkina[16].

Jamshid taxti quyoshdek nur sochib, olamni munavvar etgani qadimgi afsonalarda madh etilgan. Unga ko'ra Jamshid taxtga chiqqanda, devlar uni osmonga ko'taradi. Odamlar taxtning ko'zni qamashtiruvchi nuridan hayratlanib, osmonda yana bir quyosh paydo bo'ldi, deb unga talpinishadi. Baytdagi lirik qahramon ham yorning ostonasiga talpinadi, chunki u joydagi ma'shuqaning qadamlaridan sachragan tuproq go'yo Iskandarning oltin toji kabi yarqiraydi, oshiqni o'ziga tortadi. Muallif ostonani taxtga qiyoslash vositasida qahramonning ruhiyati va holatini ham mohirona ochib bergan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek mumtoz lirikasiga shoh Jamshid obrazi o'zining mifologik, tarixiy hayot yo'lini bosib o'tgan, muayyan qiyofaga ega bo'lgan obraz sifatida ko'chib o'tdi. Obrazga xos bo'lgan buyuk podshohlik, kashfiyotchilik va homiylik qirralari she'riyatda muallif maqsadini amalga oshiruvchi vosita sifatida qo'llanildi. Natijada nazmning poetik ko'lamini kengaytirishga hissa bo'lib qo'shildi. Tarixiy-badiiy asarlarda Jamshid obrazi alohida mustaqil mavzu sifatida yoritilgan bo'lsa, mumtoz she'riyatda asosiy o'rinni lirik qahramon egalladi va bu jarayonda Jamshid kabi an'anaviy obrazlar poetik vazifani bajaruvchi ikkilamchi obrazlarga aylandi.

[1]Rafiddinov S. Atoyining poetik mahorati. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1993. 82-bet.
[2]Lutfiy. Devon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 19-bet.
[3]Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. 18-bet. (Keyingi keltiriladigan Alisher Navoiyning baytlari ushbu nashrdan olingan bo'lib, jildi va beti qayd etiladi – M.J.)
[4]Alisher Navoiy. 4-jild. 336-bet.
[5]Alisher Navoiy. 4-jild. 573-bet.
[6]Alisher Navoiy. 3-jild. 401-bet.
[7]Mashrab Boborahim. Mehribonim qaydasan. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. 211-bet.
[8]Huvaydo Xojanazar. Devon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. 23-bet.
[9]Lutfiy. Devon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 301-bet.
[10]Xorazmiy. Muhabbatnoma //Muborak maktublar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. 38-bet.
[11]Sayid Ahmad. Taashshuqnoma //Muborak maktublar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. 123-bet.
[12]Sayid Qosimiy. "Sadoqatnoma" // Muborak maktublar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. 208-bet.
[13]Xorazmiy. Muhabbatnoma //Muborak maktublar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. 39-bet.
[14]Alisher Navoiy. 2-jild. 94-bet.
[15]Yusuf Amiriy. Dahnoma //Muborak maktublar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. 119-bet.
[16]Furqat. Muhabbat yo'lida. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. 169-bet.

Gulruxsor ERGASHEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

BILINGUAL TA'LIM MUHITIDA O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISH

Annotatsiya. *Maqolada bilingual va multilingual ta'limning xususiyatlari, yutuqlari haqida so'z yuritilgan. Bilingual muhitda o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mavjud muammo, kamchilik va yechimlar haqida takliflar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *bilingual, multilingual, xorijiy til sifatida o'qitish, multikultural, mahalliy tili, o'zbek tili.*

Annotation. *The article discusses the features and achievements of bilingual and multilingual education. Suggestions were made about the problems, shortcomings and solutions to the teaching of Uzbek as a foreign language in a bilingual environment.*

Key words: *bilingual, multilingual, teaching as a foreign language, multicultural, local language, Uzbek language.*

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности и достижения двуязычного и многоязычного образования. Были высказаны предложения о проблемах, недостатках и способах преподавания узбекского языка как иностранного в двуязычной среде.*

Ключевые слова: *двуязычный, многоязычный, обучение как иностранному языку, многокультурный, местный язык, узбекский язык.*

XXI asrdagi virtual imkoniyat uzoq yillar davomidagi monokultural va yakka hokimlik tuzumidagi mamlakatlarni ham murakkab jamiyatga aylantirdi.

So'ngi 30–40 yil davomida jamiyatning ko'p madaniyatli bo'lib ketganligining sabablaridan biri ayrim o'ziga xos tillar va savodxonlik sohasida yetakchi bo'lmagan madaniyatlarning tilini saqlash, tiklash va rivojlantirishga talabning paydo bo'lganligidir.

Bunga javoban esa eksperimental ikki tilli(bilingual) va ko'p tilli(multilingual) ta'lim dasturlari rivojlana bordi. Ular esa butun dunyo ta'limida eng natijali dasturlardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda bilingual ta'lim eng mashhur ta'lim tizimi bo'lish bilan bir qatorda pedagog mutaxassislar tomonidan yangilik emasligi ta'kidlanadi. Makki(1978)ning aytishicha, bilingual ta'limning paydo bo'lishi bundan 1000 yillar oldin alifboning yaratilishi bilan bog'liq.[1] Levisning fikriga ko'ra xristianlik davridan oldin uchta: akkat, aranik va yunon tilla-

ridagi o'xshashliklar bilingual ta'limga asoslangan.[2] Bizningcha esa Levisning fikri ko'proq multilingual ta'limga tegishli. Chunki bilingual ta'lim bevosita ikki tilli ta'limni qamrab oladi. Multilingual ta'lim esa 3 tilli ta'limni qo'llab - quvvatlaydi. Aslini olganda, insoniyat madaniyatlararo muloqotga kirisha boshlashi va ta'lim olishni boshlagan jarayondan bilingual va multilingual ta'lim paydo bo'la boshlagan. O'rta Osiyo hududida bilingual, multilingual ta'limning ham paydo bo'lishi taxminan arablar istilosi davriga ya'ni VII-VIII asrlarga borib taqaladi. O'sha vaqtdan boshlab bilingual muhit paydo bo'la boshlaydi. Somoniylar va Qoraxoniylar davrida esa ta'lim olish jarayoni bilan omixtalashib ketadi.

Hozirgi kunda esa bilingual ta'lim asosan, kam millatli, ko'p millatli, xalqaro va mahalliy tillar orqali amalga oshiriladi xuddi, o'zbek – tojik, o'zbek – qirg'iz, o'zbek – rus, o'zbek – ingliz, rus – o'zbekday. O'zbekiston ko'p millat va elatlarni o'z bag'riga olganligi sababli ham bu hududda o'zbek tili birinchi til sifatida o'qitish bilan bir qatorda, ikkinchi til sifatida o'qitishga ham ehtiyoj baland. Bunday ta'limda kognitiv, sotsiologik, psixologik va lingvistik omil muhim rol o'ynaydi.

Bilingual ta'limning asosiy maqsadlari quyidagilar:

– ko'p tilda so'zlashuvchilar uchun 1 ta tilni boyitish (L2 kam so'zlashiladigan til);

– ikki tilli so'zlashuvchilar uchun yaxshi o'zlashtirilmagan tilni to'ldirish(L2 kam so'zlashiladigan til);

– ko'pchilik so'zlashadigan til muhitida kam so'zlashuvchi til egalari uchun kompensatsion ta'lim (L2 = ko'pchilik tili). Masalan: O'zbekiston hududida yashovchi qozoq, tojik, qirg'iz va boshqa tillar uchun o'zbek tili ikkinchi til va kompensatsion ta'lim vazifasini bajaradi;

– ko'pchilik so'zlashadigan til muhitida yashovchi kam gaplashuvchi til egalari uchun tranzit ta'lim (L2 = ko'pchilik tili). Misol: O'zbekiston hududida yashovchi boshqa millat va til egalari uchun o'zbek tili tranzit vazifasini bajaradi;

– yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turgan tilda jonlantirish ta'limi (L2 = xavf ostidagi ozchiliklar tili)[3].

Bilingual ta'limda o'rganishning bir nechta turi farqlanadi. Masalan: kontentga asoslangan, immersion va boshqalar[4].

Kontentga asoslangan o'rganish ikkinchi tilni o'qitishga yondashuv bo'lib, unda ikkinchi til (L2) o'quv dasturini o'qitish va o'rganish uchun o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Kontentga asoslangan o'rganish nazariy jihatdan kommunikativ kompetensiyaga asoslangan bo'lib, tilning ijtimoiy maqsadga muvofiq va mazmunli ishlatilishini ta'minlaydi, ya'ni til haqida bilishdan ko'ra, qanday qilib samarali foydalanishni o'rgatadi. Kontentga asoslangan tillarni o'qitish atamasi, odatda, dasturning 50 foizidan kamrog'i 2-o'rta darajadagi o'quv dasturi orqali o'qitiladigan dasturlarni anglatadi. Unda o'quv dasturining 50 foizi yoki undan ko'prog'i ikkinchi til (L2) yordamida o'qitiladi, va bunday tizimga "bilingual immersiya" atamasi qo'llaniladi.

Bilingual immersiya, kontentga asoslangan ikki tilli ta'limning eng mashhur shakli bo'lib, juda keng va ko'p tadqiq qilinadi. Svayn va Jonsonning (1997, 6-8-betlar) so'zlariga ko'ra, immersiya dasturining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– L2 dan o'qitish vositasi sifatida foydalanish;

– L1 da ishlatilganlarga parallel ravishdagi o'quv rejasi sifatida;

– L1 uchun to'g'ridan to'g'ri ko'mak sifatida;

– qo'shimcha bilingual dastur maqsadi sifatida;

– sinf bilan birgalikda L2 ga ta'sir etish sifatida;

– bilingual o'qituvchilar sifatida;

– sinf madaniyati mahalliy L1 jamoasining madaniyati.

Xo'sh, bugungi kunda bilingual ta'limning o'zbek tili rivojiga ta'siri qanday? degan tabiiy savol paydo bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekistondan tashqari, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Afg'oniston, Turkmaniston, Turkiya va boshqa davlatlarda tub o'zbeklar yashab kelayotgan hududlar mavjud bo'lib, tabiiyki, bu yerdagi o'zbeklar, asosan, bilingual ta'lim olishga majbur bo'lishadi. Yuqorida sanab o'tilgan davlatlarda o'zbek maktablaridan tortib o'zbek tili yo'nalishi mavjud bo'lgan oliygohlar ham faoliyat yuritmoqda. Biroq, u yerda mavjud bo'lgan o'zbek tili bilan O'zbekiston hududidagi O'zbek adabiy tili o'rtasida sezilarli farqlar paydo bo'lgan. Bunga asosiy sabab qilib ularning O'zbekistondagi jonli o'zbek tilidan uzilganligi uzoq yillar davomida o'zbek tili rus tili ta'sirida bo'lib boshqa o'zbek tili davlatlarida bu ta'sirning yo'qligi sabab talaffuzning turlichaligi, o'zbek tili fonetikasi bo'yicha qilingan tadqiqotlarning amalda joriy etish darajasining yuqori emasligi, o'zbek tilida so'zlashuvchilarning uch lahjada ham borligi va adabiy tildan muloqot jarayonida juda kam darajada foydalanilayotganligi va bir necha ijtimoiy sabablar ko'rsatiladi. Bu muammolarni bartaraf etishning quyidagi yo'llari mavjud:

– o'zbek tilining lotin yozuviga asoslangan transkipsiyasini ishlab chiqish;

– adabiy til va umumxalq tilini yaqinlashtish;

– boshqa davlatdagi o'zbeklar uchun o'zbek tilining hozirgi adabiy tiliga xos shaklini o'rganishlari uchun imkoniyat yaratish (bu jarayonda ommaviy axborot vositalaridan va masofaviy kurslardan foydalanish orqali va o'zbek tilining onlayn platformasini yaratish orqali erishiladi);

– internet tarmog'ida o'zbek tili va madaniyatini targ'ib etuvchi va namoyon etuvchi roliklarni ommalashtirish va boshqalar.

Bu muammolarning bartaraf etilishi bilan butun dunyo bo'ylab 65 ga yaqin til markazlari, universitet, institutlarda o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning natijalari ham sezilarli darajada ijobiy tomonga o'sadi.

Bilingual ta'limning qanchalik yaxshi ishlashi ko'p tilli yoki ikki tilli bilimni samaradorligini aniqlash va baholashga bog'liq. Bilamizki, agar ikkala til (yoki barchasi) ma'lumotga asoslangan bo'lsa, bolalar ma'rifiy, lisoniy va ijtimoiy jihatdan ta'minlanadi; ular kognitiv va iqtisodiy jihatdan ham foyda keltirishi mumkin. Garchi ikki tilli ta'lim minglab yillar davomida insoniyat sivilizatsiyasining bir qismi bo'lsa-da, so'nggi yarim asr ichida u yangi hayotga kirdi. Aytish mumkinki, bilingual ta'lim oluvchilar monolinguallarga nisbatan kognitiv, lingvistik va psixologik jihatdan ustunliklarga ega. Chunki ularda ikkita tilning shakli, tafakkur tarzi haqidagi ma'lumot, eng muhimi madaniyat, urf-odatlari va mentaliteti haqidagi tushunchalar mavjud. O'zbek tilini, umuman, xorijiy tilni o'qitishning natijasi lingvistik, individual, konteksual, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va pedagogik omillarga bog'liq. Albatta, bu jarayonda xalqaro (yoki o'rganilayotgan) til va mahalliy tilning ta'siri bo'ladi. O'zbek tilini xalqaro tillar qatorida o'qitilishi uchun barchamiz o'zimizda mas'ullik his etib jiddiy yondashmog'imiz zarur.

[1]Davis A. Elder C. The handbook of applied Linguistics. Blackwell, Oxford 2004. p-695.
[2]Davis A. Elder C. The handbook of applied Linguistics. Blackwell, Oxford 2004. p-696.
[3]Davis A. Elder C. The handbook of applied Linguistics. Blackwell, Oxford 2004. P-695
[4]I. Morgan, B. (1998) The ESL classroom: teaching, critical practice and community development. Toronto: University of Toronto Press. P-354

Shukur-Ali ATAYEV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

YOZUV MALAKASINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA VA NAZMNING TA'SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqola chet tillarni o'rganishda yozuv malakasini shakllantirish masalasiga bag'ishlangan. Unda yozuvning ta'lim tizimidagi maqomiga oid ma'lumotlar batafsil tahlil etilgan. Shuningdek, muallif ta'lim jarayonida yozuvning ta'limiy maqsadini o'rgatishda qo'llaniladigan usullarni tasniflagan.*

Kalit so'zlar: *nutq faoliyati, yozuv, kreativ yozuv, maqsad, vosita, tavsif, chet til, o'qitish, matn, she'r.*

Annotation. *This article is devoted to the formation of writing skills in the study of foreign languages. In the article, the author conducts a more detailed analysis of the status of writing in the education system and studied the features of the status of writing as a goal and a means. The author also concludes that writing should be studied as an educational goal in the educational process.*

Key words: *speech activity, writing, creative writing, aim, means, characteristic, foreign language, teaching, text, poem.*

Аннотация. *Данная статья посвящена формированию навыков письма при изучении иностранных языков.*

Автор проводит подробный анализ целей и методов обучения письму в системе образования

Ключевые слова: *речевая деятельность, письмо, креативное письмо, цель, средство, характеристика, иностранный язык, обучение, текст, стихотворение.*

Ma'lumki, yozuv murakkab nutqiy malaka bo'lib, u grafik belgilar tizimi yordamida davrlar osha insonlar hamda avlodlarning o'zaro muloqotini ta'minlaydi. Aslida u produktiv nutq faoliyati turi bo'lib, ma'lum bir shaxs tomonidan yozma bayon qilingan fikrining boshqalarga yetkazilishini nazarda tutadi.

Oxirgi paytlarda yozuv nutq faoliyatining turi xorijiy va mahalliy metodik adabiyotlarda keng muhokamaga sabab bo'lib kelmoqda. Chet tillarni o'qitish metodikasida yozuv malakalarini rivojlantirishga bo'lgan ulkan siljish asosan XX asrning 90-yillariga to'g'ri keladi va bu davrgacha ta'lim jarayonida asosiy e'tibor og'zaki nutq faoliyati turlari, tinglab tushunish va gapirishga qaratilgan bo'lib, yozuv malakasi esa boshqa nutq faoliyati turi sifatida talqin etib kelingan.

Til o'rgatishning barcha bosqichlarida yozuv orqali grafik matn tuzish ko'nikmalari shakllantiriladi. Aslida muloqotning yozma shakli grafemalar, leksik va grammatik birliklarning yozma tarzda qo'llanilishi orqali sodir bo'ladi.

Yozuv malakasini shakllantirish deganda, bir jihatdan grafik belgilardan foydalanib so'z va gaplarni yoza olish, boshqa tarafdan esa matn tuzish, ya'ni ma'lum bir mavzuga oid annotatsiya, tarqiz, referat, bayon yoki insho yozish tushuniladi. Mazkur maqolada biz yozuvning quyi bosqichda qo'llanilishiga emas, balki ta'limning barcha bosqichlarida qo'llaniladigan kreativ yozuv malakalarini rivojlantirish masalalariga to'xtalib o'tamiz.

Davlat ta'lim standarti va dasturlarida yozuv nutq faoliyatiga o'rgatish bosqichlarini quyidagilarda kuzatishimiz mumkin. Ya'ni ta'limning boshlang'ich bosqichida ta'lim oluvchilar yozuv texnikasi (tovush-harf munosabati, husnixat, imlo)ni o'rganadilar. Keyingi bosqichlarda fikrni grafik shaklda ifodalash, ya'ni matn yaratish ko'zda tutiladi.

O'zbekiston ta'limning o'rta bosqichida nutq faoliyat turlarining bosqichma-bosqich vosita va maqsad maqomi quyidagicha berilgan, ya'ni professor J.Jalolovning ta'biri bilan aytganda, "I sinfda tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad hisoblanadi; II-IV sinflarda ham tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad, o'qish va yozuv og'zaki nutqda o'rganilgan til materialini takrorlash, mustahkamlash vositasi; V-VI sinflarda nutq faoliyati turlaridan tinglab tushunish, gapirish va o'qish – oraliq amaliy maqsad, yozuv – amaliy vosita; VII-IX sinflarda tinglab tushunish va o'qish – amaliy maqsad, gapirish va yozuv vosita [3, 79-b.] sifatida o'rganishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Demak, umumta'lim maktablarida yozuv nutq faoliyati turiga boshlang'ich ta'limda ham e'tibor qaratiladi va asosan og'zaki nutqda o'rganilgan til materialini takrorlash va mustahkamlash vositasi hisoblanadi. Yuqori sinflarda esa 5-6 va 7–9 sinflarda yozuv vosita vazifasini o'taydi. Demak, ta'limning yakunlovchi bosqichi (10-11 sinflar)da yozuv ta'lim maqsadi sifatida o'rganilishi lozim. Keyinchalik oliy ta'limda esa bu malaka yanada takomillashtirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Endi fanda yozuv nutq faoliyati turining o'rganilishiga oid ma'lumotlarni umumiy jihatdan o'rganib chiqsak. Tahlilga tortilgan (Rossiya va O'zbekistondagi) ilmiy adabiyotlarda yozuvga ta'lim vositasi deb qarab kelinmoqda. G'arbiy Yevropa va okean orti mamlakatlarida bu nutq faoliyat turi sifatida o'rgatilmoqda. Misol uchun, J.Jalolovning "Chet til o'qitish metodikasi" nomli darsligida "... yozuv o'qitish maqsadi maqomiga ega emas, balki ta'lim vositasidir" [4, 282-b.] deya ta'rif berilgan. Albatta, bu yerda asosan umumta'lim maktablari nuqtayi nazaridan yondashilgan. Aslida, biz chet tillarni o'rganish va o'rgatish jarayonida, tabiiyki, ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan uyg'unlikda ta'lim tizimini takomillashtirishimiz maqsadga muvofiq. Ya'ni ta'lim oluvchilarda yozuv ko'nikmalarini shakllantirishda bu nutq faoliyat turini ta'lim maqsadi deb o'rgatishimiz kerak.

Agarda yozuvga berilgan ta'riflarga to'xtaladigan bo'lsak, G.V.Rogova unga shunga tavsif beradi: "Lisoniy va nutqiy materialni esda saqlash va qayd etish maqsadida, yozuv ta'lim oluvchilar tomonidan chet tildagi grafik va orfografik tizimning egallash jarayonida tinglab tushunish, gapirish va o'qishni egallashda yordamchi vazifasini o'taydi. Chunki yozuv boshqa nutq faoliyat turlari bilan chambarchas bog'langan" [2, 162-b.].

Tilshunos olima uchala nutq faoliyat turini egallashda yozuv vosita vazifasini bajarishini aytib o'tgan. Umuman olganda, ta'limning boshlang'ich va o'rta bosqichida yozuv asosan vosita vazifasini o'taydi, uning keyingi bosqichda, ya'ni 10-11-sinflarda va oliy ta'limda yozuv nutq faoliyati turi ta'lim vositasi maqomidan maqsad maqomiga ega bo'lishi kerak. Ya'ni o'quvchilar fikrni yozma tarzda ifodalay olish qobiliyatiga ega bo'lishlari talab etiladi.

Nemis metodisti I. Shrayter yozuvni turli yoshdagi insonlarning talabidan kelib chiqqan holda quyidagi maqsadlarda qo'llanilishini ta'kidlab o'tgan: "Yozuv – o'zgalar bilan muloqot qilish, o'zi bilan muloqot qilish, his-tuyg'ularni ifoda etish, kechinmalarni tasvirlash, tuyg'ularni ifodalash, orttirilgan tajribani tasvirlash, shaxsiy kreativlikni namoyon qilish, zavq, o'yin-kulgiga ega bo'lish va yozma muloqot qilish, kirishuvchan bo'lib yashash maqsadida o'ynash va nihoyat o'z uslubiga ega bo'lish, lisoniy sezgirlikni shakllantirishni nazarda tutadi [5, S.15]. Bu vazifalar bir tarafdan amaliyotda yozuvga o'rgatish, bevosita o'zgalar bilan muloqot g'oyasini ilgari sursa, boshqa tarafdan ta'lim oluvchining ehtiyoj va qiziqishlarini amalga oshirishni kuzatishimiz mumkin.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu nutq faoliyatining ko'p turlari mavjud. Ular orasida kreativ yozuv turi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u G'arb chet til o'qitish metodikasi (asosan AQSH) ta'lim standartlarida alohida fan sifatida kiritilgan. Lekin O'zbekiston chet til o'qitish metodikasida esa kreativ yozuv malakalarini shakllantirish yetarlicha o'rganilmagan. Albatta, o'rganilmagan muammo o'z-o'zidan dolzarb bo'lib qolmaydi, ya'ni uni tajriba-sinov orqali erishilgan natijasining amaliy ahamiyati masalaning dolzarbligini belgilaydi.

Nemis olimasi K.Shpinnerning e'tirof etishicha, "Kreativ yozuv yozuvning maxsus shakli bo'lib, yozuvning ijodiy tarafini targ'ib va mashq qiladi. Shuningdek, yozuvga yangi yondashuv bilan qaraydi. [6, S. 21]. U yangi istiqbol, maqsad va konsepsiyalar, avvalo motivatsion, rivojlantiruvchi va tajribaga oid tuzilishning yig'indisi desak, xato bo'lmaydi.

Bevosita amaliyotga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, kreativ yozuv psixologik jarayon bilan bog'liq bo'lib, o'rganilayotgan tilga oid musiqani tinglash, tabiat manzarasi yoki bo'lmasa biron-bir san'at asaridan ilhomlanish natijasida matn tuzish tushuniladi. O'tkazilgan tajriba-sinovlar natijasida yozuvning bu turi ta'lim oluvchilarda katta qiziqish uyg'otgani ma'lum bo'ldi. Ya'ni ular ma'lum bir mavzu doirasida emas, balki tinglangan musiqadan ilhom oladilar va turli mazmundagi matn tuzadilar. Natijada talabalarda insho yoki bayon yozish kabi bir xil mavzuda emas, balki turli mavzuda matn tuzish imkoniyati tug'iladi.

Hozirgi kunga kelib, xorijiy metodikada yozuvning bu turiga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan. Germaniyada I.Byotxer, K.X.Shpinner, F.Vinterling, K.Vinter, Rossiyada esa N.G.Kirzina va b. aytib o'tish o'rinlidir. Ulardan farqli ravishda biz kreativ yozuvning matn tuzishdagi o'rniga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, uning boshqa yozuv turlari (avtobiografik, avtomatik, hikoyaviy, obrazli/badiiy, jamoaviy/guruhli yozuv, adabiy, meditativ, o'yinli, utopik (hayoliy/fantastik), ilmiy)dan yuqorida aytib o'tganimizdek, farqi shundan iboratki, ta'lim oluvchilar ma'lum bir mavzu asosida matn tuzmaydilar, aksincha biron-bir vosita asosida, matn tuzishni olaylik, ta'lim oluvchilar biron-bir musiqani mashg'ulot jarayonida tinglaydilar va undan ilhomlanib she'riy misra yoki bo'lmasa matn tuzadilar. E'tiborli jihati, musiqa eshitish jarayonida har bir talabaning hayolidan turli tushunchalar o'tadi. Musiqa ularning ruhiyatiga har xil ta'sir qiladi. Natijada bir-biriga o'xshamagan mavzularda matn vujudga keladi. Bu jarayonda tinglab tushunish vosita va yozuv maqsad vazifasini bajaradi.

Misol uchun, nemis kompozitori Y.S.Baxning "G minor" sonatasini tinglash orqali hayolan Germaniyaga sayohat qilamiz, uning diqqatga sazovor joylari, shuningdek, uning tabiati, salqin ob-havosi, yomg'irli kunlari, yashil o'rmon va tog'lari ko'z oldimizda namoyon bo'ladi va shu bir lahzalik sayohatimizda to'rt tushunchani qayd etamiz. Ular asosida she'riy to'rtlik yozishlari talab etiladi. Misol tariqasida quyidagi to'rtlikni keltirib o'tishni lozim deb topdik:

Türingen, du bist ein Märchenland,
Deine Städte wie Leipzig, Erfurt und Eisenach,
Wo **Lüther** und **Bach** Wunder volbringen,
Locken mich auf **Ewigkeit** an (Sh.Ataev).

She'riy misralarning e'tiborli jihati shundan iboratki, kreativ yozuvda misralarni qofiyalash shart emas, ya'ni bu metodni barcha darajada (A1-S1)gi til o'rganuvchilar uchun qo'llash tavsiya etiladi. Jumladan, she'riy misralarni musiqa orqali nafaqat ta'lim oluvchilar, balki ta'lim beruvchilarga o'z ona tilida ham turli mazmundagi misralarni tuzishni tavsiya qilish mumkin. Misol uchun, Y.S.Baxning musiqasini tinglashda quyidagi misralar yozildi:

Necha kunki yo'q **oromim**, Kelolmayman o'zimga. Kechalari shum **ayollar** Kirib chiqar tushumga. Qo'llarida oq qalamu Dillarida tim qora. Hasta **ko'ngilni** cho'loq deb Qilishadi masxara.	Aslida-chi hasta ko'ngil Yozgan ash'orni, Sog'lom bo'lib u battollar Yozolmaydi hech sira. Nima qilay yozgim kelar, **Kechalari** uxlamay Tangri berdi bu ne'matni Kecholmayman hech sira. (Sh.Atayev).

Albatta, musiqa har kimga turlicha ta'sir qiladi, kimgadir ijobiy, kimgadir esa salbiy va buning oqibatida bitilgan she'r ham o'zgacha mazmunda yaratiladi, ya'ni kreativ yozuvning bu metodi yoshga qarab turli mazmunda bitilishi mumkin. Jumladan, yoshlar ko'proq ijobiy mazmunda misralarni tuzsalar, kattalar esa ko'proq ichlaridagi hasratni yuzaga chiqaradilar.

Talabalardan farqli ravishda, katta yoshdagilar bu metoddan foydalanishda berilgan bir to'rtlik o'rniga ikki va undan ortiq to'rtlikni yozishni afzal ko'radilar. Bu ko'p yillik tajribaning mahsuli, desak xato bo'lmaydi. Demak, chet til o'rgatishning asosiy maqsadlaridan biri – o'rganilayotgan (ona va chet) tilda yozma matn tuza olish malakalarini rivojlantirish yotadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kreativ yozuvni va, umuman olganda, yozuv nutq faoliyat turini nafaqat, filologik, balki nofilologik oliy ta'lim muassasalariga ta'lim maqsadi sifatida o'rgatilishi, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim yuqori va yakunlovchi bosqichlarida chet til (ingliz, nemis, fransuz) fanidan kreativ yozuvga o'rgatish mexanizmlarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Hurriyat XUDOYMURODOVA,
filologiya fanlari nomzodi (PhD)

"KO'ZGUDAGI IKKOVLON" ROMANI POETIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Nodir Normatovning "Ko'zgudagi ikkovlon" romani tahlilga tortilgan. Unda qadriyat, milliylik masalasi yoritilgan, shart-sinov motividan foydalanilgan.*

Kalit so'zlar: *roman, detal, dangona, ko'zgu, motiv.*

Annotation. *This article analyzes Nodir Normatov's novel "Ko'zgudagi ikkovlon". It covers the issue of values, nationality, and used from the conditional test motive.*

Key words: *novel, detail, dangona, mirror, motiv.*

Аннотация. *В статье анализируется роман Нодира Норматова "Двое в зеркале". В ней затронуты проблемы национальных ценностей, использование мотива условного испытания.*

Ключевые слова: *роман, деталь, дангона, зеркало, мотив.*

O'zbek romanchiligi mana salkam bir asrlik tarixiy yo'lni bosib o'tmoqda. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romani bilan ilk o'zbek realistik romanchiligiga asos solgan bo'lsa, shu kunga qadar ushbu janrda yuzlab asarlar yaratildi. O'zbek adabiyoti mavzu ko'lami, shakli, g'oya, mazmuni va poetik tabiatiga ko'ra rang-barang romanlar bilan boyidi. A.Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlaridan so'ng, Cho'lponning "Kecha va kunduz", A.Qahhorning "Sarob", Oybekning "Navoiy", A.Muxtorning "Chinor", O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi", P.Qodirovning "Yulduzli tunlar", O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", M.M.Do'stning "Lolazor", T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar", O.Muxtorning "Ming bir qiyofa", E.A'zamning "Shovqin", X.Do'stmuhammadning "Bozor", U.Hamdamning "Muvozanat" singari romanlari bu janrning naqadar keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Yuqoridagi romanlarning aksariyati mustabid sho'ro davrida yaratilgan. Ammo ular sho'ro davridagi g'oyavozlik, mafkurabozlik asosida yaratilgan boshqa asarlardan keskin farq qiladi.

O'tgan asrning 80-yillar oxiri, 90-yillarning boshlariga kelib o'zbek romanchiligining yangi davri boshlandi. D.Quronovning fikriga ko'ra, "O'tgan asr 90-yillaridan boshlab milliy nasrimiz poetik arsenalida badiiy shartlilik salmog'ining keskin ortishi, ramziy-majoziy obrazlar asosigan qurilgan asarlarning ko'payishi, modernistik izlanishlarning keng ko'lami kasb etishi kuzatiladi".

Aslida 70-80-yillarga kelib milliy adabiyotimizda, xususan, nasrimizda badiiy ifodaning yangi shakl va usullarini yaratish yo'lida izlanishlar kuzatildi. D.Quronov buni yuzaga keltirgan asosiy omillardan biri sifatida quyidagi sababni ko'rsatadi: "Agar 70-yillarning ikkinchi yarmidan adabiyotimizda jamiyatning holati haqida rost so'zni aytishga intilish asosiy tendensiyaga aylangan bo'lsa, oshkoralik sharoitida ushbu missiyani matbuot to'la zimmasiga oldi va ortig'i bilan uddalay boshladi. Endi hayotni nechog'li haqqoniy aks ettirmasin, adabiyotning dolzarblik, haqqoniylik, tahliliylik kabi jihatlaridan publitsistika bilan raqobat qilolmasligi tayin bo'lib qoldi. Xuddi shu vaziyatda badiiy ifodaning adabiyotga o'zligini namoyon etish, o'z o'rnini topish va mavqeyini tiklash imkonini bera oladigan yangi shakl va usullarini topishga qaratilgan ijodiy izlanishlar avj oldi".

70–80-yillar adabiy avlodiga mansub Nodir Normatov ijodining dastlabki davridayoq yangicha poetik izlanishlarga qo'l urdi. Xususan, "Bir kuni chumoli bo'lib..." hikoyasida badiiy shartlilik vositasidan foydalanib, o'zbek adabiyotida xayoliy-fantastik asar namunasini yaratdi. "Bisot" qissasida insonning ichki qalb kechinmalarini ifodalashda psixologizmdan mohirona foydalangan bo'lsa, "Daraxt tagidagi odam"da mifologik qarashlar, o'zbek folkloridagi shart-sinov, badiiy shartlilik vositasi orqali o'z badiiy niyatini ifodaladi.

Nodir Normatov ijodiy izlanishlarda o'sib bordi. U 90-yillarning boshlarida ilk romani "Barigal"ni yaratdi. Yozuvchining o'zi bu asari haqida shunday fikrlarni bayon etadi: "Navbatdagi kitobim "Barigal" romani 1991-yilda "Kamalak" nashriyotida bosilib chiqdi. Ungacha kitob qo'lyozmasi Yozuvchilar uyushmasida Said Ahmad boshchiligida muhokama qilindi. Asar ma'qul topilib, "Sharq yulduzi" jurnaliga tavsiya etildi. Romanning nomiga Said Ahmad e'tiroz bildirdi: nomi sal yengil, boshqa nom topsang. Ustoz betob bo'lib, qo'lyozmani o'qiy olmagan ekanlar. Asar nomini o'zgartirmadim. "Barigal" – xorazmcha qo'shiq, uning o'z tarixi bor. Barigal – bu, beri kel degani. Ko'ngliga chorlayotgan inson obrazi meni ko'pdan beri qiziqtirib keladi. Xudbinlik yuz tutgan ayrim zamonamiz kishilari uchun bu ulug' malham. Asar ko'lami keng: voqealar Surxondaryo, Toshkent, Sankt-Peterburgda kechadi. Muhokama chog'ida Usmon Azim, Erkin A'zam, Asad Dilmurod romanni to'la ma'qullab gapirishdi, faqat ozroq qisqartirishni maslahat berishdi".

Bu borada Ibrohim G'afurov shunday yozadi: "Yozuvchi, san'atshunos, xalq amaliy san'atining bilimdoni Nodir Normatovning "Barigal" romani o'tgan asrning ayni qayta qurishlar qizigan va milliy davlatlarning mustaqillik qozonish harakatlari avjiga ko'tarilib, hal qiluvchi pallaga kirgan 1989–1990-yillarda qog'oz betiga tushib, 1991-yilda nashrdan chiqib, o'quvchilar qo'liga borib yetgan...

... Nodir asarning birinchi nashridan yigirma yil o'tib, uni qayta chiqarishga va ayni hozirgi o'quvchilarga "Ko'zgudagi ikkovlon" nomi bilan taqdim etish fikriga tushdi va bunga tayyorgarlik ko'rishga kirishdi. Tayyorgarlik deganimiz shuki, yozuvchi bu asarga yangi boblar qo'shdi, qahramonlar hayotini to'ldirdi, yangi chiziqlar bilan boyitdi. O'ziga zerikarli bo'lib tuyulgan o'rinlarni juda diqqat bilan tahrirdan o'tkazdi".

"Ko'zgudagi ikkovlon" romani o'zining badiiy mohiyati va kompozitsion tuzilishida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Roman uch qism va ularning har biri nomlangan alohida

boblardan tashkil topgan. Bu kompozitsion shakl A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romaniga hamohang. Har bir bobda muayyan voqelik, qahramon taqdiri hikoya qilinib, ular yaxlit holda romanning umumiy sujet liniyasini tashkil etadi. Romanda bir necha qahramon hayoti, o'y-fikrlari, xayollari, orzu-armonlari, dard-u quvonchlari, tafakkuri, kechinma va tuyg'ulari bilan bog'liq voqealar tasvirlanadi. Garchi asar markazida asosiy bosh qahramonlar mavjud bo'lsada, hikoya qilinayotgan voqealar rivoji faqatgina ularning faoliyati bilangina emas, balki bir necha qahramonlarning ruhiy holati, ko'rgan kechirganlari, xotiralarining badiiy talqini orqali tasvirlanadi. Yozuvchining badiiy niyati insonning chigal, achchiq taqdirini tasvirlash orqali, oddiygina ko'ringan, lekin aslida ayanchli va noxush oqibatlar, fojialarga sabab bo'ladigan voqealarning ildizlarini ko'rsatib berishdir. Romanda bir necha tugun, jumboqlar berilganki, ular asar voqeligi davomida ochilib boradi. Adib ularning yechimini birdaniga ochmaydi. Ularda dedektiv ruh, ohang yetakchilik qiladi. Bu usul kitobxonni o'ziga ergashtiradi, qiziqtiradi. Roman voqeligi Surxondaryo, Toshkent va Leningradda kechadi. Asosiy voqelik Pana qishlog'ida bo'lib o'tadi. Pana Surxonning ko'hitang tog'oldi qishloqlaridan biri. Albatta, bu ramziy, adabiy makon uchun o'ylab topilgan nom. Nodir Normatovning barcha asarlariga adabiy makon sifatida o'zi tug'ilib o'sgan, bolaligi kechgan ko'hitang tog'oldi qishloqlarini tanlaydi. Ular asarlarida turlicha nom bilan atalsa-da, yaxlit holda bir makonni bildiradi. Boshqa asarlarida bo'lgani singari "Ko'zgudagi ikkovlon"da ham bu yerda yashovchi odamlarning turfa tabiati, urf-odat va an'analari aks etadi. Pana qishlog'ida azaldan dangona o'tkazilib kelinadi. Romanda ana shu dangona asar voqealari rivojini harakatlantiruvchi vosita vazifasini bajargan. Aslida, dangona o'zbek xalqining eng qadimiy an'analaridan biri hisoblanib, u hozirga qadar saqlanib kelinadi. Dangona – ommaviy hashar. Asosan, dangonada odamlarning og'ir yumushlari, uy qurish, tom suvash kabilar qishloq ahli tomonidan birgalikda bajarilgan. Dangonadan so'ng o'yin-kulgu, bazm uyushtirilgan. Dangona faqat shu bilan cheklanmaydi. Dangonada qishloqning ariqlari qazilgan, qabristonlari tozalangan, yolg'iz keksalarning uylari ta'mirlab berilgan. Bunda qishloq ahli bularni o'zaro hamjihatlikda bajargan. To'y-ma'raka, sayl va bayramlar ham ahillikda o'tkazilgan. Sobiq sho'rolar tuzumi davrida dangonaga ham boshqa qadriyat, udumlar singari eskilik sarqiti sifatida qarab kelingan.

"Ko'zgudagi ikkovlon"da dangona sabab asar qahramonlarining taqdiri o'zgarib ketadi. Dangona asar qahramonlarini, sujetini bir-biriga bog'lab turadi. Asar so'ngiga qadar dangona voqealar markazida turadi.

Romanning bosh qahramonlari Umar va Malika. Ular bir-biriga ko'ngil berib oila qurishgan, bir nafar farzandi bor. Ammo dangona sabab ularning oilasi parchalanib ketadi. Albatta, bu ularga bog'liq bo'lmagan jarayon. Dangona Pana qishlog'ining qon-qoniga singib ketgan udum. Zamon bobo dangona uning otasi Juma tabib tufayli qishloqda to'xtab qolganligini o'g'li Umarga aytib beradi. Yigitlik chog'ida uzoq yurtlarda musofirchilikda yurgan, hindistonlik Hoja qo'lida tahsil ko'rgan Juma qishlog'iga tabib bo'lib qaytadi. U hukumatga qarshi bo'lgan bir buxorolik musofirni davolagani uchun, undan dangonada davlatga qarshi bo'lgan gaplarni aytgan kishilar xabarini yetkazish shartini qo'yishadi. U tufayli qishloqda ko'p odamlar qamoqqa olinadi, dangona to'xtatiladi. Keyinchalik Umarning otasi ham dangonani boshlab yuborgani uchun uch yilga Sibirga surgun qilinadi. O'limi oldidan Zamon bobo Umarga dangonani tiklashini vasiyat qiladi.

Malika bolaligidan dangonaga nisbatan nafrat bilan ulg'ayadi. Chunki dangona ular oilasining taqdiriga o'zining salbiy ta'sirini qoldirgan. Uyida dangona bo'lgan kecha uning onasini bir cho'pon nomusiga tegadi. Bu voqeadan xabar topgan otasi o'sha cho'pondan qasdini olib, qamalib ketadi. Shu voqea uning dangonadan nafratlanishiga sabab bo'ladi. Umar dangonani tiklamoqchi bo'lganida, u shart qo'yadi. Agar dangonani tiklasa, uydan bosh olib ketishini aytadi.

Umuman, N.Normatov ijodida shart-sinov motivi ko'p uchraydi. O'zbek xalq ertak va dostonlarida keng qo'llaniladigan shart-sinovdan adib badiiy ifoda shakli sifatida foydalanadi. "Muqaddas baliqlar egasi"da ham Munira eri O'tamurodga shart qo'yadi. U Karim choldan kechirim so'rasa, uydan ketishini aytadi. "Daraxt tagidagi odam"-da ham Esonboy kumush yong'oqqa egalik qilish uchun ma'lum bir shartlarni bajarishi kerak bo'ladi. Mana shu shartlar sababli asar qahramonlari sinaladi.

Umar otasining vasiyati sabab dangonani tiklashni istaydi. Umar va Malika oilasiga darz ketadi. I.G'afurov ta'kidlagandek, "Umar dangona uchun harakat qiladi-yu, lekin negadir oilasini saqlab qolishga hech urinmaydi. Dangona qimmatli bo'lganda, yoshgina o'g'il farzand topayotgan oila va farovonligi, yashovchanligi qimmatli emasmi, degan savol tug'iladi. E'tiqod oiladan zo'rroqmi? Qolaversa, dangona bunchalar keskin xatti-harakatlar qilishga sazovor bir narsa ham emas-ku, aslida. Lekin "Ko'zgudagi ikkovlon" qahramonlari shunday qaraydilar-da, biz ularga nima deya olamiz? Bizningcha, asl sabab er-xotin o'rtasida ko'ngil soviganda, ko'ngilsizlikning rohatsizligida. Ammo er-xotin buni aslo tan olmadilar va hatto, bu haqda fikr yuritmaydilar ham".

I.G'afurovning fikrlariga qo'shilish mumkin. Oila ham muqaddas qadriyat. Ayniqsa, Sharq xalqlarida oilani asrab-avaylash, uni muqaddas bilish, saqlashga katta e'tibor berilgan. Oilada farzand tarbiya topadi. U kelajak davomchisi, millatning ertasi. Afsuski, Umar va Malikaning g'ururi, or-nomusi, o'jar va qaysarligi, atrofidagi odamlarning gap-so'zlari tufayli bir oilaning parchalanishiga sabab bo'ladi. Adib Umar va Malikaning xayoliy suhbatlari orqali ularning ichki kechinmalarini ochib beradi:

"Nega shunday ish bo'ldi, hali ham aqlim yetmaydi, Malika? Men seni hali ham yaxshi ko'raman, jonim. It bo'layin aldayotgan bo'lsam. Har kecha tushlarimga kirib chiqasan. Biz endi yarashishimiz kerak. Boshqa gap yo'q. Men sensiz, seni mensiz yashaging yo'q, axir. Buni yuragim sezib turibdi, axir Malika!" – derdi uning ko'ngli.

"Jonu jahonim, men axmoqman, men o'jar ayolni kechiring. Ko'p tashvish tortmang. Men siznikiman, axir!" – Umar Malikaning muloyim boqib turgan ko'zlaridan ana shunday fikrlarni o'qib, yuragi hayajondan battar dukurlab ura boshladi.

Ular xayolan suhbatni davom ettirishdi:

"Balki siz meni uyga olib ketarsiz"

"Bunday qila olmayman, Malika. Sen o'zing uydan bosh olib ketgansan. Endi o'zing qaytib kel. Shunda to'g'ri bo'ladi".

"Balki meni yaxshi ko'rmassiz... Shuning uchun..."

"Yo'q, Malika. Ko'nglim senda. Ammo o'zing uyga qaytib kel. Men borib seni olib kelmayman".

"Men uyga qaytib kelar edim. Ammo nimadir meni ushlab turibdi".

"Nima ekan u bir nima?"

"O'zim ham bilmayman. Balki shaytondir. Shuning uchun menga: qani oldimga tush, uyga yur", desangiz, yaxshi bo'lar edi".

"Qanday aytaman? Odamlar xotinini yalinib, uyga olib keldi, deyishadi. Panada qanday bosh ko'tarib yuraman. Sen yaxshisi, o'zing, o'zing odamlar ko'z o'ngida "mana men o'zim ketgan edim, o'zim qaytib keldim" deganday kirib bor hovliga".

"Shunday qilay deyman-u, kuchim yetmayapti o'zimga".

"Kuching yetishi uchun nima qilay?"

"O'sha ... gap... Dangonadan voz kecching ..."

"Bunday qila olmasligimni yaxshi bilasan... Otam vasiyati. Bobomning isnodi... bor. Shuni yuvish uchun ham vasiyatni ado etishim kerak".

"Men-chi? Meni o'ylamaysizmi? So'rang, ishimda qanchalar gap bor?.."

"Ayt, nima gaplar?"

"Yo'q... Men aytolmas ekanman... Aytolmayman..."

"Sen ichingni ayta oladigan kun kelar, Malika".

"Bilmayman. Bilolmayman ichimni".

Garchi ular bir-biri bilan yarashishga urinsalarda, bu yo'lda qat'iyat, jur'at yetishmaydi.

Romanda Qorajon obrazi kiritilgan. U asarning ayrim o'rinlarida ko'rinadi. Malika bexosdan Qorajonni hammomda ko'rib qolib, unga xayolan oshiq bo'ladi, u bilan birga bo'lishni istaydi. U asar so'nggida Qorajonni o'zi bilan birga bo'lishga erishadi va Umarga xiyonat qiladi. Aslida Malikaning Qorajonni ilk bora ko'rgan paytida uning qalbida siniqlar, darz paydo bo'lgan edi.

"Ko'zgudagi ikkovlon" romanida ko'zgu muhim detal vazifasini bajarib kelgan. Asar avvalida Umarning onasi tilidan ko'zgu haqidagi afsona beriladi. N.Normatov ijodini kuzatsak, u badiiy niyatini ifodalash uchun mifologik unsurlar, folklor elementlari, afsonalardan foydalanishini kuzatamiz. Bu Chingiz Aytmatov ijodidagi badiiy ifoda uslubini yodga soladi. Xususan, "Oq kema" qissasi va "Asrga tatigulik kun" romanida adib afsonalardan keng foydalanadi.

Nodir Normatov romanga olib kirgan afsona asarning badiiy jihatdan to'laqonli chiqishini ta'minlagan. Bu afsona asar qahramonlari taqdiriga daxldor. Shu o'rinda asarda keltirilgan afsonani keltirishni o'rinli deb bildik: "Qadimda bir yigit bo'lgan ekan. O'zimizning Panada yashagan ekan. Shu yigit oynasozlikni o'rgangani Hindistonga boribdi. Bir oynasoz ustaga shogird tushibdi. Uning bir qizi bo'lar ekan, o'sha yigitga oshiq bo'libdi. Yillar o'taveribdi. Usta yigitga oynasozlik sirini o'rgatmabdi, aldab yuraveribdi, qizini ham bermabdi. Kunlarning birida o'sha qiz yigitga ustaning sirini aytibdi, keyin unga o'zini yoqishini, jismidan qoladigan kuldan oyna yasashni yigitdan iltijo qilib so'rabdi. Yigit avvaliga qizning bu gapini chin deb o'ylamabdi. Qiz o'zini chindan yoqqanini ko'rib, zor-zor yig'labdi, uning kulini olib, loyga qo'shib sehrli oyna yasabdi. Shu oynaga, unda ko'rinib turadigan qiz aksiga bag'ishlab, "Barigal" qo'shiqini to'qibdi".

"Ko'zgudagi ikkovlon" romani leytmotivini "Barigal" xalq qo'shig'i tashkil etadi. Asarning dastlabki nomi ham "Barigal" bo'lgan. Butun roman davomida bu qo'shiq ohangi yangrab turadi. Umarning otasi Zamon bobo ham bu qo'shiqni doimo tinglaydi. Agar bu qo'shiq matniga nazar solsak, unda suyukli yorga murojaat qilinganligiga guvoh bo'lamiz:

Sansan manim dilbarim, bari gal,
Jonimni jononasi, bari gal!
Dardimni darmonasi, bari gal!
Bari gal, bari gal, bari gal,
Jonimni jononasi, bari gal!

Bir qarashda bu qo'shiqning roman voqeligiga nima aloqasi bor degan haqli savol tug'ilishi mumkin. Sog'inch azobidan iztirob chekayotgan oshiq ma'shuqasini o'z oldiga chorlaydi. Romanda u dangona singari muayyan vazifa bajargan. Avvalo, bu xalq qo'shig'i. Unda xalqning dardi, orzu-armonlari mujassam. Bizningcha, bu qo'shiq ham dangona singari sho'ro siyosati fojialaridan zada bo'lgan odamlarning bir-biriga yaqin, hamjihat bo'lishga chorlaydi. Odamlarning yashash tarzi, birdamligi, an'ana va qadriyatlari, orzu-armonlarini ifoda etadi.

Ko'zgu asarda muhim funksiyani bajaradi. Ko'zgu afsonasidagi voqelik real olamga ko'chiriladi. Umarga xiyonat qilgan Malika bu yuzsizlikdan qutulish uchun o'ziga o't qo'yadi. Xuddi afsonadagi qiz singari. Asarda ko'zgu ma'lum bir vazifa, missiya bajaradi. I.Yoqubovga ko'ra, "ko'zgu detali ushu roman matnida polifunksional tabiatga ega. Zotan, bu detal barcha harakat, portret, peyzaj, maishiy turmush, hayotiy vaziyat-holat, ruhiy kechinmalarni umumlashtiradi, kitobxon diqqatini yo'naltiradi va unga ishontiradi.

Umuman, Nodir Normatov uslubida voqealarni shunchaki tasvirlash, bayon etishdan ko'ra, uni xuddi rassom singari chizish, inson kechinmalarini, o'ylarini badiiy aks ettirish yetakchi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Mustaqillik davri O'zbek romanchiligida badiiy ifodaning yangilanishi / Adabiy o'ylar. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016. 11-bet.
2. O'sha manba. 12-bet.
3. G'afurov I. Ko'ngil koshonasiga sayrlar / Normatov N. Kuzgudagi ikkovlon. Roman. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. 3-bet..
4. O'sha manba. 6-bet.
5. Normatov N. Ko'zgudagi ikkovlon. Roman. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. 11-12-betlar.
6. O'sha manba. 106-107-betlar.

Vazira IBRAGIMOVA,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi
Ziyo media markazi katta muharriri

BADIIY PUBLITSISTIKADA TUYG'ULAR TASVIRI

Har bir ijodkor so'z sehri, jozibasini ko'rsatishda badiiy tasvir vositalari, ma'no ko'chish usullaridan foydalanadi. Ular asar jozibasini ko'rsatish va ijodkor mahoratini namoyon etishga xizmat qiladi. Tasviriy vositalar yordamida narsa-hodisalarning ba'zi bir tomonlari, alohida belgilarini aniq va qisqa xarakterlab berishga erishiladi.

"O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi sahifalarida e'lon qilinadigan badiiy publitsistik materiallar – esse, ocherk, badia, yozuvchi maqolalarida tasviriy vositalar, usullardan keng foydalaniladi. Ularda badiiy adabiyot unsurlari ko'zga tashlanadi. Shu sabab ham adabiyotga ixtisoslashgan nashrlarda biz bu turdagi materiallarga ko'p duch kelamiz.

Jumladan, O'zbekiston xalq shoiri Oydin Hojiyevaning "Ohanrabo"[1] sarlavhali essesi xalqimizning ardoqli shoirasi Zulfiyaxonimga bag'ishlangan. Ma'lumki, esse tili obrazliligi, jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Esse orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga nisbatan subyektiv fikr bayon qilinadi.[2] Shuningdek, "bu janr yozuvchiga behad keng erkinliklar beradi: o'z ko'nglida tug'ilgan qandaydir his-hayajonini ham, hatto shaxsiy mulohazalarini ham bemalol yozish imkonini beradi"[3]. "Ohanrabo" essesi ham xuddi shunday erkin usulda, samimiy tilda yozilgan. Matnda murakkab jumlalar deyarli uchramaydi. O.Hojiyeva shoira Zulfiya bilan birga ishlagan yillarini yodga oladi, uning go'zal fazilatlaridan so'zlaydi. *"Ustoz Zulfiyaxonimning mehrigiyosi, ohanrabosi bor edi. Bir marta uning suhbatida bo'lgan kishi shoiraning mehr-u muhabbati, o'zgacha salobati, ulug'vorligiga maftun bo'lar, bu dilkash inson bilan uchrashuvni umrbod eslab yurardi. Uning jo'shqin, o'ktam ovozi dunyo minbarlarida o'zbekning shon-u shavkatidan so'ylagan, Sharq she'riyatining sehr-u jozibasi bilan jahon ahliga oshno bo'lib qolgan edi".* Esse boshidanoq o'quvchi ko'z o'ngida shoira Zulfiya salobati, ulug'vorligi namoyon bo'ladi. Va bu figura esse oxiriga qadar ulkanlashib boraveradi.

Shoira shaxsiyatidagi oqillik, kamsuqumlig-u kamtarlik, atrofdagilarga, ayniqsa, opa-singillarga, qizlarga nisbatan mehribonlik xislatlari uning siymosini yanada maftunkor qiladi.

Mazkur essedagi uslubiy o'ziga xoslik sodda va ravon tuzilgan so'zlarda namoyon bo'ladi. Muallif o'xshatish, metafora, metonimiya, obrazli birikmalardan o'z o'rnida foydalanganki, ular esse tilini yanada go'zal, jonli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlagan. *"Turkiston" saroyining munaqqash ustunlarini jaranglatib buyuk hayajon bilan o'qilgan she'r – "sakson yil lovullab so'nmagan o'tning" tafti ona xalqimizning ko'nglida yana bir karra istiqlolga sadoqat chiroqlarini yoqdi",* yoki *"Zulfiyaning bog'larida navqironlik, mehr-muhabbat, sadoqat, nafosat, Vatanga so'nmas e'tiqod chechaklari ochilaveradi. Bu bog'lar xazon bo'lmaydi..."* jumlalarida muallif metafora usulidan foydalangan.

"Ohanrabo" essesida Oydin Hojiyevaning shoira Zulfiyaga bo'lgan shogirdlik hurmati, haqiqiy Ayolga bo'lgan ehtiromi bo'y ko'rsatadi. Esse mehr, samimiyat ruhida yozilgan. Shu jihatdan ham u o'quvchini ta'sirlantiradi, ortiqcha qiyinchiliksiz o'qiladi.

Tilimizda *esse* va *badia* – o'zaro teng ma'noni ifodalaydigan sinonim hisoblanadi va badiiy-publitsistikaning bir janrini bildirishdan boshqa ma'no tashimaydi. *Badia* – tilimizga arabchadan o'tgan so'z. Tilimizda bu o'zakdan yasalgan so'zlar ko'p ishlatiladi: *badiiy* (adabiyot, tasvir), *badiiyat* (poetika), *bid'at* (dinga o'rinsiz yangilik olib kirish). Badiaga kishining diqqatini tortadigan badiiy asar, deb ham ta'rif beriladi[4]. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" sahifalarida badia rukni ostida berilgan materiallarni kuzatish asnosida ko'rdikki, ularda essega xos xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Badia va esseni almashtirib ishlatish birgina ushbu gazeta faoliyatida emas, balki ko'pgina adabiy-badiiy nashrlar faoliyatida ham ko'zga tashlanadi.

Gazeta sahifalarida o'zining materiallari bilan doimiy qatnashib turuvchi faol ijodkor Halima Ahmedova ko'pgina esse, badialar muallifi. Shoira nazm va nasrda barakali ijod qilishi bilan birga publitsistikada ham faol qalam tebratadi. U esse, ocherklar orqali o'z fikrlari, o'y-xayollari, tuyg'ularini badiiy bo'yoqlardan unumli foydalangan holda sodda va samimiy, muhimi, ta'sirchan tarzda ifoda etadi. Shoiraning "Quyoshli xotiralar" badiasi[5] "Minor" qabristonidan abadiy qo'nim topgan insonlar xotirasiga bag'ishlangan. Ular Omon Muxtor, Normurod Narzullayev, Shuhrat domla, Yahyo G'ulomov, O'lmas Umarbekov... qo'yingki, o'zbek adabiyotining zabardast va azim chinorlariga atalgan. Qadrdon xotiralar og'ushida muallif sodda, dilkash, ammo qalban buyuk ijodkorlar bilan o'tgan damlarni esga oladi, suhbatlarini xotirlaydi, ular bilan xayolan tillashadi. Ular adadiy qo'nim topgan joyda tug'ilgan taassurot, mahzun va ma'sum xotiralarini go'zal va ta'sirchan tarzda qog'ozga tushirar ekan, badiiy tasvir vositalaridan mohirlik bilan foydalanadi. Shu sabab ham badia tili ravon va tekis, samimiy. Badia bolalik xotiralari, qabristonga kiraverishdagi manzaralar bilan boshlanadi. *"Kiraverishdagi yo'lakning chetida boshini o'tganlar haqqi hurmati mangu egib olgan keksa majnuntolni yaxshi taniyman. Uning chilvir sochlaridan mangulikning hidi keladi. Va yana bu yerda yotgan shoirlarning yozilmay qolgan she'rlarining to'lqini bor uning kokillarining titroqlarida..."* Manzara tasvirini berishda shoirona ifoda ta'sirchanlikni yanada oshiradi. *Boshini o'tganlar haqqi hurmati mangu egib olgan majnuntol* timsoli ko'z oldimizda go'yoki qadrdon kishisidan ayrilib, qayg'u-alamga botgan, g'am yukidan boshi quyi egilgan inson obrazini gavdalantira-

di. Majnuntolning shoxlari chilvir sochlarga qiyoslanadi, kokillarida hali tug'ilmagan she'rlarning titrog'i bordek tuyuladi. Ma'no ko'chimlaridan unumli foydalanilgan bu o'rinda biz ko'chimlar obrazlar xarakterini yorqin ochib berishda, asar joziba kuchining oshishida nihoyatda muhim o'rin tutishiga amin bo'lamiz. Muallif Omon Muxtor qabri qoshida u bilan o'tgan damlarni, shoirga xos yuksak fazilatlarni yodga oladi. Xotiralardan ko'ngli "issiq mehrga", "ismsiz sog'inchga" to'lganini his etadi. *"Qushlar biri qo'yib, biri sayrar, anvoyi daraxtlarning yaproqlari ilohiy oyatlarni takrorlayotgan kimsaday sirli shivirlardi".* Ijodkor nazdida, daraxt yaproqlari kishi ruhiga taskin beruvchi, halovat ulashuvchi hayotbaxsh oyatlarni pichirlab o'tirgan kimsa kabi shivirlamoqda. Bu shivirlar – ilohiy oyatlar esa jism-u tan mangu qo'nim topgan qabrlar ustiga yog'ilmoqda. *"Aziz insonlarning ziyoratiga shoshilarkanman nogahon oppoq atirgullar ichidan kimdir menga tikilgandek bo'ldi. Burilib qaradim. Ne ko'z bilan ko'rayki, Normurod Narzullayev o'sha atirgullar ichidan jilmayib boqib turardi..."* Muallif bu o'rinda metonimiyadan ustalik bilan foydalanadi. Gap avvalida o'quvchida go'yo shoir Normurod Narzullayev chindan ham unga kulib qarab turgandek taassurot uyg'onadi. Biroq keyingi o'rindagi *"U menga: " – Ha, qo'lga tushdingmi, meni ko'rmay o'tib ketmoqchi edingmi?", deya hazillashayotgandek edi. Ortimga qaytdim-da, ustoz qabri yonidagi o'rindiqqa o'tirib oldim"*, deydi. Muallif nazdida shoirning qabri uni o'zi kabi kulib kuzatib turgandek go'yo. Uning yoniq she'riyati, tiynatidagi bosiqlik, bag'rikenglikni yodga oladi, shoir bilan kechgan voqealarni bir-bir xayolida jonlantiradi.

Ulug' insonlar xoki yotgan muqaddas makon ziyoratidan ruhi yengil, qalbi osoyish tortib chiqqan shoira *"quyosh qulog'imga sekin shivirladi:*

– Bular Vatanning ildizlari", – deya so'zini yakunlaydi.

"Quyoshli xotiralar" badiasidagi tasviriy vositalarning ishlatilishi, so'zlarning obrazli, ko'chma metaforik qo'llanishi orqali muallifning o'ziga xos uslubi ham ko'zga tashlanadi. Muallif uslubida esa uning mahorati yuz ko'rsatadi. Majnuntolning chilvir sochlaridagi mangulik hidi, kokillarning titroqlari, ilohiy oyatlarni takrorlayotgan yaproqlar, shivirlayotgan quyosh timsollari orqali she'riyatga oshufta ijodkorning latif qalbi bilan yuzlashgandek bo'lamiz.

Esse janrida muallif uslubining namoyon bo'lishini kuzatish, badiiy tasviriy vositalardan foydalanish mahoratini turli ijodkorlar ijodini qiyosiy o'rganib amin bo'ldikki, ijodkorlarning, xoh yozuvchi, xoh shoir bo'lsin, badiiy mahorati va individual uslubi bir-birini takrorlamagani singari, ular yaratgan esselarning har birida turli-tuman fe'l-atvor, ma'naviy-intellektual saviya, betakror va o'ziga xos xarakterlar tasvirlanadi. Oydin Hojiyevadagi ravonlik va samimiyat, Halima Ahmedovadagi shoirtabiatlik va hissiyotga beriluvchanlik orqali muallif uslubini ko'ramiz, oz bo'lsa-da, ijod laboratoriyasi bilan tanishamiz. Badiiy-tasviriy vositalardan foydalanishda esa ijodkor mahorati namoyon bo'ladi. Ijodkorlarning tili, uslubi bilan bir-biridan farqlanuvchi materiallari o'y-fikrlar, mulohazalarning erkin tarzda ifodalanishi, kitobxon bilan jonli muloqotga kirishish kabi unsurlari bilan umumiylikni hosil qiladi.

Har qanday ijodkorning badiiy mahorati u yaratgan badiiy asarlar tilida namoyon bo'ladi. Adibning hayotdagi voqea-hodisalarga munosabati, o'ziga xos dunyoqarashi, teran mulohazaviy idroki, tabiatdagi boshqalar ko'ra olmagan ranglarni nozik his etishi hamda uni go'zal shaklda kitobxonga yetkazib bera olishi va yana ko'pgina boshqa jihatlar birgalikda badiiy asarning jozibadorligini tashkil qiladi. Bunda, albatta, ijodkorning xalq tilini chuqur bilishi, cheksiz so'z boyligiga ega bo'lishi, so'zning ta'sir qudratini his eta olishi, har bir so'zni ma'no nozikliklarigacha ilg'ab olishi, so'z o'yinlaridan ustalik bilan foydalana olishi alohida o'rin tutadi.

[1]O.Hojiyeva. Ohanrabo. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 2014-yil 9-son.
[2]Wikipedia.org
[3]Sh. Xolmirzayev. Esse – erkin ijod. www.ziyouz.com.
[4]"O'zbek tilining izohli lug'ati", 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006-yil. 134-bet.
[5]H.Ahmedova. Quyoshli xotiralar. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 2014-yil 19-son.

Kumushbibi ERMAMATOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil izlanuvchisi

TELEVIDENIYEDA DIALOG JANRIDAGI MUALLIFLIK KO'RSATUVLARINING TIL VA USLUB IMKONIYATLARI

Jurnalistikada janrlar klassifikatsiyasida dialog janrlar guruhi alohida o'rin tutadi. Intervyu, suhbat, tok-shou kabi janrlar o'zida muloqotning u yoki bu shaklini aks ettiradi. Ularning har birida jurnalist o'ziga xos til va uslub imkoniyatlaridan foydalangan holda dastur tayyorlashi mumkin.

"Intervyularning barchasi uchun umumiy qoidalar mavjud. Avvalo, bosh rolni o'ynayotgan aktrisadan "Siz

qaysi rolni ijro etyapsiz?" deb so'rab, mulzam bo'lib qolmaslik"[1] uchun jurnalist intervyuga puxta tayyorgarlik ko'rishi lozim.

Intervyuda mavzu masalasi alohida o'rin tutadi. Ya'ni u orqali yoritilayotgan mavzu jamiyat uchun dolzarb bo'lishi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi, o'quvchilarning qiziqishini uyg'ota olishi kerak. Buning uchun esa jurnalistdan ziyraklik, kuzatuvchanlik talab qilinadi. Sodir bo'layotgan voqea-hodisalar orasidan eng ahamiyatlilarini ajratib, bu haqda ma'lumot bera oladigan zarur shaxslarni topish va ularni muloqotga chorlash intervyuning asosiy talablaridan biridir.

Intervyuda faktlarning aniqligi va haqqoniyligiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun esa aniqlashtiruvchi, masalani yanada kengroq ochib beruvchi savollar bilan murojaat qilish zarur. Shu bilan birga, bu savollar o'z vaqtida berilishi hamda ularga kerakli javoblar olinishi zarur.

Intervyu olish jarayonida o'zaro ishonchsizlikka asoslangan ziddiyatli usul, ijtimoiy mas'uliyat hissidan kelib chiquvchi elitar usul va hamkorlik usulidan biri qo'llanilishi mumkin.[2]

Intervyuga qo'yiladigan asosiy talablardan yana biri – qisqalik va lo'ndalikdir. Intervyu janrida tayyorlangan materiallarda savollar mazkur ikki xususiyatga ega bo'ladi. Aniq javobni ko'zlab berilgan aniq savollar axborotning barcha uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. E.Fixtelius fikricha, atroflicha idrok qilingan, qisqa, lo'nda va jo'n savollar eng yaxshi savollardir.[3]

Intervyu axboriy va hajman kichik janr bo'lsa-da, kerakli axborotlarni tezkorlik bilan olish, qayta ishlash va uzatish uchun eng qulay janrlardan biri. Chunki "intervyuning olingan va chop etilgan vaqt oralig'i, iloji boricha, qisqa bo'lishi kerak".[4]

Intervyu ham boshqa janrlar singari uch tarkibiy qismdan iborat: kirish (lid) – odatda, qisqa bo'ladi; asosiy qism – savol-javoblardan tashkil topadi; xulosa – bugungi kunda bu qismni ko'pincha jurnalistlar keltirib o'tmaydilar, uning o'rniga "Kelajakdagi rejalaringiz haqida gapirib bersangiz", "Yana qanday loyihalar amalga oshirilishi kutilyapti?" kabi yakunlovchi savollar bilan tugatishadi. Ammo teleko'rsatuvlar orasida noodatiy uslubda tayyorlanadigan intervyularni ham kuzatish mumkin. Jumladan, "O'zbekiston" telekanali orqali efirga beriladigan "Ko'ngil obodligi" dasturida boshlovchi va muallif Saodat O'rmonova o'z ko'rsatuvi qahramonlaridan noodatiy tarzda intervyu olishga harakat qiladi. Qahramonlarni ba'zan lolaqizg'aldoqlar orasida ko'ramiz, ba'zida o'z sohasiga aloqador bo'lgan joylarda ko'rish mumkin. Ko'rsatuvlarning (19.02.2018) birida[5] ko'pgina mashhur o'zbek filmlarida mexanik assistent sifatida ishlagan Erkin Sodiqov bilan suhbat efirga uzatilgan. Muallif dastur boshida qahramonini tanishtirmaydi. Neytral so'zlar bilan "ko'ngillarga obodlik ulashib kelayotgan" insonning hayot yo'llariga nazar tashlashini aytadi. Shundan so'ng qahramon qaysi filmlarda ishlagani haqidagi qisqa intervyu beriladi. Keyin muallif kadr ortidan qahramonini, uning suratlari, ism-familiyasi ekranda namoyon bo'lgan holda tanishtirib o'tadi. Ayrim ko'rsatuvlarida muallifning o'zi kirish so'zlarini stend-ap da aytadi. Ko'rsatuvning asosiy qismida esa muallif ko'rinmaslikka harakat qiladi. Ammo o'zining ishtirokini va suratga olinayotgan jarayonlarda mavjud ekanligini ko'rsatish maqsadida o'zi ko'rinmagan holda savollar bilan qahramoniga murojaat qiladi. *"Siz endi ham aktyorlikni ham boshizdan kechirganakansiz-a? Siz ham tasvirchilik tajribasiga ham egasiz. Qaysi biri qiyinrog'akan? Tasvirchi bo'lishmi, aktyor bo'lishmi?"* deya birinchi savolini beradi. Savollarni berishda muallif ko'proq so'zlashuv uslubini qo'llayotganini ko'rish mumkin. Shu sababli keltirilgan birinchi savolda "ham" so'zining takror qo'llanayotganiga guvoh bo'lish mumkin. Keyingi savolda ham shevadan foydalanilganini ko'ramiz: *"Qaysi dovlatlarga borgansiz?"*. Suhbatdosh bilan bu kabi so'zlashuv uslubida muloqotga kirishish bir tomondan, muloqotning tabiiy va oson kechishiga xizmat qiladi, ammo kadr ortida yozib tayyorlangan matn adabiy til me'yorlariga mos, badiiy elementlarga boy bo'lgan vaqtda so'zlashuv uslubida berilayotgan savollar maqsadga muvofiq emas, nazarimizda. *"O'zizzi qo'ygan filmizdayam kamchilik topasizmi?"* deya keyingi savolda muallif g'alizlikka yo'l qo'yadi. Suhbatdosh kamchilik topishini bildirganidan so'ng *"Masalan, qaysi kamchiliklarni topgansiz?"* deb uning javobidan kelib chiqib yana savol bilan murojaat qiladi.

"Первый" kanali orqali kechki soatlarda efirga uzatiladigan "Сегодня вечером" dasturi tok-shou janrida tayyorlanadi. Ko'rsatuvlarning biri[6] "yumorda ayollar" mavzusiga bag'ishlangan. Boshlovchi Maksim Galkinning bu boradagi kichik kirish qismidan so'ng Rossiyada yumor yo'nalishida ijod qiluvchi ayollar namoyish etilgan qisqa rolik efirga berildi. Tomoshabinning xayoliga ko'rsatuv mehmonlari aynan mana shu ayollar degan fikr kelishi mumkin. Ammo boshlovchi dastlab mamlakatning taniqli satirik yozuvchilarini tanishtiradi. Boshqa mehmonlar ham studiyada bo'lishiga qaramasdan, boshlovchi yozuvchilarni tanishtirishi bilan ularga savol bilan murojaat qiladi. Ko'rsatuvning kirish qismida ayollar barcha sohada ilg'or bo'lishiga qaramasdan, yumor san'atida erkaklar faolroq, degan fikrining davomi sifatida boshlovchi *"Nima sababdan yumorda patriarxat hukmron?"* degan savolni beradi. Maksim Galkin savol bergach, unga qisqa javob olishi bilan keyingi savolni berishga shoshadi. Ya'ni suhbatdosh bilan bevosita suhbat qurishga kirishadi. Aslida savol-javoblarning juda uzayib ketmasligi, savolga qiziqarli, aynan javobni ola bilgandan so'ng keyingi savolga kirishish teletomoshabin e'tiborining chalg'imasligiga olib keladi. Ayniqsa, unga yumor ham qo'shilgan bo'lsa yanada maqsadga muvofiq. M.Galkin suhbatdoshining so'zlaridan kelib chiqib, *"e'tibor bergan bo'lsangiz, studiyamizdagi tomoshabinlarning ham deyarli barchasi ayollar"* degan fikrni aytib o'tadi. Boshlovchi suhbat jarayonida faqat so'roq ohangidagi savollardan foydalanmaydi. Balki erkin suhbat olib borishga harakat qiladi. Bu erkinlik uning xatti-harakatida ham, gaplashish ohangida ham seziladi. Shu o'rinda, studiyada kechayotgan jarayon va tezkorlik bilan goh suhbatdosh, goh boshlovchi so'zlayotgan vaqtda kadrlarni to'g'ri yo'naltira bilgan rejissor hamda tasvirchi mahorati ham e'tirofga loyiq. Birinchi suhbatdosh yozuvchidan qisqa fikrlarni so'rab bilgach, endi bosh-

lovchi ikkinchi yozuvchiga murojaat qiladi. *"Siz bu boradagi o'z fikringizni bildirib o'tsangiz, ayollar yumori erkaklarnikidan qanchalik farq qiladi?"* deya savol beradi. Suhbatdoshlar bu jarayonda nafaqat boshlovchi bilan, balki o'zaro fikr almashadilar.

O'zbek televideniyesida e'lon qilingan intervyu, suhbatlar kuzatilganda, ularda yopiq savollardan juda kamdan-kam holatda, asosan, ochiq savollardan foydalanilishiga guvoh bo'lish mumkin. Albatta, bunday savollar respondentga fikr bildirish, ma'lumot berish uchun imkoniyat yaratadi. "Aytish mumkinki, ochiq savollar ancha demokratik xarakterga ega. Bunday savolga misol sifatida "O'zingiz haqingizda gapirib bersangiz..." kabi suhbatdoshni muloqotga kirishishga chorlovchi iborani ko'rsatish mumkin. Buni yanada aniqlashtirish mumkin: "Ot minishga qiziqishingiz haqida gapirib bersangiz...". Bunday variantda ham savol ochiqligicha qoladi, chunki unda suhbatdoshga qanday javob berish, qanday urg'ular qo'yish va qo'shimcha tafsilotlar qo'shish huquqini qoldiradi".[7] Ammo shu o'rinda ta'kidlash lozimki, "O'zingiz haqingizda gapirib bersangiz..." kabi mohiyatiga ko'ra keng ma'nodagi savol respondentni shoshirib qo'yishi, nimani gapirishni bilmay qolishi, "undan ko'ra savol bera qoling" (!) deyishiga ham amaliyotda ko'p guvoh bo'lingan. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, savollarni imkon qadar aniqlashtirib va soddaroq tilda berish maqsadga muvofiq.

[1]Saidov H., To'xliyeva N. Reportyorlik mahorati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. 87-bet.
[2]Лукина М. Технология интервью. Учебное пособие для вузов. – Москва: Аспект Пресс, 2003.– С. 3.
[3]Fixtelius E. Jurnalistikaning 10 qoidasi. – Toshkent: Sharq, 2002. 68-bet.
[4]NatsvlishviliP. For the genesis of interview as a genre (European Scientific Journal)–2013. December /SPECIAL/ edition// -P. 385.
[5]"Ko'ngil obodligi", "O'zbekiston" telekanali // 19.02.2018.
[6]"Сегодня вечером", "Первый канал" // 25.05.2019.
[7]Лукина М. Технология интервью. – Москва: Аспект Пресс, 2003. – С. 18.

Abdunabi TO'YCHIYEV,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

IKKI HIKOYA – BITTA OLAM

Sharq mifologiyasi va diniy tasavvurlarga ko'ra, pana-pastqam joylarda odamlar ko'ziga har xil, ba'zida odam qiyofasida ko'rinib, ko'pchilik holatlarda ziyon yetkazadigan (masalan, og'zini, yuzini qiyshaytiradi) mahluqotlarni jin – ajinalar deymiz. Nurali Qobulning "Sariq qizlar" hikoyasi [1: 9–15] ham ko'pchilik eshitsa etini junjiktiradigan jin – ajinalar mavzusida yozilgan. Umuman, jin, ajina, shayton, dev, parilar, sariq qizlar mavzularida ko'plab asarlar yaratilgan yoki asarlarda ular ishtiroki tasviridagi epizodlar uchraydi. Albatta, ular muallif xohishiga qarab, asarda qandaydir bir funksiyani bajaradi. Bu obrazlar asarga bemaqsad qo'shilmaydi.

"Sariq qizlar" hikoyasi *"Hech kim tubiga yetolmagan bu voqeaning sodir bo'lishiga enam sababchi bo'lganlar"* degan jumla bilan boshlanadi. Bolakay hali tafsiloti o'quvchiga noma'lum bo'lgan voqeaning sodir bo'lishida enasini sababchi qilib ko'rsatadi va buni hech kim tubiga yetolmagan voqea deb ta'riflaydi.

Hikoyada voqealar jarayoni kechgan makon sifatida jar yoqasidagi ilgari zamonlarda qandaydir yirik imorat yonganligidan paydo bo'lgan kulrang tepalik nazarda tutiladi. Bir necha ming yillik Kultepada tirnog'idan tortib sochigacha sap-sariq bo'lgan sariq qizlar bo'larmish. Bola sariq qizning nima ekanligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmasa-da, uning qandaydir ajinaga o'xshash narsa ekanligiga ishonchi komil edi. Bolaning ins-u jinslarga qattiq ishonganligining yana bir sababi, bu gaplarni hech qachon yolg'on gapirmaydigan enasi aytadi.

Doniyorning dadasi qattiqqo'l edi. U dadasidan hayiqardi. Enasi esa oilada hammani o'zaro yarashtirib yuradigan, qo'ni-qo'shnilarning aytishicha, "yuzlaridan nur yog'ilib turadigan bag'rikeng ayol". Doniyor uni jondan ortiq yaxshi ko'radi. Shu sababli enasining aytgan har bir gapiga haddan ortiq ishonadi. Enasi ham nevarasining vaqt-bemahal ko'cha-ko'yda yurmasligini xohlaydi, chunki yosh odamga ins-u jins tez doriydi.

Asar sujeti uchun asos bo'lgan voqea shom va xufton oralig'ida sodir bo'ladi. Bola odatdagidek, kechki ovqatni yeb, to'rda ag'anab yotganda qo'shnisi Abdusalom amakining o'g'li Pardavoy kelib, dadasini mehmonning oldiga aytib ketadi. Bolaning dadasiga ergashishi bilan voqealar jarayoni tezlashadi. Hikoyada buyumlar, narsalar, predmetlar tasviri, bola yashagan muhit, uy jihozlari kabilar ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Bunday detallar, odatda, asarda mahalliy koloritni ifodalashga, voqealarga tabiiy tus berishga xizmat qiladi.

Yozuvchi hali bo'lajak voqeaga bolaning ishonishini tasvirlash orqali kitobxonni ham ishontirib boradi. Dastlab, enasi tomonidan sariq qizlar, kultepa haqidagi gaplar ta'sirida paydo bo'lgan bolaning ruhiyatidagi o'zgarishlar o'quvchida g'ayritabiiylik uyg'otmaydi. Asarning badiiy ta'sirdorligida asoslashning ahamiyati juda katta. Asoslanmagan voqea asarning haqqoniyligini buzadi. Bolada Pardavoylarnikiga borish ishtiyoqi qanchalik kuchli bo'lmasin, lekin boradigan yo'l Kultepa yaqinidan o'tishini eslab, yuragi orqaga tortib ketadi. Umrida hech qachon bunday g'alati holga tushmagandi. Hali uyidayoq negadir qo'l va oyoqlari birovnikiday izmiga bo'ysunmas, alpang-talpang qadam bosardi. Yo'lga tushmasdan xuddi havoda uchib borganday bo'lib, dadasining choponi o'ngi-

ridan ushlab oladi. Qattiq vahima ta'sirida oyoqlari chalishib, poyintar-soyintar qadam tashlab yo'lga tushadi.

Shu o'rinda muallif milliy mentalitetimizga xos urf-odatni asar voqealariga turtki beruvchi detal sifatida kiritib o'tadi. Ma'lumki, uyga uzoqroqdan mehmon kelganda, mezbon kelgan mehmonning xohish-irodasiga ko'ra, undan ruxsat so'rab, kelgan mehmon bilan gapi-gapiga qovushadigan kishilarni choyga aytadi. Bu xayrli odat hozirgi kunda ham ko'proq qishloq joylarda saqlanib qolgan. Bola dadasining mehmon oldiga aytilish epizodida milliy kolorit ifodalangan.

Nurali Qobulning "Sariq qizlar" hikoyasini o'qiyotganimizda Abdulla Qodiriyning "Jinlar bazmi" hikoyasi yodga tushadi.

Hikoyada O'sar akaning bog'dagi yumushlar bilan *"allaqoncha vaqt o'tub"*, kun kech bo'lganida uyiga qaytishida jinlar bazmiga duch kelgani qiziqarli tasvirlangan. Ular (jinlar) O'sar akani eski tanishlardek kutib olishib, davralariga taklif etishadi. Odatda, milliy mentalitetimizga ko'ra, davraga yangi mehmon kelganda fotiha o'qiladi. Asarda O'sar akaning dasturxon atrofiga kelganida fotiha o'qilmagani tafsiloti shunday yoritilgan: *"Ular meni o'z ixtiyorimg'a qo'ymasdan sudrab, tortib to'rga chiqardilar. Odatda majliska kirgach, fotiha o'qilur edi. Biroq ularning turli so'rog' va muomalalari bilan ovora bo'lub, fotiha o'qush ham esimdan chiqibdur"* [2: 16]. Adabiyotshunos B.Karimov yozuvchi tomonidan ishora qilinayotgan voqeada asos borligini ta'kidlaydi: *"Ma'lumki, jin va shayton Alloh nomi zikr etilgan joyda o'z amallarini bajara olmay qoladi. Bu tushunchaga doir mo'tabar manbalarni Abdulla Qodiriy juda yaxshi bilgan"* [3].

Yozuvchi yoritmoqchi bo'lgan mavzusiga qanchalik chuqur kirib borsa, voqea-hodisalarni yaxshi bilsa u yozgan badiiy asar ham shunchalik hayotiy bo'ladi. Biz yuqorida "Sariq qizlar" hikoyasida voqea shom va xufton oralig'ida sodir bo'lgan, – dedik. "Jinlar bazmi" hikoyasida ham voqea shom va xufton vaqti oralig'ida sodir bo'lishini adabiyotshunos B.Karimov shunday izohlaydi: *"Muallif voqelik yuz bergan vaqtni jinday oldinga – shom tarafga qarab suradi. Shom bilan xufton oralig'ida esa jinlar bazm qiladi. Shaytonlar quyosh botgandan to tun zulmati cho'kkuncha qo'yib yuborilishi haqida hadis bor. Tasvirga olingan har bir detalga, har bir so'zga jiddiy e'tibor beradigan hikoyanavis o'z qahramonini jinlarga xufton bilan shom orasida yo'liqtiradi"* [4: 101–105].

Odatda, yangi kelgan mehmonga oziq-ovqat beriladi. Hikoyada esa O'sar akani oziqlantirishdan oldin bazmga taklif etishadi. Nazarimda, O'sar akaning mezbonlar ixtiyoriga ko'ra, taomdan oldin musiqa eshitishi, musiqa ta'siridagi o'zini boshqaraolmaydigan holatiga ham to'xtalish joiz: *"Mashq sihrlik edi. Men yerga singib ketarlik darajada ezilmoqda, asirlanmoqda, ichimdan bir to'lqin kelib, o'zimni qayerga urarimni bilmay entikmakka boshladim. Sozandalar hamon haligi bosiq mashqni sekin-sekin avjga chiqarib bordilar... Axir chidab turolmadim, piq-piq yig'lay boshladim. Nega va nima uchun yig'lar edim, buni o'zim ham bilmayman. Uzoq yig'ladim. Nihoyat, mashq bitdi. Bitdi, lekin meni ham o'zi bilan birga bitirdi. Ikki tegirmon toshi orasida yanchilgan kishidek majruh edim. Qimir etgali majolim yo'q edi. Ko'zimni ochdim. Majlisdagilarning barchasi ham go'yo bir ko'zdan mening holimga kulub qarab turar edilar. Men o'z holimdan uyalib yerga boqdim"*.

"Sariq qizlar", "Jinlar bazmi" hikoyalaridagi voqea-hodisalar, qahramonlar ruhiyati yozuvchi tomonidan emas, balki boshqa shaxs – hikoyachi tilidan bayon qilingan. "Sariq qizlar" hikoyasida asar qahramoni yosh bola bo'lsa, "Jinlar bazmi" hikoyasida esa voqealar bayoni uylangan, hayotda oq-u qorani tanigan yigit tomonidan hikoya qilinadi.

Bu usul yozuvchiga qahramonlarni ham, voqea-hodisalarni ham turli nuqtayi nazardan ochishga, hikoyanavisning ichki kechinmalarini ifodalashga ko'proq imkon beradi, cheklangan tomoni esa bolaning idroki yetmaydigan ba'zi joylarini yozish imkonsiz. Bola tilidan hikoya qilar ekan, yozuvchi bola ruhiyatiga va tiliga moslashishi kerak. Bunday holatda muallif tilida bolaning yosh xususiyati, tajribasizligi, o'yinqaroqligi, xullas uning butun tabiati ko'zga tashlanadi.

Jin, ajina, dev, shayton, pari, sariq qizlar tasviri berilgan asarlar adabiyotimizda talaygina. Asarni badiiy to'qimasiz, ijodiy fantaziyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hayotda inson nomiga nomunosib kun kechirayotgan, kechirgan odamlarga ham nisbat qilib shu so'zlar qo'llanilishi bor gap. Badiiy asarlarda ham shu taxlit so'zlar ko'p.

"Jinlar bazmi" hikoyasida voqea makoni sifatida hech kim yashamaydigan, ovloq, "buzuq, boyqushlarg'a uya bo'lib yotg'on bir maydon" ko'rsatilsa, "Sariq qizlar"da jar yoqasida ilgari zamonlarda qandaydir yirik imorat yonganligidan paydo bo'lgan necha ming yillik kultepa ko'rsatiladi. Har ikki holatda ham alohida olamga ega bo'lgan mahluqotlarning alohida hayoti yoritilgan. Har ikkala hikoyada ham yechim bir xil – mavhum. Zotan, bu chek-chegarasiz dunyoda bizning aqlimiz cheklangandir.

Barcha yaxshi asarlar iste'dod hamda mashaqqatli ijodiy mehnat natijasidir. Albatta, biz bu ikki hikoyani qiyoslash orqali "Sariq qizlar" hikoyasi "Jinlar bazmi" hikoyasi ta'sirida yozilgan degan fikrdan mutlaqo yiroqmiz. (Ushbu maqolani yozish jarayonida muallif bilan bog'langanimizda, muallif bu hikoya yozilganda hali "Jinlar bazmi" hikoyasi bilan tanish bo'lmaganini ta'kidladi). To'g'ri, har bir yozuvchining uslubi har xil bo'lishi tabiiy, lekin hikoyalar mavzusi va aytilmoqchi bo'lgan fikr bir-biriga mos keladi. Bu ikki hikoyani qiyosiy o'rganish orqali ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va mutanosiblikni sezish mumkin. Nurali Qobul bu hikoyasida xuddi "Jinlar bazmi" hikoyasiday xalq orasida bor bo'lgan voqea-hodisani qalamga olgan. Yozuvchining ijodiy individualligi, o'ziga xosligi shundaki, muallif hodisaning yakuni haqida oxirgi qarorni chiqarmaydi, yechimini o'quvchi e'tiboriga ochiq qoldiradi. Voqea vahima yoki real ekanini o'quvchining o'zi mushohada qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurali Qobul. Maymunlar mamlakati yoxud yovvoyilar orasida. – Toshkent: IJOD-PRESS, 2017.
2. Qodiriy A. Jinlar bazmi. XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009.
3. Karimov B. Bir "go'zal yozg'ich" \\ O'zAS gaz., 2014. №14.
4. Hikoya kompozitsiyasida uchlik prinsipi. "Abdulla Qodiriy adabiy merosi va hozirgi o'zbek adabiyoti" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent: Muharrir, 2019.

Xolmo'min FAYZULLAYEV,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

"QORAQUYUN" ROMANIDA INSON VA TABIAT UYG'UNLIGI FALSAFASINING POETIK TASVIRLANISHI

Inson va tabiat muammosini turli badiiy rakurslarda tasvirlab kelayotgan yozuvchi Normurod Norqobilov asarlarida ko'p ijodkorlarning e'tiboriga tushmagan, jaydari, shu bilan birgalikda, tabiat, hayvonot, jamodotga xos teran falsafa ohanglariga guvoh bo'lamiz. Mag'zida inson va tabiat muammosi aks etgan bunday falsafiy xulosalarni biz yozuvchining ilk to'plami "Zangori ko'l"dan (1987) boshlab, "Unutilgan qo'shiq" (1990), "Yuzma-yuz" (1993), "Sariq gul" (1996), "Paxmoq" (1997), "Temur g'ori" (1999), "Arazchi chumchuq" (1999), "Bekatdagi oq uycha" (2000), "Ovul oralagan bo'ri" (2005), "Jo'shqin daryo" (2005), "Bo'ron qo'pgan kun" (2007), "Tog'dagi yolg'iz odam" (2011), "Chetdagi odam" (2018) singari qissa va hikoyalar to'plamlari, "Dashtu dalalarda" (2009), "Qoraquyun" (2016) romanlarigacha izchil tarzda kuzatishimiz mumkin.

N.Norqobilov ijodidagi bunday jihat uning xalq ijodiyoti, qishloqlarimiz odamlari turmush tarzi, Vatanimiz tabiati, qolaversa, jahon adabiyotinig L.Tolstoy, J.London, Ch.Aytmatov, S.Tompson ijodiy an'analarini chuqur bilishi bilan bog'liq. Uzoq yillar O'zbekiston teleradiokompaniyasida olib borgan ilmiy ekspeditsiyalari, tabiat bilan tillashadigan ko'plab vatandoshlarimiz bilan olib borgan suhbatlari, tabiat sirlarini jamiyat va tabiat bilan uyg'un kuzatishlari, dasht-u dalalarda kechgan bolaligi, o'smirlik hayoti yozuvchining ona tabiat haqida shunday original asarlar yozishiga sabab bo'lgan, deb o'ylaymiz.

Yozuvchi asarlari o'zining ilk namunalaridan boshlaboq, adabiyotshunosligimiz e'tiborini tortib keladi. U.Normatov, A.Rasulov, D.To'rayev, Y.Solijonov, Q.Yo'ldoshev kabi ustoz adabiyotshunoslarimiz qator tadqiqot va maqolalarida N.Norqobilov roman, qissa va hikoyalari haqida salmoqli fikrlar aytishgan. Nisbatan keyingi avlod adabiyotshunoslari ishlarida yozuvchi asarlarini aniq ilmiy muammo yuzasidan, monografik o'rganishga urinishlar ko'zga tashlanadi. U.Rasulova, D.Xoldorov, K.Hamroyev kabi tadqiqotchilarning yozuvchi qissa va hikoyalari borasidagi ishlari shunday ilmiy urinishlardan bo'lib hisoblanadi. Ammo yirik olimlarimizning ba'zi bir qaydlarini mustasno etganda N.Norqobilov asarlari inson va tabiat, tabiat falsafasi muammosi asosida maxsus o'rganilmagan.

Shu boisdan ushbu muxtasar maqolada biz yozuvchining "Qoraquyun" romanida uchraydigan bir epizod, tabiat falsafasiga doir nozik bir nuqta haqida fikr yuritishga jazm etdik.

Professor A.Rasulov o'zining "Badiiylik – bezavol yangilik" nomli kitobida N.Norqobilov ijodi haqida to'xtalib shunday yozadi: "Yozuvchi Normurod Norqobilov XX asrning so'nggi o'n yilligidan boshlab barakali ijod qilayotganlardan biri. Uning asarlarida tog' va tog'oldi tabiati, odamlari aks ettirilgan. Ularni tahlil va talqin qilish joiz" (ta'kid bizniki, X.F.). Aynan mana shu tog' odamlari, tog'lar, tog' va tog' atrofida yashaydigan jonivorlar, qush-parrandalar, hatto qurt-qumursqa, hasharotlargacha N.Norqobilov ijodining obyekti hisoblanadi. Muhimi shuki, N.Norqobilov ustoz A.Rasulov aytganlaridek, tabiat, hayvonot, jamodot tasvirining o'zi bilangina cheklanmaydi, balki bu xususda o'z xulosalarini asar matniga singdirib yuboradi. Shu muhitda yashaydigan odam, jonivor, hatto tosh-tuproqlar, dala-dashtlar vositasida tabiat falsafasini anglash va anglatishga urg'u beradi. Inson va tabiat uyg'unligi, bunday o'ziga xos uyg'unlikning vayron etilish nuqtalarini badiiy talqin etadi. A.Rasulov yozuvchining "Qoyalar ham yig'laydi" qissasidagi ota (Ernazar polvon) va o'g'il (O'sar) obrazlari o'rtasidagi psixologik-parapsixologik holatlarni tahlil etadi. O'g'li O'sarning noqobilligidan ranjigan otaning dardu dunyosi qorong'u bo'lgani, jahl ustida tog'da turgan kalladek toshni olib pastga uloqtirgandagi holati haqida yozar ekan, "Hurmatli o'quvchi, dard-dunyosi qorong'i bo'lib, yuragiga qil ham sig'may turganida Ernazar polvon jon-jahdi bilan uloqtirgan kalladay toshni yodingizda saqlab qoling" deya alohida ta'kidlaydi. Asardagi ota obrazi ko'nglidagi dramatizm kuchayib, ota-o'g'il o'rtasidagi konflikt avj nuqtasiga yetadi. Otaning tergashlari, pand-nasihatlaridan bezor bo'lgan noqobil o'g'il o'ta og'ir gunohga qo'l uradi. Otasiga qo'l ko'taradi.Qilgan ishidan va otasidan hayiqib tog'ning etagi bo'ylab qochib borayotgan O'sarni bexosdan dumalab qolgan kalladek tosh urib yiqitadi. Undan kattaroq xarsang esa o'z zalvori bilan yanchib tashlaydi. Shu o'rinda ustoz olimning mazkur noyob hodisa haqidagi xulosasini keltirish o'rinli bo'lardi: "Mening nazarimda, – deb yozadi adabiyotshunos olim, – O'sarni urib yiqitgan tosh boya g'azab alangasida qovrilib, yurak-bag'ri o'rtanib turganida Ernazar polvon jon-jahdi bilan pastga uloqtirgan "kalladay tosh" bo'lib tuyulaveradi" (ta'kid bizniki, X.F.). Olimning fikrlariga yuz foiz qo'shilish bilan birga, uni qisman davom ham ettirish mumkin. Chunki bu hodisa shunchaki tasodif emas. Uning ostida donishmand millatimizning juda katta falsafasi yotibdi. Zotan, tabiatning yuragi o'zini ardoqlagan odamlar bilan uyg'un holatda urib turadi. Bunday tog' va daryolardek pokiza odamlarni xafa qilganlardan tabiatning o'zi o'ch oladi. Shuning bilan birgalikda, xalqimiz orasida "Otaning qarg'ishi – o'q" degan hikmatli so'z yuradi. Ammo bunday nozik holat-hodisalarni fan tushuntirib bera olmaydi. Hatto aynan shu jihatlarni o'rganishga qaratilgan parapsixologiya ham bu borada faqat taxmin qiladi.

N.Norqobilovning "Qoraquyun" romanida bunday nozik holatlar tasviri ko'plab kuzatiladi. Bularning hammasi inson va tabiat uyg'unligi, nouyg'unlik muammosini anglashimizga xizmat qiladi. Quyidagi epizodda keladigan falsafani esa haligacha biron tabiat tasviri bilan shug'ullangan yozuvchi aytmagan bo'lsa kerak deb o'ylaymiz.

Bu romanning bosh qahramoni, unda ko'plab odamlar obrazi ishtirok etishiga qaramasdan odam emas, balki Qoraquyun nomli it. Muallif asardagi barcha katta-kichik epizodlarni shu obraz atrofiga jamlaydi. Romanning bosh va oxirgi jumlalarini ham shu it tasviriga quradi. Birinchi

jumla: "G'uldagi it – Qoraquyun yarim tunga yaqin tin olmay, uzluksiz bir alfozda g'azabkor irillay boshladi", deb boshlansa, oxirgi jumla: "Bu paytda qibla shamoli qo'zg'algan bo'lib, nihoyat ozodlikka erishgan Qoraquyun shuvoq bo'yiga betlangancha, olis-olisdagi kenglik sari yeldek uchib borardi" jumlalari bilan tugaydi. Shu ikki jumlaning o'ziyoq asarning erk va tutqunlik falsafasi kontrastiga qurilganini ko'rsatadi.

Qoraquyun – Erman tomonidan o'z dushmani Itolmasni yo'q qilish uchun g'ul (mustahkam qafas)ga solib boqilayotgan bir bahaybat it. Uning tug'ilish manzili, hayotining ilk davrini ham erkinlikka sira aloqasi yo'q. Erman bu itni hali ko'zi ochilmagan paytda, akasi Qalaybeknikidan olib keladi. Uni qotil qilib tarbiyalash uchun ikkita egizini tiriklayin ko'mib, nobud qiladi. Itning yanada vahshiyroq bo'lishi uchun uni bo'ri eti berib boqadi. Bu bilan itda o'zidan o'zga butun mavjudotga nisbatan nafrat hissini tarbiyalamoqchi bo'ladi. Itni sira ham erkinlikka chiqarmaydi. Dushmani kelib, undan o'ch oladigan kunni kutadi. Payt poylaydi. Ammo itni, garchand uni tug'ilganidan beri g'ulda saqlab kelishayotgan bo'lsa ham, ajdodlar geni orqali vujudiga kirib kelgan erk tuyg'usi sira tark etmaydi. It g'ul ichida ulg'ayar ekan, vaqti-vaqti bilan erkinlikda yashagan bobokaloni – Olarit tuygan shuvoq hidini tuyadi. Unda qotillikdan ko'ra erk tuyg'usi kuchliroq shakllanadi. Shu tuyg'u uni odamzotning tor miqyosdagi o'ch,hasad kabi istaklarini amalga oshiruvchi bir qul emas, tabiatning ulkan va adolatli qonunlari tomon intiluvchi erksevarga aylantiradi.Chunki bunday buyuk qonuniyat va adolat hissi g'ul itining bobosi, bo'ri avlodi – Olaritda mujassam edi.

Olarit shunday bir vajohatli itki, uning ovozini eshitgan bo'rilar zir titraydi. Kunlardan bir kuni Olarit boshliq itlar to'dasi qo'riqlayotgan otar atrofiga bo'rilar oralaydi. Olarit to'dasi ularni ta'qib qiladi. Ammo yetay-yetay degan masofada Olarit ta'qibni to'xtatadi. Holbuki, yana bir necha daqiqalik shijoat sabab bo'rilar to'dasi tor-mor qilinishi mumkin edi. Yozuvchi xuddi shu joyda, oddiy kitobxon yoki tabiatdan uzoq odam tushunishi qiyin bo'lgan borliq falsafasini kashf etadi.

Xo'sh, Olarit ta'qibni to'xtatishining sababi nima edi? Qo'rqoqlikmi, charchoqmi? Yoki bo'rilar bilan kelishuv, orani buzmaslikka urinishmi?

Ayni savollar, bizningcha, oddiy kitobxon yoki tabiatni teran kuzata bilmagan kimsalarga tegishli. Chunki ular bu jumboqqa shundan o'zga izoh topishga qiynaladilar. Shu bois muallif tabiatning bunday jaydari, ayni damda murakkab falsafasini quyidagicha izohlaydi: "Buning boisi shundaki, jonivorlar botinida andishaga o'xshash g'aroyib bir yo'riq mavjud bo'lib,bu yo'riqning tartibi hamda ichki mohiyatini inson bolasi ikki dunyoda ham idrok eta olmaydi. Idrok etolmagani sababli, u hamisha buzuvchi obyekt rolini o'ynab keladi... Ha, u chindan-da mavjud.U yer yuzida jonivorlar paydo bo'lgan kezlardayoq yuzaga kelgan va shu damgacha ular botinida imi-jimida yashab keladi".

Yuqoriroqda biz "Qoyalar ham yig'laydi" qissasidagi bir epizod misolida "o'ch oluvchi tabiat" falsafasiga diqqat qaratgan edik. Olarit bilan kuzatilgan noyob hodisa ham shunga yaqin. Bunda ham shu kabi borliq-tabiatning botini haqidagi falsafa aks etgan.

Yozuvchi masalani yanada oydinlashtirish maqsadida o'z falsafasiga misol keltiradi: "Buning uchun biror mushukni jon-jahdi bilan quvlab borayotgan ko'ppakning barcha hatti-xarakatini sinchkovlik bilan kuzatishning o'zi kifoya: bir qarashda it shu qadar yovuzlashganki, mobodo mushuk uning changaliga tushgudek bo'lsa, tirik qolishi gumondek tuyuladi. Xuddi kuzatilganidek (Olarit voqeasi nazarda tutilmoqda. X.F.), ana, quturgan it mushukka yetay deb qoldi. Agar u yana jindek zo'r bersa, tamom – sho'rlik mushukning kuni bitdi deyavering. Biroq so'nggi soniyada voqea rivoji keskin o'zgaradi – it eng oxirgi lahzada mushukning chap bermog'iga atay imkon yaratadi va shu bilan mushuk muqarrar o'limdan qutulib qoladi... Buning sababi g'oyatda jo'n – it mushukni odatiga xos tarzda quvlagan esa-da, ammo avvalida undan biror yomonlik ko'rmagani bois, o'zi sezmagan holda beixtiyor botiniy yo'riqqa itoat etgan, mushukning qutulib ketmog'iga izn bergandi... itni favqulodda shafqat hissi emas, balki ona tabiat tomonidan jismi-joniga singdirilgan muqaddas qoida – yo'riq jilovlaydi" (ta'kid bizniki. X.F.).

Bizningcha, tabiatning nozik botiniy falsafasi mana shu – jilovlaydigan yo'riq tushunchasida mujassam. Odatda hayvonot, jonivorlar dunyosi instinkt bilan yashaydi, degan gaplarni ko'p aytamiz. Biroq yozuvchi qayd etgan it va mushuk yoki Olarit va bo'rilar munosabatida instinktdan ko'ra teranroq qonuniyat aks etgan. Nega, deganimizda, instinkt itni quvish, burdalash, mahv etishga chorlaydi. U o'z instinktiga ko'ra to'q, kuchli va g'olib bo'lishni istaydi. "Jilovlovchi yo'riq" esa uning barcha instinktga xos istaklaridan ustun turadi. Tabiat "yo'rig'i"ning buzilmasligini nazorat qiladi. Natijada ulkan Yer sharida davom etayotgan tabiat ishlarida adolat hukm suradi.

Xullas, yozuvchi N.Norqobilov kichik va bizga arzimasdek tuyuladigan badiiy lavha orqali o'z o'quvchisiga tabiatning mana shunday ulkan falsafasini anglatgan. Matn ostida tabiat hodisalari botinida yashirin ilohiy qonuniyatga ishora qilgan. Ayni paytda, nafsi bilan yashaydigan jonivor yoki yirtqich azaliy "yo'riq"ni buzmay, adolat muhitida kun kechirishi, aql-idrok berilgan inson esa, o'zini maxluqotning sharifi hisoblagani holda, adolat chegaralarini buzishi haqidagi umumbashariy falsafani ilgari surgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Batxin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. (Rus tilidan U. Jo'raqulov tarjimasi). – Toshkent: Akademnashr, 2015.
2. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
3. Norqobilov N. Qoraquyun. Roman. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. -B.3-214
4. Norqobilov N. Bekatdagi oq uycha. Hikoyalar va qissalar. – Toshkent: Sharq, 2000.
5. Norqobilov N. Ovul oralagan bo'ri. Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2005.
6. Norqobilov N. Chetdagi odam. Hikoyalar. – Toshkent: Cho'lpon, 2019.
7. Norqobilov N. Tog'dagi yolg'iz odam. Qissalar, hikoyalar. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
8. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007.-B.
9. To'rayev D. Rangin tasvirlar jilosi. – Toshkent: Akademnashr, 2014.
10.To'rayev D.O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – Toshkent: Universitet, 2001.

Shohidaxon ISAKOVA,
filologiya fanlari nomzodi;
Zilolaxon ISAKOVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

LYUSEN KEREN – TEMURSHUNOS OLIM

Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichida Sharq sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan buyuk bobokalonimiz Amir Temurga bag'ishlab jahon sharqshunosligida ko'pdan-ko'p ilmiy, tarixiy, ommabop, badiiy asarlar yozilgan. Fransuz temurshunoslik maktabida ham talaygina ishlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Fransuz sharqshunoslik maktabi XVII asrdan boshlab shakllana boshlagan. O'zbek-fransuz adabiy aloqalari uzoq davrlarga borib taqalsa-da, bu yo'nalishdagi keskin miqdor va sifat o'zgarishlari XX asrda yanada rivojlandi.

Mana shunday maktabning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Lyusen Kerendir.

Lyusen Keren 1920-yilda Fransiyaning Strasburg shahrida tavallud topgan. Uning mutaxassisligi asli yershunos-bioximik bo'lib, 1941–1946-yillarda u Fransiyaning mashhur Parij universitetida tadqiqotchi (stajor) va assistent bo'lib ishlagan, 1951-yildan Parij universitetining doktoridir. Keren uzoq yillar davomida fransuz texnik yordami va Birlashgan Millatlar Tashkilotining taraqqiyot dasturi doirasida ekspert va maslahatchi sifatida dunyoning ko'pgina mamlakatlarida faoliyat ko'rsatgan. Jumladan, Vyetnam, Benin, Marokash, Braziliya, Livanda maslahatchi bo'lib xizmat qilgan. U Marokashda yer kimyosi va suv muammolari laboratoriyasiga rahbarlik qilgan. 1961-yildan boshlab L.Keren hayotida burilish bo'ldi: Mirzacho'lni o'zlashtirish maqsadida birinchi marotaba O'zbekistonda safarda bo'lgan. Safar davomida Amir Temur va temuriylar sulolasiga qiziqib, bu sulola tarixini o'rganishga kirishadi. Professor Lyusen Keren Fransiyadagi "Temuriylar tarixi, san'atini o'rganish va fransuz-o'zbek madaniy aloqalari uyushmasi"ning raisi va uyushma nashr etadigan "Temuriylar" jurnalining muharriri hamdir.

"Temurbek jahon tarixida eng oldingi o'rinlardan birini egallaydi. U o'z davridagi jamiyatni yangilagan va unga yangi yo'nalish bag'ishlagan. O'rta asrni yakunlab, uyg'onish davrini boshlab bergan... Har tomonlama go'zallikka, Xudoga ishonchni ifodalab, ko'kka intilgan yodgorliklarni bunyod qildirgan"[1].

Professor Keren o'z asarlarini yozishdan avval Amir Temur haqidagi Sharq va G'arb manbalarini chuqur o'rganib chiqdi. Sohibqiron to'g'risida juda ko'p ma'lumotlar to'pladi, ularni tanqidiy nuqtayi nazardan o'rganib chiqdi. Amir Temur shaxsiga xolis va mafkuraviy aqidalarsiz yondashdi. O'z asarlarini yozish jarayonida bir necha bor O'zbekistonga tashrif buyurib, sohibqiron poytaxti – Samarqandga borib, o'zbek olimlari bilan muloqotda bo'ldi.

Temurshunos olimning to'plagan ma'lumotlari asosida "Amir Temur saltanati" nomli tarixiy romani, "Amir Temur davrida Samarqandga sayohat" tarixiy sayohatnomasi hamda "Amir Temur" tragediyalari dunyoga keldi.

Lyusen Kerenning "Amir Temur saltanati" nomli tarixiy romani ilk marta 1978-yil Shveysariyaning Nyushatel shahrida joylashgan "La Bakonyer" nashriyotida chop etiladi. Kitob yigirmadan ortiq tarixiy xarita va suratlar bilan bezatilgan edi. 1980-yil esa u Parijdagi "Payot" nashriyoti tomonidan chop etiladi (xarita va rasmlarsiz). Shundan so'ng Lyusen Kerenning bu asari bir necha marta qayta nashr qilindi. Roman Samarqand tarixi bilan boshlanib, Amir Temurning dunyoga kelishidan umrining oxirigacha bosib o'tgan yo'lini qamrab oladi. Unda sohibqiron barpo etgan saltanatning keyingi taqdiri hamda Boburning hayotiga ham alohida boblar ajratilgan, buyuk bobokalonimizning Yevropa qirollari bilan o'rnatgan munosabatlari haqida ma'lumotlar va temuriylar shajarasi ilova qilingan.

Mazkur romanning qimmatli tomoni shundaki, unda muallif o'zidan ilgari Amir Temur haqida yozilgan asarlarni xolisona izohladi, sohibqironning faoliyatiga tarixiy nuqtayi nazardan to'g'ri yondashib, ul zotning bashariyat oldidagi buyuk xizmatlarini yuqori baholadi.

Professor Lyusen Kerenning yirik asarlaridan yana biri – "Temur davrida Samarqandga sayohat" albom-kitobi ilk bor 1990-yilda Parijda Fransiya Davlat nashriyoti (Impremerie Nationale) tomonidan chop etilgan bo'lib, 2002-yil va 2006-yilda qayta nashr qilingan. Keren asarni ispan tilidan fransuz tiliga o'girgan. Bu asar Kastiliya elchisi Run Gonsales de Klavixoning Samarqandga qilgan safari taassurotlari asosida yozilgan. Kitob Klavixoning "Samarqandga Temur saroyiga sayohat" nomli kundaligining ispan tilidan fransuz tiliga izohli tarjimasidir. YUNESKOning "Ipak yo'li – muloqotlar yo'li" dasturi doirasida tayyorlangan bu kitob ilmiy-tarixiy ma'lumotlarning keng ko'lami, miniatura va rangli suratlarga boyligi bilan kitobxonlarni o'ziga jalb etadi, boshqa tillarda chop etilgan nashrlardan ajralib turadi. Ispaniya – Kastiliyaning Amir Temur saroyidagi elchisi Rui Gonsales de Klavixo 1403–1406-yillarda Samarqandda bo'lib, ko'pgina ishlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan. Shuning uchun Klavixoning kundalik daftarlaridagi voqealar haqiqatga ancha yaqindir.

Kitobning kattagina "Kirish" qismi Lyusen Kerenning qalamiga mansub. L.Keren "Amir Temur – afsona va tarixda", "Sharqdagi saroyga intilishlar", "Klavixo asarining qo'lyozmalari va hikoya uslubi" kabi boblarini yozgan, "Amir Temurning yozishmalari" haqida ma'lumotlar va izohlar ilova qilingan. Ilovalar orasida L.Keren va M.Mahjub tomonidan fransuz tiliga o'girilgan Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI ga maktubi hamda L.Keren tarjima qilgan Amir Temurning Kastiliya qiroli Enrike (Genri) III ga bitgan nomasi ham bor. Bu nomalarning o'zbekcha tarjimalari professor Lyusen Kerenning kitobida keltirilgan. Shuningdek, Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI ga maktubi forsiydan fransuz tiliga L.Keren, D.Mahjub, D.Bogdanovichlar tomonidan o'girilgan.

Katta albom shaklida nashr etilgan bu rangli kitob turli fotosuratlar, tarixiy miniaturalar hamda Fransiya va Ispaniya arxivlarida saqlanayotgan nodir manbalar bilan boyitilgan.

Klavixoning "Amir Temur saroyiga sayohat" asarining I.I.Sreznevskiy tayyorlagan ruscha matnidan o'zbek tiliga Ochil Tog'ayev, ispan tilidan Ulug'bek Jo'rayevlar o'girishgan.

Yevropa mamlakatlaridan Hindiston va Xitoyga olib boradigan va u yerlardan O'rta Osiyo orqali o'tadigan, tarixda Ipak yo'li deb atalmish xalqaro barcha asosiy yo'llarda Temur karvonlarning xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini ko'radi, Sharq va G'arb o'rtasida savdo-sotiq munosabatlarini har tomonlama rivojlantirishga g'oyatda katta e'tibor beradi.

Bu mamlakatlarda Amir Temur o'zini diplomat sifatida namoyon qiladi: Temur Vizantiya, Venetsiya, Genuya, Ispaniya-Kastiliya, Fransiya va Angliya davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarni avj oldiradi. Diplomatik aloqalar o'rnatish va rivojlantirish munosabati bilan Angliya va Fransiya qirollarining Temurga yozgan maktublari fikrimizning dalilidir. Maktublarning ayrimlari Fransiya Milliy arxivida, Britaniya muzeyi va Ispaniya arxivlarida saqlanmoqda.

Bundan tashqari L.Keren "Amir Temur" nomli ikki qismli, olti pardadan iborat pyesa ham yaratgan. Pyesadagi voqealar Amir Temurning Samarqandda taxtga o'tirishi bilan boshlanib, O'tror qal'asida tugallanadi. Asarda Amir Temur adolatpesha hukmdor, sadoqatli do'st va vafodor yor bo'lishi bilan birga chuqur bilimlar sohibi hamda fan va madaniyat rahnamosi sifatida tasvirlanadi. Mazkur asar ayrim kamchiliklardan ham xoli emas. Yevropa dramaturgiyasi xususiyatlaridan kelib chiqib, muallif Sharq hayotini birmuncha romantiklashtirib ko'rsatadi, ayrim o'rinlarda Amir Temur haqida Yevropada tarqalgan afsonalardan foydalanadi. Bu asarni Bahodir Ermatov fransuz tilidan o'zbek tiliga bevosita tarjima qilib, o'zbek kitobxonlariga yetkazishga muvaffaq bo'ldi.

Professor Lyusen Keren Temur va temuriylar to'g'risida olib borgan tadqiqotlari jarayonida Temur avlodidan bo'lmish Parijda yashayotgan Islombek Xudoyorxon o'g'li bilan tanishadi. Islombek temuriylar madaniyatining inqiroziga doir ko'pgina qiziqarli voqealarni so'zlab beradi. Amir Temur to'g'risida salkam 35 yil olib borgan tadqiqotlarining xulosasi sifatida L.Keren janoblari shunday deb yozadi: "Temur – beqiyos, uning qiyosi yo'q. U buyuk sarkarda va tashkilotchi, shu bilan birga san'atkor va olimlar rahnamosi, moziy yo'rig'ini o'zgartira olgan shaxslarga yo'ldosh, sehrga ega bo'lgan kishidir".[2]

Lyusen Kerenning temuriylar tarixini o'rganish va targ'ib qilish borasida olib borgan fidokorona xizmatlari va fransuz-o'zbek madaniy aloqalarini rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi munosib baholandi.

Sharqshunos, temurshunos olim Lyusen Keren O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan "Shuhrat" medali bilan mukofotlangan.

[1] Keren L., Saidov A. Amir Temur va Fransiya. – Toshkent: Adolat, 1996. 85-bet.
[2] O'sha manba. 43-bet.

Gulchiroy HAYDAROVA,
Andijon davlat universiteti magistranti

"SHODLIGIM KO'KKA SIG'MAS..."

Yosh avlodga go'zal tarbiya va kuchli bilim berish, ularning ma'naviy-axloqiy, estetik didini shakllantirishga mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanadi. Shunday ekan tarbiyachilar sifatli, mazmunli, eng asosiysi, bolajon uchun qiziqarli, ularni toliqtirmaydigan mashg'ulotlarni tashkil qilishi kerak. Mashg'ulotdagi taassurot va natija bola nutqida, harakati va kayfiyatida o'z oilasiga qaytgandan so'ng ham davom eta olishini ta'minlashi maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar uchun turli she'r va qo'shiqlar, harakatli o'yinlar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Biroq uni qay tarzda tashkil qilish pedagogning mahoratiga bog'liq. Tarbiyachi bolaning yosh xususiyatidan kelib chiqib she'rlar tanlashi va she'rning quvnoq ohangi, so'zlarning soddaligiga ahamiyat berishi kerak. Negaki, bolalarning yoshiga mos bo'lmagan she'rlar tanlansa, ularning yod olinishi, aytilishida ham toliqish, zerikish paydo bo'lib, keyinchalik boshqa she'rlarni yodlashga bo'lgan qiziqishlari so'nadi.

Maktabgacha davrdagi har bir yosh bosqichi o'z nutqiy rivojlantirish vazifalarini qo'yadi. Yoshi o'sib borishi bilan tarbiyachi tomonidan o'rgatilayotgan turli she'rlarni qabul qilish darajasi ham ortib borishi tufayli ular asta-sekin murakkablashtirilib borilishi maqsadga muvofiq. Bu bilan bolalarda she'rni tinglay olish qobiliyati rivojlanadi. Shundan kelib chiqqan holda kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur.

Ilk yoshdagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi – bu ularga nisbatan emotsional javob, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi asar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg'urishdir. Ushbu yoshdagi bolalar uchun kichik hajmdagi she'rlar, folklor namunalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bosh qahramonlari bolalar, hayvonlar bo'lgan, o'yinli she'riy asarlar bolalar uchun juda qiziqarli. Bola kattalar bilan birgalikda matallar va sanoq she'rlar sujetlari asosida ishtiyoq bilan o'yinlar tashkil qiladi, u tovush taqlidiga va folklor yo'nalishidagi bir maromdagi takrorlashlarga quloq tutadi. Bola adabiy asarlarda bayon qilingan voqealarni juda jiddiy qabul qiladi. O'ziga yoqib qolgan ertakni bir necha marta eshitishga ham tayyor. Tarbiyachilar she'rlarni saralashda quyidagi kabi namunalarga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Hamzaning "Yengil adabiyot" kitobidan o'rin olgan "Maktab xususida"gi asari bolajonlar uchun alohida ahamiyatga ega:

Maktab – millat quyoshi, Maktab millat saroyi,
Balki ko'z ila qoshi. Ilm-u adabning joyi.

Ko'zsiz, qoshsiz kishining Dunyoda eng saodat
Qanday xunukdir boshi. Axtarganlarning joyi.

Mazkur she'r bolajonlarga yodlatilar ekan, ularning maktab haqidagi ilk tasavvurlari boyiydi, ulg'ayishga, maktabga borishga, ilm olishga intilishlari ortadi.

A.Avloniyning "Ikkinchi muallim" kitobidan joy olgan "Maktab" she'ri ham savod chiqarishga, bolalarning maktabni go'zal, yorqin ranglarda kashf qilishiga, o'qishga intilishlarini shakllantirishga xizmat qiladi:

Maktab dur-u gavhar sochar,
Maktab sizni inson qilur,
Maktab sizga Jannat ochar,
Maktab hayo ehson qilur,
Maktab jaholatdan qochar,
Maktab g'ami vayron qilur,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!

H.Olimjonning "Vatan" nomli she'ri orqali bolalarda Vatanga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbat hissi, Vatan tuyg'usini shakllantirishga erishiladi:

Shodligim ko'kka sig'mas
Bitmas baxtim bor manim.
Meni baxtiyor qilgan
Shu yengilmas Vatanim.

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchlariga o'zbek xalq ertaklari bilan bir qatorda bolalar ijodkorlarining qator asarlarini rolga kirishgan holda o'qib berish ham alohida ahamiyatga ega. Jumladan, H.Olimjonning "Semurg'", "Oygul bilan Baxtiyor", Shukur Sa'dullaning "Chol bilan bo'ri" kabi asarlari she'riy yo'lda yozilganligi, voqealarning qiziqarli tasvirlanganligi bois bolalar ularni miriqib tinglaydilar. Bu esa ularning o'zbek adabiyotining o'ziga xos namunalarini bilishga, idrok qilishga o'rgatadi.

Quddus Muhammadiyning "Hashar" she'ri ham bolajonlarda millatimizga xos bo'lgan hashar haqida ilk tasavvur uyg'otsa, she'rni yod olish va o'rtoqlari bilan birgalikda jo'shib aytish orqali ularda urf-odatlarimizga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat hissi shakllanib boradi. Oilasi davrasida ham she'riy misralarni baralla aytgan holda yeng shimarib ishga kirishishlari kuzatiladi:

Keling, bolalar, Kim bo'lsa bo'lsin,
Yeling, bolalar, Safimiz to'lsin.
Aka-opalar, Ekamiz ko'chat,
Hamma bolalar, O'tmasin fursat.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari o'z dars mashg'ulotlarini yuqoridagi kabi she'rlar bilan boyitsa, bolalarda nutq ravonligi, xotira, ifodali she'r o'qish, tinglash-eshita olish ko'nikmasi, hozirjavoblik, faollik, o'ziga ishonch, she'riyatga mehr, go'zallikni his qilish kabi ma'naviy sifatlar rivojlantiriladi. Ularda yodlanayotgan she'r qahramonlaridek harakat qilishga ishtiyoq paydo bo'ladi. Bu ishtiyoq, o'z navbatida, ta'limning keyingi bosqichlarida ta'lim olishda asosiy vazifani bajaradi. Shuning uchun ham bolajonlarga faqat tadbirlar uchungina emas, aksincha, g'oyaviy mazmunga ega, bola harakatlarini tartibga solishga xizmat qiluvchi she'rlarni yodlatish ulardagi axloqiy tarbiyani ta'minlashga xizmat qiladi.

Rahmatilla NORBEKOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat
pedagogika instituti o'qituvchisi

ABDULLA ORIPOV DOSTONLARIDA MILLIY QADRIYATLAR TALQINI

Insonning ma'naviy-ruhiy olami so'z san'atiga har qanday vaqt va zamonda ehtiyoj tuyaveradi. Shuning uchun jahon va milliy adabiyot mundarijasining eng avvalida xalq og'zaki poetik ijodi namunalari bag'ridan joy olgan milliyat, milliy o'zlik masalalari o'rin olishi shubhasiz. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit turk" asarida turkiy xalqlar o'rtasida mashhur bo'lgan maqol, qo'shiq, she'rlardan o'nlab misollar keltiradi. Devonda bu millat vakillari azaldan she'riyatni, adabiyotni qadrlagani misollar bilan o'ziga xos isbotlangan, desak yanglishmaymiz. Demak, millat genetikasidagi mana shu jihat keyinchalik Rabg'uziy, Xorazmiy, Atoiy, Alisher Navoiy, Bobur, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Cho'lpon, Usmon Nosir, G'afur G'ulom, Oybek, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov kabi ijodkorlar she'riyatida komil bo'y ko'rsatdi. Ya'ni xalqona qadriyatlar, urf-odatlar, tafakkur tarzi o'ziga xos talqin etilgan.

"Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon", "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonlari, sirli, sehrli ertaklar, alla, yalla, lapar va o'lanlarda xalqimizning orzu-umidlari, estetik ideali betakror poetik shaklda kuylangan. Asrlar silsilasida avloddan avlodga meros o'laroq yetib kelgan. Hamid Olimjon, G'afur G'ulom kabi yetuk so'z san'atkorlari ham dastavval folklor va mumtoz adabiyotdan ta'sirlanganlarini e'tirof etganlar.

Abdulla Oripov ham o'z tarjimayi holida olis bolalik yillarini shunday xotirlaydi: "Darvoqe, qish kunlarida to'ylarga qo'shni tumanlardan nomdor baxshilar kelib, tong otguncha doston aytishardi. Biz bolalar baxshini tinglay-tinglay bir-birimizga biqinishib uxlab ham qolar edik. Yanglishmasam,o'shanda Umur shoir degan baxshining dostonlarini ko'p eshitganman". [1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, - T.2000. 7-bet] Bundan tashqari, shoir onasi Turdi karvon qizining xalq qo'shiqlarini hirgoyi qilganini ham eslab o'tadi. Shuning uchunmi shoir lirikasida xalq og'zaki leksikasiga xos bo'lgan so'zlarni, maqollarni mahorat bilan qo'llanganini ko'p uchratamiz.

Archazorlar ko'rkin dilga ko'chirdim
Sening hushhavoli sohillaringda.
Cho'pon, baxshilarning bazmida bo'ldim,
To'ymadim hikoya, naqllaridan...
[2. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, - T.2000. 29-bet]

"Darband daryosi" deb nomlangan she'rdan olingan parchadan ko'rinadiki, shoir bir o'zbek farzandi sifatida ajdodlar merosini nihoyatda yaxshi ko'rgan va qadrlagan. She'rda aynan yuqoridagi to'rtlikdan so'ng uch nuqta qo'yiladi. Bu esa shoir poetik fikrini hali tugallanmaganini, nuqtalar zamirida o'sha qadim hikoya va naqllarning mazmuni, badiiyati ham mavjud. Qolaversa, shoir faqat Darband daryosi tasvirini ko'zda tutgani bois boshqa tafsilotlarga to'xtalishni istamagan.

Shoirning "Qasam dara" she'ri o'ziga xos voqeaband asar. Unda xuddi xalq dostonlaridagi kabi motivlar: or-nomus – ovchi; donishmandlik – chol; muhabbat va rashk – ovchining yori kabi personajlarda aks etgan. Aslida she'r yirik hajmga ega bo'lib, u xalqona qadriyatlarning ulug'lanishi, millatga xos bo'lgan vafo, sadoqatdan so'ylaydi. Qasam dara toponimining kelib chiqishi bilan bog'liq rivoyatlarni jamlagan holda go'zal badiiy tugal asar maydonga kelgan. Dara shu qadar bahaybat, tik va mahobatliki, hattoki ko'kdagi hilol uni ko'rish uchun o'z nurlaridan o'ziga zina yasaydi. Dara yonidan o'tgan shamol ustidan yelishga bir zum taraddudlanib qoladi. Qush va jonivorlar qorasini ham ko'rsatishga qo'rqadi. Ana shunday dahshatli qoyalar bag'ridan ovchini rashk, muhabbat, yoriga sadoqat kabi milliy qadriyat tuyg'usi omon olib chiqadi.

– Bolalarim, ov mehri uni
Tushiribdi daraga oson.
Ayol mehri, yor mehri ko'ring,
Olib chiqar jardan begumon.
[3. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, - T.2000. -70 bet]

So'z sehri oldida ojiz qolmagan inson topilmasa kerak. Aslida dahri dunda olam va odamdan-da qadimiyrog'i – So'z ekanligi allomalar tomonidan ko'p bora aytib o'tilgan. Demak, ibtido so'z bilan boshlangan ekan, basharning so'zga ehtiyoji shundandir, balkim.

She'rni ruhga sayr deb ham e'tirof etishadi. Kishi qalbini ismsiz dardlar yoxud iztiroblar kemirganida, bevosita badiiy adabiyot yordamga keladi.

Ijod mas'uliyatini teran his qilib, insoniyatni nurga yetaklovchi asarlar ham, aksincha moddiy manfaat yo'lida zalolatga chorlovchi satrlar ham bitilishi sir emas. Lekin shuning barobarida ijodkor o'zi anglamagan holda oniy lahzalarda ongu shuuriga yuborilgan payg'omlarni satrga ko'chiradiki, bunday asarlar umuminsoniylik kasb etib, mangulikka daxldor bo'lishi mumkin. Asarni badiiy tahlil qilar ekanmiz, obrazlar tizimi, so'zlarning o'z o'rnida ishlatilganligi, metaforalar natijasida kitobxonga ham o'tadigan hissiy to'lqinlardan hayratlanamiz. Lekin ularning zamirida yashiringan ijodkor "men"i, bir sahifa ustida soatlab bosh qotirgani, bir misrani o'n marotaba qayta ko'chirgani ko'p ham yodimizga kelavermaydi. Shoirni millat taqdiri befarq qoldirmas ekan, u najot yo'lini bobolar merosida, xalq qadriyatlarini unutmaslikda ko'radi. Masalan, "Jannatga yo'l" dostonida do'stlikka sadoqat, ota-onani qadrlash, nochor insonlarga yordam berish, mazlumlar ohini tinglash kabi milliy qadriyatlar o'ziga xos talqin etilgan bo'lsa, ikkiyuzlamachilik, kibr, zulm, manmanlik kabi illatlar qattiq qoralanadi. Yigit tilidan hayotlik chog'larida ota-onasini e'zozlagani aytiladi:

Ming marotaba shukr bo'lsin parvardigorga,
Mendan rozi ketgan ekan qiblagohlarim...

Bundan tashqari, shoir o'zbek xalqiga xos bo'lgan savob tushunchasi, yaxshilik tuyg'usini ham o'ziga xos falsafiy tarzda ifodalaydi:

Savob degan narsa axir tasodif emas,
Yetmish ikki tomirdan u oqib kelgusi.
Yaxshi odam yaxshiligin anglamay qolmas
U vijdonni bir vazifa deya bilgusi.

Shoirning "Hakim va ajal" dostonida esa ilm-ma'rifat, insonparvarlik, ziyo tushunchalari oliy qadriyat sifatida qalamga olingan. Doston daho bobokalonimiz Abu Ali ibn Sinoga bag'ishlangan. Unda ulug' hakimning bolalik yillari, tib ilmiga mehr qo'yishi barobarida oddiy insoniy fazilatlari ham ulug'lanadi.

Daf etdi u necha-necha qismat pandlarin
Necha tilu zabonlarni fath etdi oson.
Yillar o'tib, sharqning ulug' donishmandlarin
Davrasiga kirgan edi bu jasur inson.

Lekin ming afsuski, jaholat, hasad kabi illatlar hamon yashab kelmoqda va ibn Sino kabi o'nlab daholarga pand berib kelgan. Shoir buni asardagi Mirzo obrazi orqali ochib beradi. Ming taassufki, shoirga bu holat begona emas, uning ham dili gohida ana shunday kimsalar qilmishidan aziyat chekkan. Aks holda u bu qadar yorqin ifodalamagan bo'lar edi.

Shoirning yana bir dostoni "Ranjkom"dir. Asar shoirning shoh baytga teng falsafiy qarashlari aks etgan to'rtlik bilan boshlanadi. Ya'ni to'rtlik dostonning o'ziga xos debochasi hisoblanadi.

Azizim, dil qasriga beso'roq kira ko'rma,
Unda qo'sh-qo'sh ilonlar, ajdaholar yotadi.
Sen birovni toptay deb behudaga ot surma,
Har kimning o'z quyoshi o'z ufqiga botadi.
[4. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, - T.2001. -346 bet]

Xulosa qilib aytganda, milliy adabiyot millat tarixi, o'tmishi, ajdodlar yodi bilan to'yingan qadriyatlar majmuyi hamdir. Iste'dodli shoir va yozuvchilar ana shu milliylikni unutmagan holda qalam tebratadilar. Milliy merosni obrazli tushunchalar, falsafiy hukmlar bilan yana avlodlarga qoldirishda ma'naviy ko'prik bo'ladilar. Sevimli shoirimiz Abdulla Oripov ham ana shunday betakror so'z san'atkorlaridan edi. Uning adabiy merosi yana uzoq yillar xalqimiz ma'naviyatiga xizmat qilishi shubhasiz.

Ravshanxo'ja RASULOV,
Chirchiq davlat pedagogika instituti
professori, filologiya fanlari doktori

KELAJAK – TIL SOHIBLARINIKI

Suqrotdan: "Dunyoda eng qiyin va eng og'ir ish nima?" – deb so'raganlarida, "So'zlash", – deb javob bergan ekan. Buyuk adibimiz Abdulla Qodiriy esa: "So'z so'zlaganda, undan jumlalar tuzganda uzoq andisha kerak", – deganlar. So'zlash til faoliyati, tildan foydalanish, til orqali g'oya berish va g'oya olishdir. Tinglovchi ruhiyatini – uning diqqat-e'tiborini to'liq egallashdir. Demak, tilga alohida e'tibor, alohida hurmat bilan munosabatda bo'lish shak-shubhasiz.

Bizni qiziqtirgan muammo-savol: qachondan, qaysi davrdan boshlab yoshlarni tilga, til amaliyotiga o'rgatishni boshlash kerak? Umuman, hozirda chet tilini o'rganishga bo'lgan munosabat qanday?

Til inson bilan uni o'rab turgan obyektiv olam orasidagi oraliq olamdir. Tabiat – jamiyat – til uchligining eng muhim, eng zaruriy nuqtasi tildir. Inson idroki va faoliyati uning tasavvuriga bog'liq.

Shunday ekan, insonning predmet, voqea-hodisalar, atrof-muhitga bo'lgan munosabati to'la-to'kis til bilan bog'liq.

Olimlarning fikricha, insonlarning tilga ilk munosabati bolaning tug'ilishi bilan yuz beradi. Aniqrog'i, bolaning tug'ilgan vaqtdagi yig'isi uning tildan foydalanishga bo'lgan dastlabki qadami, harakatidir. Demak, bola yig'isi uning dastlabki nutqi, tili, bolaning tashqi dunyoga bo'lgan dastlabki munosabati, emotsiyasidir. Bu his-hayajon, bizningcha, kommunikativ emotsiya bo'lmay, balki bolaning tashqi muhitga bo'lgan ilk munosabati, aniqrog'i, salbiy munosabatidir.

Bolaning tug'ilishi bilan til (nutq)ni qo'llashga bo'lgan intilishi, harakati uning tabiatida mavjud bo'lgan, yuzaga chiqishga tayyor turgan potensial imkoniyat bo'lib, bu imkoniyatning voqelikka aylanishi uchun jamoa, ijtimoiy muhit bo'lishi shart. Ma'lumki, til qobiliyati bizning tabiatimizda mavjud. Demak, biz insonning til qobiliyatidan juda erta foydalanishimiz, shunga alohida e'tibor berish zarur.

Shu o'rinda yuqorida aytilganlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim masala – chet tilni o'rganish muammosiga to'xtalamiz. Til o'rganish, aniqrog'i, chet tillarni o'rganish dunyo haqida yangicha qarash, tasavvurga ega bo'lishdir. Demak, til dunyoni anglash, uni tushunishda tengi yo'q manba, xazinadir.

Til (nutq) birligi bo'lgan so'z muayyan belgi sifatida tashqi dunyo bilan insonning ichki dunyosi orasida turuvchi ijtimoiy hodisa. So'z, so'z birikmasi, gap kabi birliklar borki, ularning har biri o'ziga xosligi, mukammalligi, murakkabligi, semantik imkoniyatlarining kengligi, muayyan axborot tashishi kabilar bilan kommunikativ jarayonga xizmat qiladi va ularning til o'qitish, chet tillarni o'rganish jarayonidagi xizmatlari beqiyos. Bu – alohida muammo.

Eslash joizki, olimlar (fiziolog, psixolog va pedagoglar)ning fikricha, bola va uning xarakteri shakllanish davri, ya'ni aqliy-mantiqiy-intellektual poydevorining qurilish davri 7 yoshgacha yuz beradi. Ushbu davr bola miyasining – faol o'sish va rivojlanish davridir.

Bolaning intellektual taraqqiyoti, rivojlanishi asosida ijtimoiy muhit yotadi. Bolaning aqliy-intellektual rivojlanish, tashqi signallar, "dunyo xabarlari"ni qabul qilish, ularning qiyofasi (obrazi)ni yaratish va eslab qolish jarayoni mutlaqo bosh miyaning fundamental qobiliyati asosida amalga oshadi. Uning boshqa qobiliyatlari (ijodga intilishi, predmetlar dunyosidan o'ziga kerakli narsalarni ajratishi va boshq.) esa keyinroq aynan qayd etilgan qobiliyat asosida yuz beradi. Bolaning go'daklik chog'ida olgan tashqi taassurotlari uning lug'at xazinasi yaratilishi, kengayishi va boyishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Akmiolog olimlarning fikricha, bola dunyoni, asosan, 5–6 yoshgacha qabul qiladi. Undan keyin esa u shu yoshgacha olgan bilim va taassurotlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi. Shuningdek, aynan ushbu yoshda bolaning xotirasi, esda saqlab qolish qobiliyati kuchli bo'ladi. Bola 5 yoshga to'lganida, uning bosh miyasi – fundamental miya hajmi katta yoshdagi odamlar bosh miyasining hajmi bilan teng bo'ladi. Aytmoqchimizki, farzandlarimizni yoshlik davridan, go'daklik paytidan boshlab o'z ona tili asosida chet tilini o'rganishga jalb qilish, qiziqtirish bola tarbiyasidagi eng muhim jarayondir. Bu – zamon talabi.

Xulosa shuki, biz farzandlarimizga go'daklik chog'idan til o'rgatishimiz, ularning tinglash qobiliyatidan to'liq foydalanishimiz shart. Kelajak – til sohiblariniki ekan, biz – ulug'lar til o'rganishdek o'ta muhim, o'ta dolzarb muammoga jiddiy qarashimiz va vaqt degan buyuk hakamni qo'ldan chiqarmasligimiz darkor.

Shoira JABBAROVA,
Termiz davlat universiteti Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

MUQOBILSIZ LEKSIKA O'ZGA TILDA QANDAY TARJIMA QILINADI?

Har bir til o'ziga xos egiluvchan, betakror aloqa vosita bo'lib, izchil taraqqiyot va o'zgarishlarga moyil hisobanadi. Til bilan birga har bir madaniyat ham rivojlanadi va o'zgaradi. Ijtimoiy hayot jadal rivojlanishi barobarida aql va tafakkur ham o'zgara boradi, bu esa, hech shubhasiz, til va madaniyatda aks etadi. Zamonaviy dunyoda ko'pgina ijtimoiy hodisalar global jarayonlar ta'sirida sodir bo'lib, madaniyatlar, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarning o'zaro ta'siri va uyg'unlashuvi uchun sharoit yaratadi. Demak, turli xalqlar orasida aloqalarning ortishi va rivojlanishi ularning bir-birini har tomonlama anglashiga, shuningdek, turli millatlarga mansub insonlar mentalitetining "tenglashuviga" xizmat qiladi.

Til turli milliy-etnik jamoalarga xizmat qilib, ularning ijtimoiy rivojlanishi bilan boyib boradi. Boshqacha qilib aytganda, har bir til lug'atida ma'lum etnik jamoaga xos bo'lgan fon bilimlar shakllanadi. Ushbu fon bilimlar millatning psixolingvistik, mental, madaniy ko'rinishlarini o'zida aks ettiradi. Shu tarzda, har bir tilda tarjima qilib bo'lmaydigan tushunchalar yoki muqobilsiz leksika shakllanadi. [1]

Muqobilsiz leksika deganda bir tildan ikkinchiga tarjima qilishda aynan o'sha ma'noni beruvchi so'zning mavjud emasligi tushuniladi. Muqobilsiz leksika, odatda, har doim ham lug'atlarda uchrayvermaydi. Lekin bu uning ma'nosini boshqa tilga yetkazib bo'lmaydi degani emas. [2]

Muqobilsiz leksika o'z mazmuniga ko'ra juda keng doira tashkil qiladi. Realiyalar mustaqil so'zlar sifatida muqobilsiz leksika doirasiga kiradi.

Muayyan bir xalq va millatga xos turmush tushunchalarini anglatadigan so'zlar realiya deyiladi. Lug'aviy ta'rifga ko'ra "realiya – bu moddiy-ma'daniy narsalar"dir. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda shu narsalarni anglatadigan so'zlar va ifodalar, shuningdek, o'z ichiga shunday so'zlarni oladigan qat'iy ifodalar "realiyalar" deb ataladi. Ingliz tili realiyalariga L.S.Barxudarov, G.D.Tomaxin, A.D.Shveyser, A.O.Ivanov va boshqa tadqiqotchilarning ishlari bag'ishlangan.

Til realiyalarini o'rganish, ularni tarjimada yetkazib berish, ularning leksikografik ta'rifi va lingvodidaktik taqdimoti bilan bog'liq muammolar lingomadaniyatshunos-tadqiqotchilar ishlarida yoritilgan.

Realiyalar tadqiqiga bag'ishlangan muhim asarlar sirasiga bolgar tarjimashunoslari S.Vloxov va S.Florinlarning "Tarjimada tarjima qilib bo'lmaydigan jihatlar" monografiyasini kiritish mumkin.

Tarjima matnlari, lug'atlar va so'zlashuv nutqidagi muqobilsiz so'zlarning ushbu guruhlarini aks ettirishning quyidagi keng tarqalgan usullarini belgilash mumkin: transkripsiya, transliteratsiya; gipo-giperonimik tarjima – turli munosabatda bo'lib turgan birliklar o'rtasidagi ekvivalentlikni belgilash; ma'nosi bo'yicha eng yaqin to'liqsiz ekvivalentni qidirish; perefrastik tarjima turlari – ta'riflovchi, eksplikativ, deskriptiv tarjima; kalkalash [3].

Realiyani ona tiliga o'girishda, avval, uning muayyan kontekslarda o'tab kelayotgan axboriy va uslubiy vazifalarini aniqlash, so'ngra tarjima tilida ularga har jihatdan mos, ayni paytda shu til me'yori va madaniyati darajasidagi so'zlarni tanlash zaruriyati tug'iladi.

Ma'lum xalq turmush tushunchalarini anglatadigan ko'pchilik xos so'zlar (realiyalar), o'zaro madaniy va ma'rifiy, iqtisodiy va siyosiy aloqalar natijasida turli xalq vakillariga tanish bo'lib qolgan so'zlar ikkinchi tilga transliteratsiya yo'li bilan taqdim etiladi.

Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi asliyatda qo'llanilgan milliy realiyalarning ikkinchi tilda mavjud bo'lmasligidir. Transliteratsiya xalqlar turmush tushunchalarini aks ettiruvchi realiyalarni tarjimada taqdim etishning eng samarali usullaridan bo'lib, uning yordamida asliyatning milliy xususiyati siqiq holda ifoda etiladi. Masalan, asliyat mansub bo'lgan xalqqa xos pul hamda masofa-uzunlik birliklari, ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, yegulik, ichimlik yoki geografik nomlar kabi ko'pgina tushunchalarni anglatadigan realiyalar transliteratsiya usuli orqali tarjima qilinadi. [4]

G'ijduvon – Gijduvon, palov – plov, bozor – bazaar, mulla – mullah kabi o'zbek turmush tarziga xos so'zlarni bunday tushunchalarni anglatadigan so'z birliklariga ega bo'lmagan ingliz tilida betarjima aynan keltirish asliyatining milliy xususiyatlarini saqlab qolish imkonini beradi. G'ijduvon – O'zbekistondagi qadimiy shaharlardan biri. Ingliz tilida "g'" harfi bo'lmaganligi bois bu so'z ingliz tiliga to'liq o'z shaklida o'tmagan, "o" harfi esa "a" harfi orqali ifodalangan. Bunga sabab tarjima bevosita o'zbek tilidan emas, balki vositachi rus tili orqali tarjima qilingan:

"...At the current exhibition the masters from the remote areas of the country, such as Urgut, Quva, ***Gijduvan*** and other regions, presented their art creations." (Today Uzbekistan, 19.11.10)

"Bozor" so'zida ham xuddi shunday o'zgarish kuzatiladi. Shunisi qiziqki, "bazaar" so'zi ingliz tilida o'zlashgan so'z bo'lib, xuddi shu shaklda ingliz tili lug'atiga kiritilgan. [5]

*"A few minutes ride from Siab **Bazaar** lies one of Uzbekistan's most spectacular sights: Registan Square." (Uzbekistan Airways, 15.03.18)*

*"Unfortunately, we arrive just too late to witness the process of cooking **plov**." (Uzbekistan Airways, 15.03.18)*

"Mulla" so'zi ingliz matnlarida ikki usulda tasnif etiladi: transliteratsiya – "mullah" va izohli tarjima orqali – "Student of Islam".

*"Then in the traditional **Nikah**, the **mullah** will read wedding prayers, and bride and groom will be asked to agree to the marriage." (Discovery Uzbekistan, 03.08.12)*

*"Once upon a time there lived a student of **Islam who had** a call at one of the Bukhara madrassahs." (Discovery Uzbekistan, 03.08.12)*

Birinchi matnda "mullah" so'zi transliteratsiya usulida tarjima qilingan bo'lsa, ikkinchi matnda esa "Student of Islam" – izohli tarjima orqali ko'rsatilgan. Birinchi matnda izohli tarjimadan foydalanilganida edi "mulla" so'zi o'quvchi uchun ancha tushunarli bo'lar edi. Biroq transliteratsiya usulidan foydalanishning ham o'z shartlari bor: agar o'quvchi uchun so'z notanish bo'lsa, kitobning so'ngida uning tavsifi berilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, turmush tushunchalari, geografik nomlarni aks ettiruvchi realiyalarning tarjima tilida uchramasligi transliteratsiya usulidan foydalanishni taqozo etadi va realiyalarning etnomadaniyatdagi o'ziga xosligini saqlab qolish va tarjima tili lug'at tarkibini kengaytirishga zamin yaratadi.

Gulzoda SOATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Adabiyotshunoslik (Turkologiya) fakulteti magistri

"TO'NYUQUQ" YODNOMASIDAGI TONUQUQ ISMINING O'QILISHI VA MA'NOLARI

Qadimgi turkiy yodgorliklar ichida "To'nyuquq" bitiktoshi alohida o'rin tutadi. To'nyuquq (Tonuquq) ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonining maslahatchisi va sarkardasi bo'lgan. To'nyuquq bitigini o'zi tirikligida 712–116-yillar orasida toshga o'yib yozgan. Bitikda uning oti *bilga Tonuquq* deb qayd etilgan bo'lib, bilga so'zi uning unvoni, *"bilimdon, alloma"* degan ma'noni bildiradi. Bitikning yozilgan sanasi aniq emas. Ba'zi olimlar u 712–716-yillarda yozilgan deb taxmin qilsalar, ba'zilari 720-yilda, ayrimlari 725–726-yillarda yozilgan deb hisoblashadi. U.Sertkaya matnda kechgan voqealarni tahlil qilar ekan, bitik, taxminan, 732–734-yillar orasida yozilgan, Tonuquq bu kezlarda 85 yoshlarda bo'lgan degan xulosaga keladi.

Butun sarkardalik sirlarini mukammal bilish bilan bir qatorda uch podshoning dono maslahatchisi lavozimini ham bajargan Tonuquqning ismi olimlar tomonidan turlicha o'qilib, turlicha talqin qilingan. Bunga sabab qadimgi turkiy yozma yodgorliklardagi noaniq runalardan biri – kishi ismidagi 𐰽 belgisi bilan belgilangan runadir. Ushbu belgi orqali bu ism 𐱅𐰇𐰽 𐰾𐰆 Tonuquq "To'nyuquq" yodgorligida 12 marta qayd etilgan. Shuningdek, bu nom ikki marta "Kuli-Chor" yodgorligida va bir marta "Bilga xoqon" yodgorligida runik yozuvga ma'lum bo'lgan harflar bilan 𐱅𐰇𐰋𐰾𐰆 shaklida ko'rsatilgan. Shu munosabat bilan S.Malov 𐰽 runasini **n** tovushining yana bir ko'rinishi deb, barcha 𐰽 belgilarni tovushning maxsus ohangi sifatida belgilagan. Olimlardan Turkiya turkologi Namiq Orkun bu runani **I** va G.Aydarov **ni** sifatida o'qiladi deb qaror qilgan. N.Orkunning so'zlariga ko'ra, bu belgini V. Tomsen **i** deb o'qigan.

Ushbu belgi bilan yozilgan Tonuquq ismidan tashqari, Urxun-Enasoy yodgorliklarida sakkiz so'z mavjud. Enasoy yodgorligida oltita so'z ishlatiladi, ulardan ikkitasi fe'l. Bu so'zlarni taqqoslab, ularning ma'nosini o'rganib, **yn** (кириллда **йн**) birikma holida o'qiladi degan xulosaga keldik, deydi qozoq professori O.Bekjan. Shunda To'nyuquq so'zining birinchi bo'lagi **to'n** emas **to'yn** so'zi bo'lib chiqdi. Akademik V.Bartold to'yin so'zini M.Koshg'ariy buddizmda uyg'urlarning diniy rahbari sifatida talqin qilgan, bu so'z mo'g'ullarga no'm (diniy kitob) so'zi bilan birga uyg'urlardan o'tgani XIII asrda Juvayniy tomonidan aytilgan, Juvayni bu so'zni xitoycha so'z deb hisoblagan, deydi.[1]

To'ynuquq so'zining ikkinchi qismdagi yo'q/yuquq so'zi "buyuk, yuqori" degan ma'nolarni bildiradi. Shunda bu so'zning *"baland bo'yli, yuqori martabali, eng aqlli, dono maslahatchi"* degan ma'nolari kelib chiqadi. Ikkinchidan, Yo'llug'tegin matnni yozayotganda metateza hodisasi ro'y bergan. Toyn so'zidagi y tovushi n dan keyinga o'tgan. Ya'ni **n** bilan **y** tovushlari joy almashgan. Shunda To'ynuquq so'zi To'nyuquq ko'rinishini olgan va shunday o'qila boshlangan[2].

To'nyuquq so'ziga turk olimi Ali Ulvi Elove: "Bu ikki qismli so'z, uning birinchi qismi turk tilida *"birinchi, to'ng'ich"* degan ma'noni anglatadi", deb ta'rif bergan. U M.Koshg'ariyning asaridan "to'n og'ul – to'ng'ich o'g'il" va "to'n qiz – to'ng'ich qiz" misollarini keltiradi. Hozirgi oltoy tilida "tun pala – to'ng'ich bola" degani, ismning ikkinchi *yuquq* qismi – fe'ldan yasalgan sifat degan fikrni aytadi. Demak, Elovening fikricha To'nyuquq so'zining ma'nosi "birinchi maslahatchi, "to'ng'ich maslahatgo'y"dir.

S.Klyashtorniy: "Elovening tadqiqi bo'yicha To'nyuquq ismi faqat "To'nyuquq" yodgorligidagina yozilgan bo'lsa, dalili isbotsiz bo'lar edi. Biroq To'nyuquq atamasi "Bilga xoqon" bilan "Kuli-chur" yodgorligida **ny** bo'lib, alohida harflar bilan yozilgani Elovening tadqiqiga qarshilikni kamaytiradi, – deydi[3].

Ergash Umarov o'zining "Urxun yozuvi" kitobida To'nyuquq so'zining o'qilishi va ma'nosi bo'yicha quyidagicha fikr bildiradi:

– Urxun yodgorliklarida shoxsimon runa 𐰽 bilan yozilgan olti so'z va ikki qo'shimcha bor. Olimlar bu runani turlicha o'qiydilar. S.Y.Malov **n**, boshqalar **y,** yoki **ny**, **yn** shaklida tushunadilar[4]. Shu sababli olti so'z va ikki qo'shimcha adabiyotlarda turlicha yozilib kelinmoqda. Bu runani to'g'ri o'qish nafaqat Urxun alifbosini, balki so'zlar ma'nosini to'g'ri tushunishga ham yordam beradi. Shuni hisobga olib, bu runa qanday tovushni anglatishini aniqlashga harakat qilamiz. Buning birdan bir yo'li shoxsimon 𐰽 runali so'zlarni "Devonu lug'at-at-turk"dagi shu so'zlar bilan qiyoslashdir. Tu:i:yo'qo'q yodgorligi va devonda kichraytirish – so'z qo'shimchasi mavjud. Bu affiks-so'z runa bilan 𐰴𐰽, 𐰴𐰽𐰢, devonda esa arab yozuvida yozilgan. Mahmud Koshg'ariy bu affiksni quyidagicha yozadi: *qi:ya* kichraytirish qo'shimchasi: *o'g'ilqi:ya-o'g'ilcham, qizqi:ya-qizcham. Qi:ya* so'z affiksi hozirgi o'zbek tilida eshikni *qiya* (oz) ochmoq tarkibida saqlanib qolgan. Ammo uning **n** li shakli *qi:na* do'ndiq*qina* ko'proq ishlatiladi.

Arab yozuvidagi so'z – qo'shimcha runa bilan yozilgan affiksga qiyoslash shoxsimon runa 𐰽 *i:y* tovushini anglatishini ko'rsatadi.

Yana bir misol. Ikkala yodgorlikda kambag'al ma'nosidagi so'z uchraydi. Urxunda bu so'z shoxsimon runa bilan 𐰴𐰇𐰺, "Devon"da arab yozuvi bilan yozilgan.

M.Koshg'ariy bu so'zni quyidagicha yozgan: *jig'a:i:y* – kambag'al. Lug'atshunos bu so'zni *i:y* diftong ishlatilganini ko'rsatish uchun yoy ostiga *i* ni ifodalovchi kasra belgisini qo'ygan. Bu misol ham run yozuvidagi shoxsimon 𐰽 belgisi *i:y* tovushini anglatishini ko'rsatadi. Agar

bu ma'lumotga asoslansak, yodgorlikdagi sarkarda ismi 𐰚𐰚𐰃 𐰾𐰆 **(Tu:i: yo'qo'q)** shaklida yoziladi. Bu ismni To'nyuquq shaklida yozish va o'qish mumkin emas.

Tu:i:yo'qo'q ismi turkiy tildagi *to'ymoq* fe'li bilan bog'liq. Bu fe'l qadimgi turkiy tilda *anglamoq, tushunmoq* ma'nolarini anglatadi. Undan yasalgan *tuyug'siz* so'zi shevalarda ongsiz, aqlsiz ma'nolarida ishlatiladi. Bu ma'lumotlar bizga sarkarda ismi ikki qism Tu:i:yo'q (aqlli) + *o'q* ta'kidlash qo'shimchasi)dan iborat ekanligini ko'rsatadi. Afsus, shu vaqtgacha bu so'z To'nyuquq shaklida noto'g'ri yozilib, ma'nosi turlicha izohlab kelindi. Fransuz olimi L.Jiro bu ism *to'ni yuquq,* ya'ni kiyimi yo'qlik ma'nosini anglatadi, deb hisoblaydi. B.Nadelyayev *tuyuq-o'q-tuyoq o'q* so'zlaridan iborat, deb ko'rsatadi.

Agar shoxsimon runa 𐰃 *i:y* fonemasini anglatsa, toshbitikdagi 𐰃𐰾𐰚 so'zi *qui:y* (hozir qo'y), xitoy kalimasi - 𐰃𐰆𐰇𐰋 - **qi:tai:y** shaklda talaffuz qilinganligi ma'lum bo'ladi.

Professor Nasimxon Rahmonov qahramonimiz ismini To'n:yuquq tarzida talqin qiladi. U "Turk xoqonligi" risolasida To'nyuquq shaxsiga alohida to'xtalib: "To'nyuquq turk zadagonlarining Tabg'ach imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan o'g'illaridan biri edi. To'nyuquqning xitoycha nomi Yuanchjen ham xitoyparastlik sabab qo'yilgan edi. Yuanchjen "To'nyuquq" so'zining aynan tarjimasi bo'lib, "To'ng'ich javhar" degan ma'noni bildiradi", deydi.

Turkolog olim Qosimjon Sodiqov "Ko'k turk bitiklari: matn va uning tarixiy talqini" asarida To'nyuquq ismining o'qilishi, ma'nosi va shaxsiga shunday munosabat bildiradi: "Turkiy bitiklarda uning ismi **n** yoki **ny** bilan ikki xil yozilgan. Tonuquq hamda To'nyuquq. Avvalgi shaklidagi **n** talaffuzda **ny** shaklida bo'lgan deyish mumkin. Xitoycha manbalarda ham To'nyuquq haqida ma'lumotlar uchraydi. Mazkur manbalarda uning oti Yuan-chjen. U To'nyuquq ismining xitoycha tarjimasidir"[5].

Darhaqiqat, turkiy bitiklarda bu ism **n (Tonuquq)** va **ny (To'nyuquq)** bilan ikki xil yozilgan. "To'nyuquq" yodnomasi qahramoni To'nyuquq emas, **Tonuquq (Ton:uquq)** tarzida 𐰚𐰚𐰃𐰾𐰆 yozilgan, ammo bu ism "Bilga xoqon" va "Kuli-chur" bitiktoshida (**To'nyuquq**) 𐰚𐰚𐰇𐰾𐰆 tarzida yozilgani uchun Tonuquq so'zi ham aytilishida shunday shaklga kelib qolgan. Aslida "To'nyuquq" yodnomasi emas. "Tonuquq" yodnomasi bo'lishi kerak. **(Ton:uquq)** 𐰴𐰴𐰃𐰾𐰆 so'zidagi 𐰃 **n** va ba'zi hollarda **y** ga almashadi. Bu lahjalarda bo'lgan farqlardir. Bu haqida Devonda shunday deyiladi: "So'z o'rtasida yoki oxirida kelgan **y** ni arg'ular **n** ga almashtiradilar. Masalan, turklar **qoy** (qo'y) desalar, ular **qon** deydilar. Turklar kambag'alni **jig'ay** desalar, ular **jig'an** deydilar. Turklar **qayu nan** desalar, ular **qanu** deydilar".

"To'nyuquq" bitiktoshi Tonuquq ismidagi 𐰃 runasining o'qilishiga kelsak, bu runa **n** ga to'g'ri keladi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, lahjalardagi o'zgarishga uchrab **y** tarzida ham o'qiladi. Aynan shu sabab bu so'zning o'qilishi olimlar tomonidan bahs-munozaraga sabab bo'lgan. Yodnomada bu runa bilan yozilgan *qita**n**, azqi**n**a, ya**n**dimiz, jig'a**n**, qo**n*** so'zlari ham berilgan. Ammo bu so'zlar ma'nosi o'zgarmagan holda *qita**y**, azqi**y**a, ya**y**dimiz, jig'a**y**, qo**y*** singari ko'rinishida ham uchraydi.

Olimlar orasida bitiktoshlarda To'nyuquq ismining ikki xil ko'rinishda yozilgani va turlicha o'qilgani sabab, uning shaxsi haqida ham ikki xil fikr yuritilgan. Bir guruh olimlar "To'nyuquq" yodgorligidagi Tonuquq bilan "Bilga xoqon" va "Kuli-chur" yodgorligidagi To'nyuquq (Yuan-chjen) alohida-alohida shaxslardir deyishsa, yana bir guruh olimlar esa Tonuquq bilan Yuan-chjen bir odam deb hisoblaydilar.

"Bilga xoqon" va "Kuli-chur" bitiktoshidagi To'nyuquq bilan Yuanchjen bir shaxs bo'lib, bu ikki nomning ma'nosi ham bir xil: "To'ng'ich javhar" ma'nosini beradi.

S.Klyashtorniy xitoylik inspektor S.Denning bayonotidan To'nyuquqning Ashida Yuan-chjen nomi bilan Xitoyda tahsil olganligi haqidagi fikrni keltirgan. U yerda Ashida Yuan-chjen bilan birga Tibet qo'mondoni Lun Sanlin, Qidan qo'mondoni Sun Vanyunderdin ham bilim olganini, ular o'z ellariga borgandan keyin, Xitoyga qarshi harakat qilganini yozadi. Keyinchalik Se Dan chet ellik bolalarni o'qitishiga qarshi chiqdi va "Biz o'z sirimizni bilib, bizga qarshi ish tutadigan bo'lajak dushmanlarimizni tarbiyalamasligimiz kerak", – degan taklifni ilgari surdi. Yuan-chjen dastlab qabila nazoratchisi xizmatida edi. Uning Nishufu va Funyanning qo'zg'olonlarda qanday o'rni borligi aniq emas. 681-yilda u Xitoy qamoqxonasida edi.

Ba'zi tadqiqotchilar, Xitoyda o'qigan Ashida Yuan-chjen va To'nyuquq bir odam ekanligiga ishonishadi. Ma'lumki, F.Xirt bu fikrni asoslab, qo'llab-quvvatlagan. F.Xirtning fikridagi muhim kamchilik shundaki, urushda o'lgan Ashida Yuan-chjen o'ldirilmagan, ammo uning o'limi xitoy kotiblari uchun sir deb hisoblangan. Ikkinchi guruh tadqiqotchilari Ashida Yuan-chjen va To'nyuquq ikki alohida shaxs ekanliklarini taxmin qilishmoqda. Ushbu bayonotning tashabbuskori Lyu Mao-Tszay F.Xirtning fikri isbotsiz, deb o'z fikrlarini bildiradi. L.Gumilev Lyu-Tszayning fikriga qo'shilib, ular ikki alohida shaxs ekanligini ta'kidlagan.

To'nyuquq shaxsi haqida professor O'.Bekjan shunday fikr bildiradi: avvalgi fikrni qo'llab-quvvatlagan F.Xirt va uning tarafdorlari To'nyuquq yodgorligining dastlabki ikki jumla mazmun-mohiyatini noto'g'ri tushunishganligi sabab shunday fikrga kelishgan. Unda shunday deyilgan: *"Bilga To'nyuquq ban ozum Tabg'ach ilina qilintim. Turuk buduni tabg'achga ko'rur erti".* Ya'ni, *dono To'nyuquq men o'zim Tabg'ach elinda yaraldim (dunyoga keldim). Turk xalqi Tabg'achga bo'ysunar edi.* Bu yerdagi *qilintim* so'zini V.Tomsen o'zining tadqiqotida tarbiyalandim deb ko'rsatadi. Bunday tarjimaga Xitoy rahbarligidagi Ashida Yuan-chjenning Xitoy maktabida bilim olib, Eltarish xoqoni tomoniga o'tgani sabab bo'lgan.

Aslida, *qilintim* so'zining tarjimasi "men tug'ilganman" degan ma'noni anglatadi. Xuddi shu so'z Kultegin yodgorligida ham qo'llaniladi: *"Uza ko'k tangri, asra yag'iz yir qilintuqta ekin ara kisi og'li qilinmis"* ya'ni, "Yuqorida ko'k tangri pastda qo'ng'ir yer yaratilganda, ikkisining orasida odam bolasi yaratilgan". S.Malov o'z ishida bu so'zni yaralgan deb ko'rsatadi. Tarbiyalandim so'zi bir so'z bilan aytganda kamlik qiladi. Bu so'zlar Tonuquq Tabg'ach yurtida dunyoga kelganini bildiradi. O'sha paytlarda Eltarish xoqon ham, Tonuquq ham Sharqiy turk xoqonligi Tabg'ach mamlakatiga bo'ysungan. Shu hisobda Tonuquq 630–680-yillari orasida tug'ilgan.

Xitoy manbalariga ko'ra, Ashida Yuan-chjen 690-yilda Turgash xoqonligiga hujum qilgan va jangda o'lgan. Xitoy rahbarlari Yuan-chjenni yaxshi bilishlari aniq. Agar bu To'nyuquq bo'lsa, Bilga xoqon yodgorligida Tunyuygu emas, balki Yuan-chjen deb yozgan bo'lardi. Shuningdek, u Tabg'ach zaminida voyaga yetganligini ham ta'kidlagan bo'lardi. Bularga qo'shimcha Tonuquq bilan Yuan-chjen bir kishi emasligiga katta isbot yozma yodgorliklarning o'zida ham bor. Xitoy manbalarida aytilishicha, Ashida Yuan-chjen Qutlug'ning yoniga u xoqon bo'lib, to'qqiz o'g'uzni o'ziga qaratganidan keyin o'tgani keltiriladi. Turkiy yozma yodgorliklarda bu davrda Eltarish xoqonni ko'targan Tonuquqning o'zi ekanligi aniq ko'rsatilgan[6].

"To'nyuquq" yodnomasidagi Tonuquqning ismi qanday o'qilib, qanday ma'noni anglatishidan qat'iy nazar, u biz uchun haqiqiy vatanparvar shaxs timsolidir. Tonuquq turk xalqi fojiasi, alam-qayg'ularini ko'rar ekan, ota-bobolari asos solgan Turk hoqonligini tiklash bilangina erkinlikka erishish mumkin deb o'ylaydi va yetti yuz sonli askar bilan ko'p sonli dushmanga qarshi kurashadi. Xalqni nihoyatda og'ir vaziyatdan olib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, Urxun-Enasoy yodgorliklari turkiy xalqlarning umummilliy badiiy merosi bo'lib, o'zida sodda shu bilan birgalikda jo'shqin, ozodlik, tinchlik va osoyishtalik uchun kurashuvchan hayotni aks ettiradi. Tonuquq obrazi dovyurak sarkarda va dono maslahatchi, kerak bo'lganda xalqni birlashtira oladigan jasoratli boshliq sifatida namoyon bo'ladi.

---

[1]G'.Abdurahmonov, A.Rustamov.Qadimgi turkiy til. – Toshkent, 1982. 18-bet
[2]Qosimjon Sodiqov tabdilidan foydalanildi."O'zbekiston tarixi". Xrestomatiya. 2-jild. 1-kitob. – Toshkent: Fan, 2014. 102-103-betlar.
[3]O'.Bekjan. Turki kulbizik jazba yeskertkishteri tilinin semiotika-senantikaliq negizderi. – Almati Qazig'urt nashriyoti.2015. 220-bet.
[4]O'sha manba. 220-bet.
[5]O'sha manba. 223-bet.
[6]Raxmonov N. Bitiklar olamida. – Toshkent: Fan, 1990.17-18-betlar
[7]С.Й.Малов "Памятники древнитюркский писменности" 1951. – С.17.

Faridaxon TURSUNOVA,
Farg'ona politexnika instituti katta o'qituvchisi

KALVAK MAXZUM NUTQIDA FOLKLOR AN'ANALARIGA XOS SO'ZLARNING QO'LLANILISHI

(Abdulla Qodiriy asari misolida)

Abdulla Qodiriy (Julqunboy)ning kitobxonlar sevib mutolaa qiladigan "Kalvak maxzumning xotira daftaridan" hajviyasida voqealar asar qahramoni tilidan bayon qilinadi. Qahramon monologida namoyon bo'lgan jozibali tasvir kitobxonni o'ziga maftun etadi. Adib tasvirda nutqni xalq tiliga nihoyatda yaqinlashtiradi. Buni qahramon nutqida urf-odat va marosim nomlarini ifodalovchi so'zlar qo'llanishidan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Kalvak nutqida ishlatilgan folklor an'analariga oid so'zlarni quyidagicha tasnifladik:

1.To'y marosimi bilan bog'liq an'analar: "Oyoq to'yi", "Sunnat to'yi", "Nikoh to'yi" bilan bog'liq an'analar.

2. Diniy marosim bilan bog'liq an'analar: "Janoza" marosimi, "Ma'raka" marosimiga oid an'analar.

To'y marosimi bilan bog'liq an'analar. Ma'lumki, qadimda farzandining oyog'i kech chiqqan, yurmagan bolalar uchun "Oyoq to'yi" o'tkazilgan. Bu an'anada bolani bir savatga solib, yetti eshikka olib kirib, "Oyoqsizga oyoq bormi?" – deb so'raydilar. Shunda qo'ni-qo'shnilar "Oyoq bor!", – deya ko'ngildan chiqargan narsalarini ehson sifatida tortiq qilishadi. Kalvak juda kech yuradi, olti yoshga yetganda arang devorlarni ushlab yura boshlaydi. Bundan xursand bo'lgan "volidayi muhtaramayn" darhol bir "echku-yi bod raftorni" bo'g'izlaydilar. Echkining qonidan sopol tovoqqa solib, uning oyog'iga surtadi. Echkining so'ngak-sayog'ini qozonga solib, qarindosh-urug'larini to'plab uning "oyog' to'yi"ni o'tkazadi. Lekin o'choq boshiga o'zi yurib borgan maxzum badnafslik bilan "ustixoni-sergo'shtni" juda ko'p tanovul qilganidan yurolmay qoladi. To'yga kelgan "zaifalar" uni o'choq boshidan uyga olib kirib qo'yadilar. Bu holatni yozuvchi qahramon tilidan shunday tasvirlaydi: *"Bul hodisani har kim har narsaga yo'yib, birov kinna kirdi desa, birov hasan urdi, deb yana uchinchisi narsa tegdi deganda tag'in birisi ko'zikdi, deb. Ammo o'sha to'rt ehtimollarning borchasining choralari ko'rilganda, ya'ni kinna soldirilib, chillayosin qildirilib, ko'z tumor taqdirilg'onda ham bir foydasi ko'rilmay, faqir shu kasalim bilan olti oy chamasi ko'b qattiq riyozat chekib yotib qoldim"*. [1: 365]

Kalvak nutqida qo'llanilgan ***kinna*** etnografizmi kasallikni o'zgalarning suqlanib qarashi natijasi deb bilish va uni duolar o'qish, maxsus irim-chirimlar yoki so'z-gaplar aytish bilan qaytarishga qaratilgan harakat ishi bo'lib, xurofiy tushunchaga ko'ra, go'yo suqlanib qarash ta'sirida "kiradigan" kasallik, og'riqdir. ***Kinna solmoq*** - afsun aytib, silash, uqalash bilan "kinnani haydamoq", kasallikni yo'qotmoq. [2: 386]

Kasallikni davolash, mushkulni oson qilish va shu kabi maqsad bilan o'qiladigan duo va qoqiq-suquqlar ***chillayosin*** deb nomlanadi. [2: 368]

Xurofiy kishilar tushunchasiga ko'ra: birovning suqlanib, hasad bilan qarashi tufayli ziyon yetdi, shikastlandi, betob bo'lib qolishi ko'z tegdi, deyilib, unga tumor taqib qo'yilgan.

Tumor – diniy-xurofiy tushunchalarga ko'ra ko'z tegishidan, balo, ofat, ins-jinslardan saqlaydigan, ichiga duo bitilgan qog'oz joylashgan uchburchak narsa (odatda, bo'yinga, qo'ltiqqa, sochga taqiladi yoki kiyimning ichki qismiga tikib qo'yiladi).

Kalvak maxzum sakkiz yoshga yetganda yuziga "turshakdek-turshakdek" chechak toshib, o'zidan ketadi. Ota-onaning farzandidan umidlari uzilganda, o'n bir kun deganda ko'zini ochadi. Bu holatni qahramon shunday hikoya qiladi: *"Darhol yetti qadoq bug'doydan qayg'urmoch qayg'urib, ajib bir xursandliklar qilibdilar".* [1: 367]

Qayg'urmoch qayg'urish – etnografizmini yozuvchi xursandchilikni ta'riflash uchun keltiradi. Kalvak nutqi orqali bugungi kunda xalqimiz orasida unutilib borayotgan "Oyoq to'yi" marosimi, qayg'urmoch qayg'urish kabi udum va an'analar haqida ma'lumot beribgina qolmay, ona-onasi bag'rida "qog'ozda asrolg'on qanddek" arzanda bolaning ahvoliga achinish hissini uyg'otadi.

"Bul miyonada padari buzrukvor faqirning qo'limni hallollamoqqa harakat aylab va yana qo'llarida dunyo vajhi kaminaning kori xayrimga kofiy bo'lmog'oni uchun qirq besh tup daraxt sotub va yana mablag' ham ozliq qilub, boz bog'imizdan bir andak yer ham furuxt aylab, bag'dazan kori xayrni boshladilar". [1: 368]

Qo'lini hallollash – har bir musulmon oilasida o'g'il bola uchun o'tkaziladigan amal, elga osh berib o'tkaziladigan **sunnat to'yi**dir.

*"Bag'dazon malolatni ko'ngildan chiqarib farzandlarini bul baliyaddin ozod aylamakka qo'shush qilib ul ikki mehribon balittifoq faqirning **boshini ikki qilishg'a** qaror beribdirlar".* [1: 382]

Kalvakning ***boshini ikki qilmoq*** – uylantirib qo'yish masalasi og'ir kechadi. U yoshligida chechak kasali bilan aziyat chekkan kezlarining asorati yuzida qolgan. Buni maxzumning o'z so'zlaridan ham ko'rish mumkin: *"Agarda o'zingizga ham chechak chiqqan bo'lsa sezarsiz: misoli yuzingiz g'alvirak bodom".* [1: 367] Shu sababdan qizlar unga ko'ngil qo'yolmaydi, ko'rishi bilan aynib qolishadi.

Nihoyat, maxzum unashtiriladi va to'yni to'xtatib qo'yishlaridan tashvishga tushib: *"...yana bir necha kundan so'ng javobi bosavob beribdirlarkim, tezroq to'yni boshlaylik va yana **fotiha** qilg'ali kishilar yuborsun, deb.*

*... shul ahvolda tinchlik va osoyishtalik birlan to'ylar saranjom topub, alqissa, **nikoh** kuni surnay ila madrasadagi jami' mullabachchalar hamrog'lig'ida qayin otamizning uylarig'a bordik".* [1: 383]

Nikoh – er-xotinlikni shariat yo'li bilan rasmiylashtirish marosimi va shu marosimda domulla tomonidan o'qitiladigan shartnoma. [1: 502]

Yuqoridagi misollardan boshini ikki qilish munosabati bilan o'tkaziladigan marosimlar sovchilik, kuyov ko'rish, fotiha qilish, nikoh kabi folklor an'analariga oid so'zlar qo'llanilgan.

*"Ayollarning **"tortishmachoq"** degan odati hasanai purhikmatlari ba'dida ul to'tiqushg'a kamina lochini baland parvoz chovut qilub, ko'tarib bag'rimga bosib xotunlarning qiy-chuvlari ichida ul xo'bon bilan faqirg'a xoslang'on go'shangaga olib kirdim".* [1: 384]

Tortishmachoq etnografizmi nikoh to'yida kelin kuyovnikiga kelgandan keyin xotinlar kelin va kuyov tarafga bo'linib, bel bog'lab bir-birini tortishish o'yini (bunda, odatda, kuyov tomon yutadi). Kuyov tomon g'alaba qozonganlari uchun kuyov kelinni olib go'shangaga kiradi.

Kalvak maxzum uylangach, to'y kechasi kelinning o'ziga ko'ngilsiz ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu holatni shunday tasvirlaydi:

*"Alqissa, to'rtinchi kun uydagilar ul mochaxarni bir azayimxon domladin o'qutub tashlamoq andishasiga tushub, biror adovatpeshaning sihriga duchor bo'lub, eriga muhabbatsiz bo'ldumu, deb zabardast bir domlog'a o'qutub **"ezib ichki"** va **"tutatqi"** va **"tumor"**lar olub va yana faqirning o'zim iste'mol qildirg'onimda ham bir foydasi ko'rilmay tangligim ziyoda oshdi".* [385-b.]

Bu o'rinda ***ezib ichki, tutatqi, tumor*** etnografizmlari qo'llangan. Odatda kelin-kuyov orasidagi munosabat yomonlashganda kuchli domlaga duo yozdirilib, ezib ichirilgan. Tutatqi esa isiriq yoki biron bir tutab yonadigan narsaga duo o'qib, tutatish buyurilgan. Go'yo tutatqining tutuni odamlarga yopishgan ins-u jinlarni, balo-yu qazolarni daf qilgan.

"Padarning tiriklari faqirning davlatim ekan, toinki, mahalla imomatiga o'tub olg'unimcha ko'b abgorchiliklarni ko'rdim, mahsildin ham futur ketdi, ya'ni bir munchi duoxonlig' hamda ba'zi yigit yalanglarga issiq-sovuq qilub berishlar birlan ovora bo'lib qoldim". (1: 273)

Issiq-sovuq – kishini go'yo biror kimsaga "isitadigan" yoki undan "sovutadigan" amal, duo va sh.k.lar. **Isitma-sovutma** (etn.) kishini dilini o'ziga yoki biror kimsaga mayil qilish yoki undan "sovutma" maqsadida qilingan amal. [2: 335]

Diniy marosim bilan bog'liq an'analar. Kalvak maxzum otasi vafot etgach, uzoq va yaqin qarindoshlar o'rtasida o'tkazgan janoza marosimi haqida shunday deydi:

*"...bul xabar madrasaga yetishi bilan undagi jami'i katta-kichiklar bel bog'lashib yugurishib keldilar va yana kechasi birlan **takfin, tahjiz** choralarini ko'rib, o'z kissalaridan **to'n** va **yirtishlar** muhayyo qildilar".* [1: 397]

"Takfin va tahjiz" – kafanlash va jihozlash. Janoza kuni marhumning yaqinlariga, uy egalariga to'n-sarpolar kiydirish, matolar yirtib ulashishdir. Irimda go'yo mato yirtilganda marhumning joni bu oiladan uziladi.

Yirtish (etn) marhumni ko'mish marosimida qatnashgan kishilarga va uning yaqinlariga beriladigan bir bo'lak ro'molchabop gazmol; oqliq. [2: 347]

Kalvak otasining ma'raka marosimlari haqida shunday deydi: *"Faqir buzrukvorning barcha rasm, tag'ziyalarini tamom obro' birlan ato etishg'a bel bog'lag'an erdim, masalan, yetti, yigirma, **xatmi, qirq** va hokazolarni ul janobning o'z martabalariga qarab bajo keltirdi".* [1: 397]

Yetti – vafotning to'rtinchi kuni o'tkaziladigan marosim, ma'raka.

Yigirma – kishi vafotidan so'ng o'n yettinchi kuni yoki o'n to'qqizinchi kuni o'tkaziladigan marosim. [2: 347]

Qirq – kishi vafotidan so'ng o'ttiz yettinchi yoki o'ttiz to'qqizinchi kuni o'tkaziladigan marosim. [2: 583]

Adib Kalvak nutqi orqali xalqimiz orasida hukm surgan ba'zi bid'at rasm-rusumlar, urf-odatlar, an'analar, jumladan, diniy marosimlardagi isrofgarchiliklar va bundan kelib chiqadigan ko'ngilsiz oqibatlarni ibratli yo'sinda tanqid qilinadi. Keltirilgan misollarda ko'tarilgan muammolar xalqimizning bugungi kundagi ma'naviy hayotida ham mavjudligi, ularning nafratini uyg'otuvchi salbiy holatlardan saqlanishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Qodiriy. Diyori bakr. 3-jild. – Toshkent: "Info Capital Group" nashriyoti, 2018.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildlik, 1-jild. – Moskva: Rus tili, 1981.

Umidjon EGAMOV,
Guliston davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

SO'Z NAQSHINKORLIGI

Ilm-u adab ahli amaliy so'z bilan badiiy so'zni jiddiy farq etadilar. Badiiy so'zda amaliy so'zdagi mazmundan farqli o'laroq nafosat, ta'sirchanlik, mushohadakorlik, obrazlilik fazilatlari mujassamlashtirilgan bo'ladi. Mumtoz adabiyotda badiiy so'z ilmi – "ilmi bade'" (badiiylik ilmi) deyilgan. Goho bu atama "ilmi sanoe's" – "san'atlar ilmi" istilohi bilan ham yuritilgan.

O'zbekistonda bu ilm haqida ilk bor adabiyotshunos Yoqubjon Is'hoqov qayd etgan.[1]

Ilk mustaqil kitob – "She'r san'atlari" qo'llanmasi esa Vahob Rahmonov qalamiga mansubdir (1972-yil). Bu sohadagi ilmiy estafeta 1998–2000-yillarda professor A.Hojiahmedovga tegdi. Maqsud Shayxzoda, Botir Valixo'jayev, Burobiya Rajabova, Hayitboy Mirhaydarov va Zokir Mamajonov singari olimlarimiz mazkur soha bo'yicha ko'plab maqola, risola va taqrizlar yozganlar. Ushbu tadqiqotlarni kuzatganimizda Y.Is'hoqov uslubida badiiy san'atlarning tarixiy tadriji, V.Rahmonovda tasnif kengligi, A.Hojiahmedovda esa san'atlar sanog'ini ko'paytirish tamoyili yaqqol ko'zga tashlanadi.

V.Rahmonov tomonidan yozilgan "She'r san'atlari" kitobining ikki nashrida ham (2001, 2020) badiiy san'atlar miqdori yetmishdan oshiq. Uning yaqinda "Sharq" nashriyotida chop etilgan kitobining ikkinchi fazilati shundaki, unda matn ham kirill, ham lotin alifbosida berilgan. Kitobning qisqa so'zboshisida she'r san'atlari ta'limining barcha bosqichlardagi amaliyoti, ushbu badiiy vositalarning bayt saviyasini adabiy mo'jiza darajasiga yetkazish mumkinligi qayd etilgan. Chunonchi unda Shermuhammad Munisning bir baytidan o'n to'rt she'riy san'atni kashf etgani badiiyat ilmi mutaxassisi ilmiy idrokining ham mo'jizakorligini ko'rsatadi.

Kamina V.Rahmonovning bir maqolasida Alisher Navoiyning "Qaro ko'zum" g'azalining matlaasidan o'nta badiiy san'at belgilaganligini yaxshi eslayman. Mazkur kitob ham, menimcha, o'rta maktablarning 5–11-sinf o'quvchilari, akademik litsey o'quvchilari, oliy o'quv yurti talabalari, magistrantlar va doktorantlari va professor-o'qituvchilari uchun ham yuksak saviyali risoladir.

Jahon va Sharq poetikasi mutaxassislari o'rta asr bade'shunoslari kashf etgan san'atlarning o'tmish va hozirgi zamon adabiyotidagi amaliyoti bilan shug'ullansalar, V.Rahmonov bu san'atlarni nafaqat turkiy va forsiy manbalarda, hatto rus adabiyotidagi amaliyotini ham ilk kitobida (1972) kuzatgan edi. "She'r san'atlari" kitobining 2001-, 2020-yildagi nashrlarida V.Rahmonovning o'zi ham yangi-yangi san'atlarni kashf etgani diqqatni tortadi. Chunonchi, olim "Taqsir" san'atini kashf etganda, faxriya san'ati mohiyatiga chuqur kirib borib, shuning go'yo teskarisini ifodalovchi san'at yaratgan. Faxriyada o'z-o'zini maqtash, taqsirda esa o'z-o'zini kamsitish jozibasi bor.

Darig'o, Furqatiy, beilm qoldim,
O'zimni jahl zindonig'a soldim. (Zokirjon Furqat)

Mening shoirligim yolg'ondir ammo,
Fuzuliy she'riga oshiqligim rost. (Erkin Vohidov)

Yoki "Tazmin", "Iqtibos" san'atlari safiga "Tahdis" san'atining kiritilishi ham yaxshigina kashfiyotchilikning namunasidir. Bu hali she'r san'atlarining yangi-yangi xillari mavjudligini ko'rsatadi.

V.Rahmonov badiiy san'atlarni uch qism etib tasnif etishda "ma'naviy san'atlar", "lafziy san'atlar", "Mushtarak (ham ma'naviy, lafziy san'at mohiyatli)" o'n ikki, o'n uch asrlik an'anaviy tasnifni ma'qul topmaydi. Chunki, tasnif qilishdan maqsad ularning mohiyat jihatdan mustaqilligini dalillashdir.

Shuning uchun u yangicha tasnifni taklif etadi:
Ma'naviy san'atlar.
Lafziy san'atlar.
Harfiy san'atlar.

Ushbu tasnif poetika tadrijiy taraqqiyotidagi mutlaqo yangicha va oqilona taklifdir.

V.Rahmonov qalamiga ixtirokorlik xosligini uning "Qofiya va uning navlari" haqidagi fikrlari ham ko'rsatib turibdi. Uningcha, qofiyaning "xatqofiya", "mukarrar qofiya", "ichki qofiya", "boshqofiya", "zulqoftayn", "tajnisli zulqoftayn", "raddul qofiya", "musallas qofiya", "murabba' qofiya", "mulamma' qofiya", "musalsal qofiya" kabi turlari borki, ushbu istilohlarning chorak qismidan ko'prog'i V.Rahmonov topgan – ixtiro etgan nazariy istilohlardir. Muhimi muallif bularning mohiyatini mumtoz adabiyot misollari orqali asoslab bergan.

Bizga ko'pdan tanish bo'lgan san'atlar mohiyati va misollaridan ham ko'p yangiliklar topamiz. Bu san'atlarning har biriga yuzaki qaraganda ozroq o'rin ajratilganday tuyuladi. Aslida esa fikriy mukammallik, tugallik va ohorlilik har qanday yuqori saviyali kitobxonni mamnun etadi.

[1] "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida 1970–1971-yillarda "O'zbek klassik poetikasidan ma'lumotlar" turkumida ushbu olimning maqolalari e'lon qilingan.

Feruza MAMATOVA,
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ingliz tili o'qituvchisi

BA'ZI OILAVIY MUNOSABATLAR STEREOTIPLARINING MAQOLLARDA AKS ETISHI

(Ingliz va o'zbek maqollari misolida)

Har bir xalq, millat atrofdagi olam, odamlar, boshqa madaniyat vakillari haqida o'z tasavvurlariga ega. Jamiyatda o'zi, o'z an'analari, madaniyati doirasida va, xuddi shunday, o'zga til va madaniyat sohiblariga nisbatan aniq stereotiplar yig'iladi. "Stereotip" fenomeni va tushunchasi oxirgi yillarda tilshunoslar, sotsiologlar, ruhshunoslar, etnograflarning diqqatini tortib kelmoqda. Shu kunga qadar U.Dippman, I.S.Kon, V.V.Krasnix, Yu.A.Sorokin, N.V.Ufimseva, A.V.Pavlovskaya, I.Yu.Markovina kabilar stereotip masalasi bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar. Stereotiplarni o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarning amaliy ahamiyati o'zaro aloqalar, hamkorlik, millatlararo munosabatlar rivojlanayotgan davrda yanada kuchayib boradi. Biroq, asrlar davomida shakllangan an'analar, madaniyatlarning xilma-xilligi, ularni anglashning o'ziga xosligi, tillardagi tafovut – shu barcha omillar turli madaniyat xalqlarining o'zaro munosabatiga, shu bilan birga ularning hamkorligi va hamjihatligining samaradorligiga ham ta'sir o'tkazadi. Til va madaniyatning o'ziga xosligi boshqa madaniyat tomonidan qabul qilinishi doirasida stereotip tushunchasi ham o'rganiladi. Ilk marotaba "stereotip" terminini Amerika jurnalistikasida 1922-yili "Ijtimoiy fikr" deb nomlanuvchi asarini nashr qilgan Uolter Lipman ishlatgan. Bu so'z bilan u jamiyat insonlarni toifalashga harakat qilishda foydalanadigan usulni tasvirlamoqchi bo'lgan. Lipmanga ko'ra stereotiplar, birinchidan, insonning murakkab ijtimoiy obyektlarni qabul qilishga sarflaydigan kuchini tejaydigan, ikkinchidan, uning qadriyatlari, huquqlari va pozitsiyasini himoyalovchi inson miyasidagi madaniyat orqali tartibga solingan, aniq "olamning manzarasi"dir [6:204]. "Stereotiplar odamga butun olam haqida tasavvur uyg'otish, o'zining tor ijtimoiy, geografik va siyosiy olamidan chiqishga imkon beradi," deb yozadi S.G.Ter-Minasova [13:392]. Stereotip masalasi yuzasidan E.S.Bogardus, K.U.Vreyli, D.Kats, U.Klark, U.Olbig, T.Perkins, U.G.Samner, U.Xelrexa kabi xorijiy izlanuvchilar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Keyinchalik, stereotipning tabiatini aniqlash va uning madaniyatdagi o'rnini belgilash borasida rus olimlari V.S.Ageev, E.YA.Basin, V.M.Krasnov, V.P.Levkovich, N.G.Pankova, Yu.E.Proxorovlar shug'ullanishgan. Madaniyatlararo muloqot sharoitida stereotipni T.G.Grushevitskaya, V.D.Popkov, A.P.Sadoxin, S.G.Ter-Minasova va boshqalar o'rganganlar. Rus olimi Krasnix stereotip haqida shunday fikrni ilgari suradi: "Stereotip – jamoa ongida mavjud bo'lgan olam manzarasining barqaror qismi. Bu predmet yoki hodisa haqidagi tasavvurning milliy-madaniy xususiyatiga bog'liq turg'un, aniq tasavvurning aniq bir obrazi, mental manzara" [5:192]. Odam o'z xalqi madaniyati orqali bog'lab qo'yilgan stereotiplar olamida yashaydi. Stereotiplar bolalikda o'zlashadi va juda sekin o'zgaradi, vaholanki, ular aks ettirmoqchi bo'lgan reallikni muqarrar ravishda noto'g'ri talqin qiladi. Ma'lum bir madaniyatga taalluqli bo'lish, ma'lum bir jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida takrorlanadigan tayanch stereotip yadroli bilimlarning mavjudligi orqali belgilanadi. Shu o'rinda, stereotip faqatgina mental obraz emas, balki uning verbal sirtqi niqobi ham ekanligini e'tiborga olish kerak. Stereotiplar baribir etnik tilda, uning leksikasida, milliy tilning peremiologik fondida va xalq og'zaki ijodining boshqa mahsulotlarida o'z ifodasini topadi. Stereotip mental-lisoniy uyg'unlik tizimiga taalluqli bo'lib, tilda aloqa qiluvchilarning milliy tasavvurlarini belgilaydi. U yagona hodisa sifatida harakatlanmaydi, chunki stereotiplar polifonik (ko'p ovozli) va umumlashtiruvchi obraz kabi harakatlanadi. E.Bartminskiyning fikriga ko'ra, muayyan bir tilda so'zlashuvchilarning ongida aksariyat qismi bevosita ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lmagan stereotiplarning murakkab tizimi yashaydi.

Keyinchalik, "stereotip" tushunchasini talqin qilish borasida zamonaviy tilshunoslikda talab kuchaydi. Jamiyat ta'siri ostida, odamlar bilan muloqotdan olingan taassurotlar natijasida odamda baholovchi etalonlar shakllanadi va uning yordamida tushunchalarning toifalashuvi amalga oshadi, degan fikr keyinchalik J.Kolen, G.Tejfal, I.S.Kon, Yu.D.Apresyan, E.Bartminskiy, V.A.Rijkov, Yu.A.Sorokin, Yu.E.Proxorov, P.N.Shixirev, S.M.Tolstaya, T.G.Stefanenko, A.K.Bayburin, O.V.Belova, I.A.Golubovskayalarning izlanishlari uchun zamin bo'ldi. Qayd etish lozimki, stereotiplar tilda paydo bo'ladi, lug'at boyligida saqlanadi, ammo stereotip bilimlar nafaqat so'z yoki oddiy mulohazalar, balki hodisalar haqidagi murakkab tasavvurlar vositasi orqali namoyon bo'ladi. [1:271].

Stereotiplar olam manzaralarining obrazi yoki qismi sifatida ongda yashaydi, tilda mustahkamlanadi va namoyon bo'ladi va, shu bilan birga, ular lisoniy stereotiplardir. "Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, – deb yozadi E.Bartminskiy, – stereotiplarni munosib leksemalar, xususiyatlar darajasida jamoa xotirasida mustahkamlash, tasodifan paydo bo'lmaydigan emas, balki turg'un, takrorlanuvchi xabar sifatida tasvirlash va ular bo'yicha izlanishlar qilish mumkin" [2:12]. Aksariyat tilshunos olimlar o'z izlanishlarida "stereotip" va "lisoniy stereotip" o'rtasidagi o'xshashlikni ko'rsatib o'tishgan va bu izlanishlarda til asosiy obyekt sifatida xizmat qiladi deb ta'kidlanadi. "Tilshunos uchun stereotiplar ham narsalar obrazi, ham odam obrazi sifatida olamning butun manzarasini qamrab oladi" [2:21]. Biroq, barcha tushunchalar ham stereotiplarning yaratilishiga asos bo'lmasligi mumkin, faqatgina tarkibiga ijtimoiy birliklar kiruvchilari va predmet hamda voqelikdagi hodisalarni belgilaydiganlarigina til egasi uchun ijtimoiy muhimdir. "Tilda barchasi emas, faqatgina inson va uning hayot faoliyati uchungina faol bo'lgan hodisa va predmetlar mustahkamladi, chunonchi, bir xalq uchun dolzarb bo'lgani, boshqa biriga dolzarb bo'lmasligi mumkin" [6:156].

Stereotiplar madaniyatni tilda ifoda etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, maqol va matallarda muayyan bir millatning turmush tarzi, urf-odatlari, an'analari, qadriyatlari o'z aksini topadi. Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy-madaniy an'analar sirasiga kiruvchi oilaviy an'analar ham o'zbek, ham ingliz maqollarida ifodalangan. Oilaviy an'analarning asosiy ko'lami bo'lgan oila a'zolarining o'zaro munosabatlari har bir millat, madaniyat vakili uchun o'ziga xosdir. Ingliz va o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan oilaviy an'analar orasida bobo, buvi va nevaralar o'rtasidagi munosabatlar mavjud.

Qadimda Britaniya hududida ingliz oilalarining ko'p avlodli turmush tarzi: buvi, buva, yosh er-xotin va ularning bolalari bir tom ostida yashashi va umumiy xo'jalikni boshqarishi muayyan jihatdan saqlanib qolgan. Britaniyada o'tgan bir necha asr davomida hukm surgan ijtimoiy tuzum yuzasidan olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar bundan dalolat beradi [8:128–139]. Ko'p avlodli oilada buvi va buva oilaning boshi sifatida nevaralarining ota-onalaridan ko'ra faolroq qatnashadi. Buning natijasida ingliz oilalarida buvi, buva va nevara o'rtasida an'anaviy munosabatlar sekin-asta shakllana boshlandi.

Grandparents (buvi va buva) – *grandfather* (buva) va *grandmother* (buvi) larning umumiy nomi. Odatda, ingliz xalqida nevaralar tilida ular turlicha nomlarga ega: *grandma, granny, grandpa, grandad*. "Muhtasham, ulug'vor" ma'nolarini anglatuvchi *grand* so'zi *father* va *mother* so'zlariga qo'shilganda qo'shma so'z *grandparents* ni hosil qiladi. Ya'ni, bir tomondan, buvi va buva yoshi jihatidan ulug', katta bo'lsa, ikkinchi tomondan, boy hayotiy tajribaga ega, o'zidan keyingi avlodlarga namuna bo'luvchi kishilar bo'lgani uchun *grand* leksemasi ushbu ma'nolarning asosidir.

Ingliz tilining etimologik lug'atida berilishicha *grandson* (o'g'il nevara), *granddaughter* (qiz nevara) so'zlari umumiy *grandchildren* (nevaralar) bo'lib, *grandfather, grandmother* so'zlarining analoglaridir [9:140].

Ingliz olamining lisoniy manzarasida bobo, buvi hamda nevaralarning obraz-stereotiplari maqollarda aks etgan. Ular son jihatidan ko'p bo'lmasa ham, mavjud maqollar muayyan ravishda ingliz lingvomadaniyatida oiladagi bobo, buvi va nevaralar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ifoda etadi. Shunisi ravshanki, ingliz tilida so'zlovchilarning lisoniy ongida ingliz milliy ruhiyati va mentalitetiga xos bo'lgan stereotipli obrazlar joylashgan. Masalan, *Grandparents are proud of their grandchildren, and children should be proud of their parents* (Bobo va buvilar o'z nevaralaridan faxrlanadilar, nevaralar o'z bobo va buvilaridan faxrlanishi kerak). Aytib o'tish joizki, faxr ingliz lingvomadaniyatida nafaqat iftixor, g'ururni, balki qadriyat, meros kabilarni aks ettiradi va muhim madaniy konotatsiyaga ega. Oilada nevaralarning bobo va buviga hurmatda bo'lishi, ularning tajribalariga suyanishi, nasihatlariga rioya qilishi maqsadga muvofiqligi va, aksincha, ulardan aqlliroq bo'lishga urunishi, ularning emas, o'z fikrini ma'qullashi to'g'ri emasligi ingliz lingvomadaniyatida quyidagi maqolda o'z ifodasini topgan: *Don't teach your grandmother to suck eggs* (Buvingga tuxum yutushni o'rgatma).

O'zbek maqollarida bobo va buvi obrazlari alohida, yakka holda ifoda qilinmagan. Bobo va buvi obrazlari o'zbek olamining lisoniy manzarasida aks etgan maqollar kamchilikni tashkil qilsa ham, ushbu kam sonli maqollarning mazmunida ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi iliq, mehr va muhabbatli munosabatlarni, ular o'rtasidagi o'ziga xos yaqinlik ifoda qilgan holda asl o'zbek mentaliteti, boy oilaviy an'analarini aks ettiradi. O'zbek xalqida bobo va buvi farzandining farzandiga o'zgacha munosabatda bo'ladi, uni olamdagi eng totli, eng aziz ne'mat sifatida tilga oladi: *Danagidan mag'izi shirin; Bolaginamning bolasi, qanddek o'rik donasi.* Bobo va buvi haqidagi tasavvurlar o'zbek maqollarida "qari" obrazining verbalizatsiyasida muhrlangan. Masalan, *Qari bilganni pari bilmas; Har keksada-bir naql; Qarida xislat ko'p.* Er-xotin va ularning farzandlari bilan bobo va buvilarning birga bir uyda yashashi o'zbek oilaviy an'analaridan biri. Zero, o'zbek dunyoqarashida qarib va keksayib qolgan bobo va buvilarni nafaqat e'zozlash va qadrlash mavjud, balki yosh avlod uchun bobo va buvilar hayotiy tajribaga boy, ko'p narsani bilguvchi kishilar sifatida o'z o'rniga ega: *Qarisi bor uyning zari bor; qarisi bor uyning parisi bor; Qariyali uy – maktab.* O'zbek milliy qadriyatlarida keksayib qolgan bobo va buvilarga kuchli hurmat, e'zoz ko'rsatish muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi: *Sen siylasang qarini, Tangrim siylar barini. Qariyani hurmat qilgan – baxtli bo'lur.* Bobo va buvilar o'zbeklarda oiladagi aka, ukalar, opalar, singillar va boshqa qarindoshlarni bir joyga birlashtiruvchi kishilar hisoblanadi. Bu fikr o'zbek olamining lisoniy manzarasida o'z aksini topgan: *Qariya – qarindoshlar poytug'i.* Oila a'zolarini bir-biriga yaqinlashtirish, ular o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf qilishda bobo va buvilar katta o'rin tutadi.

Charos ABDULLAEVA,
senior teacher at Tashkent State University
of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

PECULIARITIES OF LITERARY DISCOURSE

Discourse (lat. discursus – running back and forth; movement; communication, conversation) is speech, the process of language activity; manner of speaking. This term has many connotations for a variety of human sciences, the study of which assumes studying the functioning of the linguistic activity (linguistics, semiotics, literature studies, sociology, ethnology, philosophy and anthropology).

Currently, there is no generally recognized, but universal notion for "discourse" that is able to capture all instances of their usage. The literary discourse, primarily, carries the image of the culture of a particular phase in the history of each nation's development. The literary discourse is significantly distinguished with other forms of discourse. Without the idea of literary discourse, it is impossible to specify the characteristics of people's mentality that the readers belong to, their national concepts and stereotypes, analogous concepts and stereotypes that are subject to interpretation, reinterpretation, and evaluation in the text, the interactions, occurring in the procession of actualization of the literary text.

Essential for better perception of the fictional text's actualization process will also be highlighting the specificities and aspects of its structure, which distinguish it from any other text. As claimed Teun A. van Dyck, it would be inaccurate to consider a piece of fictional work only as a set of certain discourses, the uniqueness and originality of which is justified exclusively by their linguistic features.

Literature (including contemporary literature) is not significantly distinct, and sometimes does not vary at all from other types of discourses in its grammatical, linguistic and

semantic features. In determining the literary discourse, the primary role is played not by these features, but by its pragmatic functions. It should be important to mention that the most widely recognized theory of discourse is the communicative (G.V. Kolshansky, I.R. Halperin, N.E. Enkvist, A.T. van Dyck). In accordance with this theory, we understand artistic discourse as a communicative process that does not necessarily serve such purposes as question, promise, assertion, threat, which are more typical of interpersonal communication, or any other set of purposes specific to other types of discourse. The communicative model of discourse description implies:

- considering the text as a process of a dynamic model of a two-way communication act;
- examining the text from the perspective of relations between the users of communication, proceeding from the theory of communicative postulates and principles;
- study of the processes of structure (emergence) of the text and processes of perception (comprehension and interpretation) of the text taking into account the factor of the addressant and the recipient.

Since linguistics is transitioning to an anthropocentric paradigm, the functioning of language is related to the cognitive activity of any person, it follows that two fundamental functions should be taken into account in the analysis of discourse: the communicative and cognitive. Relying on the statement formulated by E.C.Kubryakova, that "every linguistic phenomenon can be considered adequately described and clarified only if it is considered at the intersection of cognition and communication [Kubryakova 1990:37]. Literary discourse, with certain features of other types of discourse, has a radically different purpose: each writer, through his work, attempts to influence the "spiritual space" of his reader as a recipient. By "spiritual space" we understand the reader's value system, reader's basic knowledge, reader's views on life and personal reference points, the knowledge of which allows the author to influence the recipient of the text, as well as allows to change reader's views and standpoints on the actual problems of society.

From the aforementioned, we can draw some parallels between the objectives that the art discourse and the political discourse, as well as the ideological discourse, but it is worth noting that its main difference from them is the uniqueness of the text structure and specificity, significantly distinguishing the art discourse from other types of discourse. In a number of works by contemporary authors, discourse is interpreted as a process of text formation and reading (V.A. Milovidov, N.A. Kulibina, V.I. Tyupa). For instance, N.A. Kulibina suggests distinguishing a book as a typewritten text and a book in the process of its reading by a reader. In the first case – the text in its graphic completeness, and in the second – it is a literary discourse created in the process of perception, i.e. the discourse is perceived as "a continuous predictable-unpredictable process of interaction between the text and the real (not imagined by the author) reader, considering or disturbing the "instructions" of the author, bringing to the text his information, which was familiar and/or unfamiliar to the writer ..." [Kulibina 2001:13]. Therefore, we can conclude from all the aforesaid that the concepts of "literary discourse" and "literary text" are related to each other, so it is essential to consider both of these categories when analyzing any literary text.

The main distinctive feature of text from discourse is that text is a result and discourse is determined as a process. With regard to multiple approaches to the definition of discourse, by "literary discourse" we understand the socio-cultural interaction that is occurring between the writer and the reader through the representation in the product of cultural, social, aesthetic and other values, as well as personal knowledge, knowledge and perceptions of the world and the attitude to reality, a system of beliefs, feelings, which allows us to influence, change and form the "spiritual space" of a person and can even cause the recipient of the text to have a certain emotional impact. In J. Searle's famous and often cited article "The Logical Status of Functional Discourse", J. Searle writes that there are two references in the literary text – "literature" and "fiction" [Searle 1979:71]. The "fiction" reference refers the reader to fictional objects and characters; within the "literature" reference we deal with real people and objects. However, the author concludes that the "literature" reference relates the language statement not to real objects but only to "images", i.e., individual mental projections of real objects, which are ontologically identical to the projections of "fictional" objects. In art, the creation of "fictitious" reality is based on "fiction" reference, the creation of many "possible worlds" – the fundamental principle of the literary text construction.

An essential part of any literary discourse are phraseological units, as they create bright literary images, making the narrative more vivid, interesting, colourful. In other words, the literary discourse is an integral part of the literary style. Literary discourse is inextricably linked to the notion of literary text. The main feature of literary discourse, which differs it from other types of discourse, is expressed in the use of conceptual and linguistic means in the literary text, as well as the fact that any literary discourse, just like the text as a whole and designed not only to inform the reader about certain events, but also to have an impact on his inner world: to enrich the inner world of the reader or change his views and values.

References

1. Арсентьева, Е.Ф. Фразеология и фразеография в сопоставительном аспекте (на материале русского и английского языков) / Е.Ф Арсентьева. –Казань, 2006. – 172 с.
2. Кубрякова Е.С. Аналогия // Лингвистический энциклопедический словарь / под ред. В.Н Ярцевой. – Москва: Сов. Энцикл. – 1990. – С. 37.
3.Searle John. The Logical Status of Fictional Discourse // John Searle. Expression and Meaning. Studies in the Theory of Speech Acts. – Cambridge, Cambridge Univ. Press, 1979. – pp. 58–75.
4. Кулибина Н.В. Художественный дискурс как актуализация художественного текста в сознании читателя // Мир русского слова, 2001. – №. 1. – С. 13.

Манзура РАДЖАБОВА,
учитель II категории Государственной общеобразовательной специализированной школы с углубленным изучением естественных наук при Министерстве народного образования

ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ РУССКОМУ ЯЗЫКУ ВО ВРЕМЯ ПАНДЕМИИ

В современных условиях широкое использование достижений мировой науки и инновационной деятельности становится важнейшим фактором динамичного и устойчивого развития всех сфер жизнедеятельности общества и государства, построения достойного будущего страны. До недавнего времени такие понятия как дистанционное обучение (ДО), открытое обучение и др. практически не разделялись. Но в настоящее время ДО доказало свою значимость и востребованность, особенно во время самоизоляции. Таким образом, одной из основных задач учителей является внедрение в образовательный процесс таких методов и приемов, которые помогут ученикам непрерывно обучаться и овладевать определенными знаниями, умениями и навыками в той или иной сфере деятельности, развивать их творческие способности, при этом важная роль отводится изучению русского языка.

На данный момент наиболее распространенными являются виды дистанционного обучения, основанные на интерактивном телевидении, компьютерных телекоммуникационных сетях (региональных, глобальных) с различными дидактическими возможностями в зависимости от используемых конфигураций (текстовых файлов, мультимедийных технологий, видеоконференций), сочетания технологий и сети Интернет.

Преимущество обучения заключается в возможности непосредственного визуального контакта со школьниками, находящимися на различных расстояниях от учителя, параллельно с этим проводится практически обычное занятие, построенное как на традиционной методике, так и с использованием современных педагогических технологий.

Это допустимо при анализе художественного текста, или при изучении языка, или при демонстрации уникальных методик, лабораторных опытов, когда учителя и ученики могут стать свидетелями и участниками использования новых знаний, методов в своей области, новых информационных технологий, принять участие в дискуссии. Данная форма дистанционного обучения интерактивна и может считаться перспективной в системе повышения квалификации и подготовки специалистов.

В практике работы в образовательных учреждениях насущная проблема дня – воспитание социально активной личности, способной брать ответственность за самостоятельно принятые решения. Для выпускников средних образовательных учреждений обязательны требования готовности к ориентации в насыщенной информационными потоками жизни, к непрерывному самообучению. В связи с внедрением новой формы преподавания русского языка в школах возникает необходимость коммуникативной направленности преподавания русского языка, целенаправленного развития монологической и диалогической речи учащихся, дистанционному формированию умения рассуждать на предложенную тему, больше уделять внимания анализу текстов различных стилей и типов речи. И дело тут не только в программах, учебниках или пособиях, а в подходе к обучению. Начиная онлайн или офлайн урок, учитель должен спрашивать себя не только чему, но и как учить, зачем учить.

В связи с этим особое значение имеет использование и совершенствование методик образовательного процесса и образовательных технологий. Использование коммуникативного подхода к изучению русского языка на основе современных технологий – норма сегодняшнего дня. Особенно это касается сферы обучения русскому языку во время самоизоляции для учеников младших и старших классов, где взаимодействие с учителем на уроках не может быть эффективным без самостоятельного усвоения учащимися необходимой лексики, овладения нормами русского литературного языка, а также умения использовать языковые единицы в речевой практике.

Главная особенность современного урока русского языка – сотворчество учителя и ученика в познании, осмыслении языковых явлений. На уроках должна постоянно звучать живая речь, поэтому ДО или ZOOM весьма актуальны во время пандемии. Важны не формулировки правил и исключений из них, а художественные тексты и высказывания самих ребят. Задача учителя – отыскать в художественном произведении такие языковые единицы, проанализировав которые, ученики получат ключ к разгадке подтекста, пониманию идейно-образного содержания. Таким образом, в процессе изучения русского языка в школе ученик должен овладеть устойчивыми навыками адекватного восприятия и понимания речи, а также способностью порождать собственное речевое высказывание, обладающее определенными коммуникативными свойствами, тогда будет актуально использование аудирования как одного из современных методов преподавания русского языка для учеников младших классов при ДО.

Умения аудирования могут стать устойчивыми при самостоятельном совершенствовании их учащимися во внеурочное время. Этому могут способствовать средства информационно-коммуникационных технологий, позволяющие слышать речь носителей русского языка, видеть учебную информацию на компьютере, обеспечивать немедленную обратную связь между учеником и обучающим средством, а также организовывать учебную деятельность в индивидуальном темпе и контролировать результаты усвоения во время самоизоляции.

Проблемы аудирования широко освещаются в научной и методической литературе. Психологи, лингвисты и методисты признают это метод самым сложным видом речевой деятельности, следовательно, и работа по формированию навыка воспринимать речь на слух требует больших

усилий. В этом плане привлекает внимание подход зарубежных психологов и методистов к изучению современного метода, в основе которого лежит сопоставление механизмов аудирования у носителей и изучающих новый язык. Только родившись, ребенок сразу становится слушателем, через несколько месяцев начинает говорить, а читать и писать лишь через несколько лет. Это значит, что аудитивные навыки первичны и лежат в основе формирования всех остальных речевых навыков и умений.

Это приводит к тому, что для ученика школы русский язык важен как процесс специального обучения аудированию, приобретаемого и совершенствуемого самостоятельно, так и необходимость знать свои природные способности для самообучения и понимания речи на слух. Основу аудитивной информации составляют параллельно действующие психологические процессы – восприятие на уровне слова, предложения, диалога и понимание, результат смысловой переработки аудиоинформации порождает коммуникативное намерение учащегося, логику мысли.

Психолингвисты отмечают, что фоновая информация существенно влияет на способность памяти удерживать связные тексты, ассоциативные связи возникают уже на этапе знакомства с заглавием текста. Такие условия позволяют варьировать подходы к аудированию, индивидуализировать этот процесс. Этому могут способствовать современные обучающие средства, одним из которых является универсальный мультимедийный интерактивный комплекс ДО через разные программы независимо онлайн или офлайн, предназначенный для формирования и совершенствования иноязычных речевых умений учащихся во время карантина. В основе обучения данным комплексом – принцип дифференцированного и интегрированного обучения, коммуникативной направленности, наглядности и др.

Таким образом, дистанционное обучение предполагает тщательное и детальное планирование деятельности обучаемого, ее организации, четкую постановку задач и целей обучения, доставку необходимых учебных материалов, которые должны обеспечить интерактивность между учениками и учителями, обратную связь между обучаемым и учебным материалом, предоставлять возможность группового обучения. Наличие эффективной обратной связи позволяет ученику получать информацию о правильности своего продвижения от незнания к знанию. Мотивация – также важнейший элемент дистанционного обучения.

В настоящее время практикуется дистанционное обучение, что позволяет не прекращать учебный процесс. Таким образом, ученики могут связаться с преподавателем через Интернет, обсудить тему и решать тесты вместе, проводить урок по темам в режиме реального времени (через программу Zoom или Telegram). Сетевое обучение можно организовать как автономно, так и на основе развертывания информационно-образовательных сред. Эффективность дистанционного обучения зависит от организации и методического качества используемых материалов, а также мастерства участвующих в этом процессе.

Преподавателю на заметку

Дистанционное обучение – это взаимодействие учителя и учащихся между собой на расстоянии, дополняющее или заменяющее контактное обучение. Цели, содержание, методы, организационные формы, средства обучения при дистанционном обучении реализуются с помощью Интернет-технологий или других интерактивных средств (ТВ, радио, почта).

При дистанционном обучении можно не только планировать время, место и продолжительность занятий, но и повысить качество обучения за счет применения современных средств, электронных библиотек, причем учащиеся несут значительно большую ответственность за продуктивность своей работы. Особенно полезна дистанционная работа при выполнении творческих проектов и контроле, так как программы дистанционного контроля обеспечивают независимость и объективность оценки. Это могут быть тесты по лексике и грамматике, чтению (ответы на послетекстовые вопросы), проверка навыков аудирования (понимание прослушанного текста).

Удаленная поддержка позволяет организовывать конференции, форумы, вебинары, блоги, а также практикумы и тестирования для учеников офлайн (в отсроченном режиме) и online.

При работе офлайн учитель публикует все материалы для изучения со своим комментарием, ссылки на видеоматериалы (экранизации, телеспектакли, документальные и научно-популярные фильмы), библиотеки, электронные словари и справочники, специализированные сайты музеев, дает домашнее задание, указывает форму и срок его сдачи. Ученик работает самостоятельно в удобном для него режиме, отсылая выполненные задания педагогу на электронную почту или мессенжер. Особенно полезно дистанционное тестирование, проверочные работы. Тренировочные упражнения для дистанционной работы обычно предполагают большее количество примеров и требуют тщательного учета грамматических моделей, чтобы исключить возможную ошибку.

Чат-занятия проводятся синхронно, когда все участники имеют одновременный доступ к чату.

Веб-занятия – более длительные дистанционные уроки, конференции, семинары, деловые игры, творческие лаборатории, практикумы и др. – проводят на специальных образовательных веб-форумах с помощью записей, то есть асинхронно.

Учебная телеконференция проводится, как правило, на основе списков рассылки с использованием электронной почты. Именно так можно проводить уроки-концерты, проверку выразительного чтения.

Асинхронная модель обучения более гибкая, чем синхронная, но требует высокой заинтересованности ученика, поскольку предполагает индивидуальный план и возможность корректирующих заданий.

Компьютерные технологии повышают эффективность обучения и интерес ко всем культуроведческим аспектам обучения языку, обеспечивают доступ к информационным ресурсам и создают новое образовательное пространство. Необходимость общения обращает его участников к возможностям телеконференций, чат-технологий, к участию в международных проектах по различным проблемам, что стимулирует и развивает такие коммуникативные навыки, как умение вести беседу, отстаивать свою точку зрения, подкрепленную аргументами, умение находить компромисс с собеседником и лаконично излагать свою мысль. Таким образом, язык выполняет свою главную функцию – формирует и формулирует мысли, что и является подлинной обучающей средой, настоящим погружением не только в исследуемую проблему, но и в саму иноязычную деятельность, в другую культуру.

Замира НУРМАНОВА,
учитель высшей категории средней общеобразовательной школы № 21 города Ангрена Ташкентской области

А.П.ЧЕХОВ. РАССКАЗ «МАЛЬЧИКИ»

(для школ с русским языком обучения и применением инновационных технологий)

Цели урока: прочитать и проанализировать рассказ А.П.Чехова «Мальчики»; учить размышлять о прочитанном, прогнозировать развитие сюжета; развивать связную речь, совершенствовать навыки выразительного чтения, умение отвечать на вопросы; обогащать словарный запас; воспитывать внимательность и целеустремленность.

Оборудование: портрет А.П.Чехова, текст рассказа «Мальчики», компьютер, проектор, экран, иллюстрации к рассказу, словарь в слайдовой презентации, карта из географического атласа.

I. Организационный момент. Настрой класса на продуктивную работу, проверка домашнего задания.

На прошлом уроке мы с вами изучали биографию Антона Павловича Чехова. Дома каждый из вас составил денотатный граф о его жизни и творчестве по статье учебника. (Несколько учащихся читают вслух свои записи, остальные дополняют то, о чем не было сказано).

Примерный денотатный граф учащегося



(Работы сдаются на проверку.)

II. Введение нового материала

1. Словарная работа. В рассказе «Мальчики», который мы сегодня будем изучать, встретятся новые или малознакомые слова. Попробуйте объяснить значение этих слов: **полоскательная чашка, розвальни, кучер, бизон, башлык, джин, пампасы, флигель, Калифорния, мустанги, сюртук, самоеды, урядник.** (Учитель выслушивает ответы учащихся, затем корректирует их с помощью слайдовой презентации).

– **Полоскательная чашка** – блестящая металлическая миска для мытья посуды;

– **розвальни** – низкие и широкие сани с расходящимся по бокам облучком;

– **кучер** – слуга, работник, который правит лошадьми в экипаже;

– **бизон** – крупное полорогое животное с мягкой шерстью, дикий североамериканский бык;

– **башлык** – суконный теплый головной убор, остроугольный колпак с длинными концами, надеваемый поверх шапки;

– **джин** – английская водка;

– **пампасы** – южноамериканские степи;

– **флигель** – пристройка сбоку главного здания или небольшой дом во дворе, рядом со зданием;

– **Калифорния** – полуостров на западе Северной Америки, в Мексике;

– **мустанги** – одичавшие домашние лошади североамериканских прерий;

– **сюртук** – длинный двубортный пиджак, обычно в талию;

– **самоеды** – северные народы;

– **урядник** – низший чин уездной полиции.

Зная название и некоторые слова из произведения, с которым предстоит познакомиться, попытайтесь предположить, о чём пойдет речь?

2. Мотивация на дальнейшую работу с текстом. Прием «Ассоциативный куст» (Учащиеся называют ассоциации, связанные со словом «мальчики»)



III. Изучение нового материала. Метод «Чтение с остановками» (Чтение рассказа небольшими отрывками с обсуждением содержания каждого и прогнозом развития сюжета). Обязателен вопрос-прогноз *«Что будет дальше и почему?»*.

– Чтение текста от слов ***«Володя приехал!...» до слов «Володечка, а это же кто? – спросила шёпотом мать»***.

Стоп! *Работа парами* – найдите повторы некоторых слов и фраз в этом отрывке. Что они подсказывают читателю?

(Возможные ответы учащихся:

• Теперь будет всё в порядке, вся семья в сборе;

• Приезд единственного сына всегда радость в доме;

• Это привычное событие в жизни семьи Королёвых;

• Приближается долгожданный праздник).

Что будет дальше?

Чтение текста до слов ***«После чаю все пошли в детскую»***.

Стоп!

• Почему отец Володи называет приятеля сына Чечевицына то Черепицыным, то Чибисовым?

• Какие перемены в Володе заметили девочки?

• На какие размышления наводит фраза Володи «А в Калифорнии вместо чая пьют джин»?

• Какие события могут произойти дальше?

Чтение текста до слов ***«Совершенно непонятные слова Чечевицына, и то, что он постоянно шептался с Володей...»***.

Стоп!

• Какой шумной и увлекательной работой была занята семья?

• Почему Володя и Чечевицын отстранились и рассматривали географический атлас?

• Вспомните предполагаемый маршрут мальчиков. Рассмотрим его в нашем географическом атласе. (Карта спроецирована на экран).

Что вы можете сказать о реальности маршрута?

Пермь – Тюмень – Томск – Камчатка – Берингов пролив – Америка

Как характеризуют Чечевицына его слова: *«Лишь бы в Америку попасть, а Калифорния не за горами. Добывать же себе пропитание можно охотой и грабежом»?*

Как называл себя Чечевицын в разговоре с Катей?

Чтение до слов ***«Рано утром в сочельник Катя и Соня тихо поднялись с постелей и пошли посмотреть, как мальчики будут бежать в Америку»***.

Стоп!

• Что Катя и Соня считали загадочным и странным?

• О чем они узнали, подслушав разговор мальчиков?

• Что приготовили для побега «Монтигомо Ястребиный Коготь» и его «бледнолицый брат»?

• Почему, идя спать, Володя расплакался и долго обнимал отца, мать и сестер?

• Как вы думаете, что будет дальше?

Чтение в лицах диалога Володи и Чечевицына от слов ***«Так ты не поедешь?»*** до слов ***«Так одевайся!»***

Чтение рассказа до конца.

Стоп!

• Как вы оцениваете решимость мальчиков? Что пришлось предпринять Чечевицыну, чтобы уговорить Володю отправиться в путь?

• Попробуйте сравнить характеры друзей. Подходит ли в разговоре об этих мальчиках слово «смелый» (Может, было бы точнее говорить о том, кого из них можно считать безрассудным?).

• Появление Володи в первый раз вызвало страшный шум и радость: ***«Гав! Гав! – ревел басом Милорд, огромный черный пес, стуча хвостом по стенам и по мебели. Всё смешалось в один радостный звук, продолжавшийся минуты две»***. При появлении пойманных беглецов опять звучит голос Натальи. ***«И Милорд залаял басом: «Гав! Гав!».***

Чем можно объяснить, что финальная сцена была лишена радости первой встречи?

• Почему Володя был очень подавлен тем, что произошло, а его друг горд теми же самыми событиями?

• Кто из мальчиков вызывает у вас большее сочувствие?

• Предположите, что может произойти в семье Королёвых после отъезда Чечевицына?

V. Обобщение. Рефлексия. *Метод «Микрофон»* (каждый ученик в краткой форме высказывает свое впечатление, мнение об уроке в микрофон (или в имитирующий его предмет), опираясь на вопросы:

• Что запомнилось?

• Что понравилось?

• Что было самым интересным?

• О чем бы ты рассказал своим родителям или друзьям?

• Возможна ли такая ситуация в наше время?

V. Подведение итогов урока, оценивание работы учащихся, домашнее задание: письменно ответить на вопросы:

1) Чему нас учит рассказ А.П.Чехова «Мальчики»? (Ставить перед собой реальные и выполнимые цели. Беречь родителей и близких людей. Не подвергать свою жизнь опасности. Уметь отвечать за свои поступки. Не поддаваться чужому влиянию);

2) Какие качества вы хотели бы воспитать в себе? От каких хотели бы избавиться? (Положительные и отрицательные качества).

Севиль БАГИРОВА,
доцент Бакинского славянского университета

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РОССИЕВЕДЧЕСКОГО МАТЕРИАЛА НА ЗАНЯТИЯХ ПО РКИ

Один из наиболее удачных, по нашему мнению, путей повышения мотивации изучения русского языка – активный ввод россиеведческой информации в учебный процесс.

Русский язык – это средство межнационального общения, ставшее общим достоянием многих народов, великих достижений культуры человечества, в том числе русской национальной, как ключ, открывающий доступ к огромному количеству информации, создававшейся поколениями. Невозможно представить мировую цивилизацию без русской культуры и русского языка.

Цель нашей статьи – практическое обоснование россиеведческого компонента преподавания РКИ и изложение модели построения национально ориентированного учебника.

Представленный в статье россиеведческий материал посвящен празднику Масленицы и может послужить примером для организации и презентации учебного материала об истории возникновения народных праздников, праздничных ритуалов, связанных с ними русских обычаев.

По нашему мнению, нецелесообразно перегружать занятие языковыми заданиями: работа над текстами, картинами, музыкальной пьесой являются основным материалом, обеспечивающим коммуникативную направленность в обучении русскому языку.

Представленные на занятии картина В.И.Сурикова «Взятие снежного городка» и две картины Б.М.Кустодиева «Масленица» (1916), «Масленица» (1919) являются национальными картинами, где самобытность народной жизни, вся ее красота показаны в праздничном варианте.

Сопоставлены две картины художника, которые по времени создания разделяет всего три года. Оба полотна объединяет изображение одного и того же безудержного русского веселья. В картинах передана волшебная красота зимнего пейзажа, на фоне которого происходят масленичные гулянья.

Если спросить у любого прохожего, что такое «Масленица», каждый, наверное, ответит – это блины. Так оно и есть, но не только – это веселый, озорной, сказочный и очень древний праздник, целая неделя гуляний, игр, вкусных обильных угощений.

